V.Sh. Fayziyev,
H.O. Jo‘rayev,
Sh.Sh. Fayziyev





ELEKTR ZANJIR ELEMENTLARIGA DOIR MASALALAR YECHISH

O‘quv qo‘llanma

V.Sh. Fayziyev, H.O. Jo‘rayev, Sh.Sh. Fayziyev

ELEKTR ZANJIR ELEMENTLARIGA DOIR MASALALAR YECHISH

O‘quv qo‘llanma

“KAMOLOT” nashriyoti
Buxoro - 2024

UO‘K: 621.3.049
KBK: 31.211.51
F32

Fayziyev Vohid Shavkatovich, Jo‘rayev Husniddin Oltinboyevich, Fayziyev Shaxobiddin Shavkatovich. Elektr zanjir elementlariga doir masalalar yechish. / [Matn]: o‘quv qo‘llanma / V.Sh. Fayziyev, H.O. Jo‘rayev, Sh.Sh. Fayziyev - Buxoro : “BUXORO DETERMINANTI” MCHJning Kamolot nashriyoti, 2024. - 212 b.

ISBN 978-9910-755-84-2

Ushbu o‘quv qo‘llanmada masalalar yechish namunalari keltirilgan bo‘lib, masalalarni yechishda har xil usullardan foydalanilgan, ya’ni masalalarni yechishda ularni sxemalarini murakkab ko‘rinishdan oddiy ko‘rinishga aylantirib, masalalar yechilgan.

O‘quv qo‘llanma yordamida o‘quvchilar o‘tkazgichlarni ketma-ket va parallel ulash usullarni hamda turli xil sxemalarni ulashni o‘rganishlari mumkin.

Ushbu o‘quv qo‘llanmada nazariy usul bilan bir qatorda amaliy (laboratoriya) usulida yechib ko‘rilgan masalalar ham joy olgan.

Uslubiy qo‘llanmada Kirxgofning 1-2-qoidalari va ularga doir masalalar yechimlari ham joy olgan.

Ushbu o‘quv qo‘llanmadan umumiy o‘rta talim maktabi, akademik litsey va kollejlar o‘qituvchilari o‘quvchilarni olimpiadalarga tayyorlash uchun foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar:

D.R.Djurayev – BuxDU « Fizika » kefedrasi professori, fizika-matematika fanlari doktori.

M.Z.Sharipov – BuxMTI « Fizika » kefedrasi professori, fizika-matematika fanlari doktori.

Ushbu o‘quv qo‘llanma Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 4-martdagi 55-sonli buyrug‘iga asosan nashrga ruxsat berildi. Ro‘yxatga olish raqami 55-174.

MUNDARIJA

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-matrdagi PQ-5032-son Qarorida “Bugungi kunda ta’lim muassasalarida fizika fanini o‘qitish sifatini oshirish, ta’lim jarayoniga zamonaviy o‘qitish uslublarini joriy qilish, iqtidorli o‘quvchilarni saralash, mehnat bozoriga raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash, ilmiy tadqiqot va innovatsiyalarni rivojlantirish hamda amaliy natijadorlikka yo‘naltirishga katta e’tibor qaratilayotganligi” ta’kidlangan.

Talabalarning fizikaning elektr va magnetizm kursidan nazariy bilimlarini o‘zlashtirishlari va ularni amaliy mashqlarda qo‘llay bilishlari uchun fizika o‘qituvchilarini tayyorlash sifatini oshiruvchi omillardan biri hisoblanadi. Masalalar yechish amaliy ko‘rsatmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu to‘plamdagi masalalarni yechishda egallangan malakalar talabalarning kelgusi pedagogik faoliyatlari uchun foydalidir.

O‘quv qo‘llanmada masalalar yechish namunalari keltirilgan bo‘lib, masalalarni yechishda har xil usullardan foydalanilgan, ya’ni masalalarni yechishda ularni sxemalarini murakkab ko‘rinishdan oddiy ko‘rinishga aylantirib, masalalar yechilgan.

O‘quv qo‘llanma yordamida o‘quvchilar o‘tkazgichlarni ketma-ket va parallel ulash usullarni hamda turli xil sxemalarni ulashni o‘rganishlari mumkin.

Ushbu o‘quv qo‘llanmada nazariy usul bilan bir qatorda amaliy (laboratoriya) usulida yechib ko‘rilgan masalalar ham joy olgan.

Uslubiy qo‘llanmada Kirxgofning 1-2-qoidalari va ularga doir masalalar yechimlari ham joy olgan.

Ushbu o‘quv qo‘llanmadan umumiy o‘rta talim maktabi, akademik litsey va kollejlar o‘qituvchilari o‘quvchilarni olimpiadalarga tayyorlash uchun foydalanishlari mumkin.

O‘quv qo‘llanmadan Oliy ta’lim muassasalarining Fizika yo‘nalishlarida foydalanish mumkin.

KONDENSATORLAR, KONDENSATORLARNI KETMA-KET VA PARALLEL ULASH



Yakkalangan o‘tkazgichning elektr sig‘imi.

Yakkalangan o‘tkazgich deb, elektr jihatidan izolyasiyalangan va boshqa o‘tkazgichlardan yetarlicha uzoqlikda joylashgan o‘tkazgichga aytiladi.

Agar yakkalangan o‘tkazgichga q zaryad berilsa, bu zaryad o‘tkazgichning sirti biror φ potensialli ekvipotensial sirtga aylanguncha o‘tkazgich sirti bo‘ylab tarqaladi. O‘tkazgich sirtining potensiali φ unga berilgan zaryad q ga proporsional ravishda o‘zgarar ekan.

O‘lchashlar natijasida ma’lum bo‘ldiki, o‘tkazgich zaryadini potensialga bo‘lgan nisbati, ya’ni $\frac{q}{\varphi}$ zaryadning katta-kichikligiga bog‘liq bo‘lmasdan, faqat o‘tkazgichning o‘lchami, shakli va o‘tkazgich atrofidagi dielektrikningxususiyatlariga bog‘liq bo‘lar ekan. Bu nisbatga yakkalangan o‘tkazgichning elektr sig‘imi deyiladi va C harfi bilan belgilanadi.

$$C = \frac{q}{\varphi} \qquad (1)$$

Yuqoridagi ifodaga asosan elektr sig‘imni quyidagicha tariflash mumkin:

Yakkalangan o‘tkazgichning elektr sig‘imi deb, uning potensialini bir birlikka o‘zgartirish uchun zarur bo‘lgan zaryadga miqdor jihatidan teng bo‘lgan fizik kattalikka aytiladi.

SI tizimida sig‘im birligi ingliz fizigi Maykl Faraday nomi bilan atalgan va farad (belgi:F) hisoblanadi. 1 faradli kondensator, 1 kulon elektr zaryadi bilan zaryadlanganida, uning plastinkalari orasidagi potentsiallar farqi 1 voltga teng bo‘ladi

$$1F = \frac{1kl}{1V}$$

Maykl Faradey *(inglizcha: Michael Faraday, 1791.22.9 London-1867.25.8) ingliz fizigi, kimyogari, elektromagnit maydoni ta’limoti asoschisi, London Qirollik jamiyati a’zosi (1824). Peterburg Fanlar akademiyasi a’zosi (1830). London Qirollik jamiyati institutida assistent (1913), laboratoriya direktori (1825), kimyo kafedrasining professor (1833—1862). Ilmiy ishlari elektr, magnitizm, magnitooptika va*

elektrokimyoga oid. Elektromagnit induksiya hodisasi (1831), elektroliz qonunlari (1833), diamagnetizm va para-magnetizm hodisasi (1845), yorug‘lik qutblanish tekisligining magnit maydonda burilishi (1845) va boshqalarni kashf etgan. Elektr zaryadining saqlanish qonunini eksperimental tasdiqlagan (1843). Faradey g‘oyalari va uning ilmiy yutuqlari fizika fanining rivojlanishida muhim o‘rin tutgan.

1C elektr zaryadi juda katta zaryad bo‘lgani uchun 1F elektr sig‘imi ham juda katta sig‘imdir. Amalda 1F elektr sig‘imiga umuman ishimiz tushmaydi. Shuning uchun, masalalarda bu sig‘imning ulushlari mikrofaradda (μF), nanofaradda (nF), pikofaradda (pF) lar bilan ish ko‘ramiz.

Agar +q va -q zaryadlar bilan zaryadlangan o‘tkazgichlar sistemasi orasida potensiallar ayirmasi (kuchlanish) $U=\varphi_1-\varphi_2$ bo‘lsa, bu ikki o‘tkazgichning o‘zaro elektr sig‘imi C quyidagicha bo‘ladi:

$$C=\frac{q}{\varphi_1-\varphi_2}=\frac{q}{U} \qquad (2)$$

Yassi kondensator:

Qarama-qarshi ishorali zaryadlar bilan zaryadlangan, dielektrik bilan ajratilgan, bir-biriga yaqin turuvchi ikkita parallel o‘tkazgich plastinaga yassi kondensator deyiladi. Yassi kondensator zaryadlanganda har bir qoplamaning tashqi tomoni elektroneytral bo‘lib, bu qoplamalarning biri-biriga qaragan ichki yuzalarida qarama-qarshi ishorali va teng miqdorda +q va -q zaryadlar to‘planadi. Qoplamalar orasida bir jinsli elektr maydoni hosil bo‘ladi (1-rasm).



1-rasm. Yassi kondersatorning ko‘rinishi.

Quyidagi rasmda yassi kondensatorning o‘zgarmas tok manbaiga ulanish rasmiva sxematik ko‘rinishi tasvirlangan (2-rasm).



2-rasm. Yassi kondensatorning sxematik ko‘rinishi.

Yassi kondensatorning elektr sig‘imini hisoblash formulasini keltirib chiqaraylik. Buning uchun sig‘imning umumiy formulasi (2) dan foydalanamiz. Unga ko‘ra

$$C = \frac{q}{U} = \frac{q}{Ed} = \frac{q}{\frac{\sigma}{\varepsilon\varepsilon_0}d} = \frac{q}{\frac{q}{S\varepsilon\varepsilon_0}d} = \frac{\varepsilon\varepsilon_0 S}{d}$$ bo‘ladi.

Demak, yassi kondensatorning elektr sig‘imi quyidagicha bo‘lar ekan:

$$C = \frac{\varepsilon\varepsilon_0 S}{d} \qquad (3)$$

Bu yerda: S – bitta qoplamaning yuzi, d – qoplamalar orasidagi masofa.

Kondensatorlarni ketma-ket va parallel ulash:

Kondensatorlarni quyida rasmdagi kabi ulash ketma-ket ulash hisoblanadi.

Bunda 1-kondensatorning 2-qoplamasiga 2-kondensatorning 1-qoplamasi, 2- kondensatorning 2-qoplamasiga 3-kondensatorning 1-qoplamasi va hokozo ketma- ketlikda ulanadi (3-rasm).



3-rasm. Kondesatorlarni ketma-ket ulash sxemasi.

Kondensatorlarni ketma-ket ulaganda 1-kondensatorning 1-qoplamasi manbaning (+) qutbiga, oxirgi n-kondensatorning 2-qoplamasi esa manbaning (-) qutbiga ulangan bo‘ladi. Oradagi qoplama va kondensatorlar hech qanday manbaga ulanmagan bo‘lsa ham ular qanday zaryadlanadi degan savol tug‘ilishi tabiiy. Bunga sabab elektrostatika induksiya hodisasidir. Bu yerda oraliqda joylashgan qoplama va kodensatorlar manbaga ulangan ikki chetdagi qoplamalarning elektr maydonida turgani bois, ular elektr maydonga kiritilgan o‘tkazgich vazifasini o‘taydi. Har bir o‘tkazgichning (bir-biriga ulangan qo‘shni kondensator qoplamalarining) qarama-qarshi tomonida teng miqdordagi va qarama-qarshi ishorali zaryadlar to‘planadi. Natijada tok manbaiga ketma-ket ulangan kondensatorlarning har bir qoplamasi teng miqdorda +q va -q zaryadlarga ega bo‘ladi.

Shuning uchun ham $q_{um} = q_1 = q_2 = q_3 = ... = q_n$ bo‘ladi. Tashqaridan berilgan umumiy kuchlanish barcha kondensatorlarga taqsimlanib ketgani sababli $U_{um} = U_1 + U_2 + U_3 + ... + U_n$ bo‘ladi. Umumiy sig‘imni popish uchun (2) ifodadan U larni topib ushbu ifodaga qo‘yib chiqamiz.

$$U_{um} = U_1 + U_2 + U_3 + ... + U_n; \rightarrow \frac{q_{um}}{C_{um}} = \frac{q_1}{C_1} + \frac{q_2}{C_2} + \frac{q_3}{C_3} + ... + \frac{q_n}{C_n}$$

Hosil bo‘lgan kasrni q ga bo‘lib yuborsak, kondensatorlar ketma-ket ulanganda zaryad bir xil ekanligini inobatga olamiz.

$$\frac{1}{C_{um}} = \frac{1}{C_1} + \frac{1}{C_2} + \frac{1}{C_3} + ... + \frac{1}{C_n} \qquad (4)$$

Kondensatorlarni ketma-ket ulashda sig‘im formulasi hosil bo‘ladi.

Kondensatorlarni quyida 4-rasmdagidek qilib ulash parallel ulash hisoblanadi. Bunda hamma kondensatorlarning 1-qoplamasi manbaning (+) qutbiga, 2- qoplamasi esa manbaning (-) qutbiga ulanadi.



4-rasm. Kondesatorlarni paralell ulash sxemasi.

Hamma kondensatorlarning yuqorigi 1-qoplamalari to‘g‘ridan to‘g‘ri manbaning (+) qutbiga ulangan. Shuning uchun, bu qoplamalarning hammasida birxil manbaning (+) qutbining potensialiga teng bo‘lgan φ_+ potensial hosil bo‘ladi. Hamma kondensatorlarning pastki 2-qoplamalari to‘g‘ridan to‘g‘ri manbaning (-) qutbiga ulangan. Shuning uchun, bu qoplamalarning hammasida bir xil manbaning (-) qutbining potensialiga teng bo‘lgan φ_- potensial hosil bo‘ladi (4-rasm). Har bir qoplamadagi potensiallar farqi o‘zaro teng bo‘ladi va bu potensiallar farqi manbaning kuchlanishiga teng, ya’ni $\varphi_+ - \varphi_- = U$ bo‘ladi. Demak, kondensatorlarning hammasidagi kuchlanishlar bir xil va manbaning kuchlanishiga teng, ya’ni $U_{um} = U_1 = U_2 = U_3 = ... = U_n$ bo‘ladi. Kondensatorlar har biri zaryadlanish jarayonida zaryadni tok manbaidan olgani bois kondesatorlar sistemasining umumiy zaryadi barcha kodensatorlarda to‘plangan zaryadlar yig‘indisiga teng, ya’ni $q_{um} = q_1 + q_2 + q_3 + ... + q_n$ bo‘ladi.

Kondensatorlar sistemasining umumiy sig‘imni popish uchun (2) ifodadan q larni topib ushbu ifodaga qo‘yib chiqamiz

$$q_{um} = q_1 + q_2 + q_3 + ... + q_n \rightarrow C_{um}U_{um} = C_1U_1 + C_2U_2 + C_3U_3 + ... + C_nU_n$$

Kondensatorlar paralallel ulanganda kuchlanish tengligi uchun oxirgi tenglamani barcha hadini U ga bo‘lsak quyidagi natijaga erishamiz.

$$C_{um} = C_1 + C_2 + C_3 + ... + C_n \quad (5)$$

Kondensatorlarni paralell ulashda sig‘im formulasi hosil bo‘ladi.

KONDENSATORLARNI ARALASH ULASHGA DOIR MASALALAR

1. Sxemaning umumiy sig‘imini hisoblang.



Har bir sig‘imlar ketma-ket ulanganligi uchun (4) formuladan foydalanamiz.

Uchala sig‘imlar ham C ekanligini inobatga oladigan bo‘lsak, umumiy sig‘im quyidagicha hisoblanadi.

$$\frac{1}{C_{Um}} = \frac{1}{C_1} + \frac{1}{C_2} + \frac{1}{C_3} + \ldots \frac{1}{C_n}; \quad \frac{1}{C_{Um}} = \frac{1}{C} + \frac{1}{C} + \frac{1}{C} = \frac{3}{C}$$

$$C_{Um} = \frac{C}{3}$$

2. Sxemaning umumiy sig‘imini hisoblang



Har bir sig‘imlar paralel ulanganligi uchun (5) formuladan foydalanamiz..

Uchala sig‘imlar ham C ekanligini inobatga oladigan bo‘lsak, umumiy sig‘im quyidagicha hisoblanadi.

$$C_{Um} = C_1 + C_2 + C_3 + \ldots C_n$$

$$C_{Um} = C + C + C = 3C \rightleftarrows; C_{Um} = 3C$$

3. Sxemaning umumiy sig‘imini hisoblang.($C_1 = C_2 = C_3 = C$)



Sxemaning C_1 va C_2 sig‘imlar orqali tok o‘tmaydi,shuning uchun bu sig‘imlarni sxemadan olib tashlaymiz va quyidagi ko‘rinishga keladi.



$$C_{Um} = C_3 = C$$

4. Sxemaning umumiy sig‘imini hisoblang.($C_1 = C_2 = C_3 = C$)



Sxemani quyidagi sodda ko‘rinishda ifodalaymiz.



Sxemadan ko‘rinib turibdiki uchala sig‘imlar ham parallel ulangan (5) formuladan foydalanib, hisoblashlar olib boramiz.

$$C_{Um} = C + C + C = 3C \rightleftarrows; C_{Um} = 3C$$

5. Sxemaning umumiy sig‘imini hisoblang.($C_1 = C_2 = C_3 = C_4 = C$)



Sxemani quyidagi sodda ko‘rinishda ifodalaymiz



Sxemadan ko‘rinib turibdiki C_3 va C_4 sig‘imlar parallel ulangan

$$C_{34} = C_3 + C_4 = C + C = 2C$$

C_{34} sig‘im C_2 sig‘imga ketma-ket ulangan.

$$\frac{1}{C_{234}} = \frac{1}{C_2} + \frac{1}{C_{34}} = \frac{1}{C} + \frac{1}{2C} = \frac{3}{2C}; C_{234} = \frac{2}{3}C$$

C_{234} sig‘im C_1 sig‘imlar parallel ulangan

$$C_{Um} = C_1 + C_{234} = C + \frac{2}{3}C = \frac{5}{3}C; C_{Um} = \frac{5}{3}C$$

6. Sxemaning umumiy sig‘imini hisoblang. ($C_1 = C_2 = C_3 = C_4 = C$)



Sxemadan ko‘rinib turibdiki C_2 va C_2 sig‘imlar ketma-ket ulangan

$$\frac{1}{C_{12}} = \frac{1}{C_1} + \frac{1}{C_2} = \frac{1}{C} + \frac{1}{C} = \frac{2}{C}; C_{12} = \frac{C}{2}.$$

C_{12} sig‘im C_3 sig‘imlar parallel ulangan

$$C_{123} = C_{12} + C_3 = \frac{C}{2} + C = \frac{3}{2}C$$

C_{123} sig‘im C_4 sig‘imga ketma-ket ulangan.

$$\frac{1}{C_{Um}} = \frac{1}{C_4} + \frac{1}{C_{123}} = \frac{1}{C} + \frac{2}{3C} = \frac{5}{3C} \rightarrow C_{Um} = \frac{3}{5}C$$

7. Sxemaning umumiy sig‘imini hisoblang.($C_1 = C_2 = C_3 = C_4 = C_5 = C$)



Ushbu sxemani quyidagi sodda ko‘rinishdagi sxema orqali ifodalaymiz



Shunga o‘xshash sxemalar uchun quyidagi formula doimo o‘rinlidir. Agar $\frac{C_1}{C_4} = \frac{C_2}{C_5}$ nisbat teng bo‘lganda C_3 sig‘imda potensiallar farqi 0 ga teng bo‘ladi. Shuning uchun C_3 sig‘imni sxemadan olib tashlaymiz.



Sxemadan ko‘rinib turibdiki C_1 va C_2 sig‘imlar hamda C_4 va C_5 sig‘imlar ketma-ket ulangan. C_{12} sig‘im C_{45} sig‘imlar parallel ulangan.

$$\frac{1}{C_{12}} = \frac{1}{C_1} + \frac{1}{C_2} = \frac{1}{C} + \frac{1}{C} = \frac{2}{C} \rightarrow C_{12} = \frac{C}{2}; \frac{1}{C_{45}} = \frac{1}{C_4} + \frac{1}{C_5} = \frac{1}{C} + \frac{1}{C} = \frac{2}{C}$$

$$C_{45} = \frac{C}{2}: \quad C_{Um} = C_{12} + C_{45} = \frac{C}{2} + \frac{C}{2} = C \rightarrow C_{Um} = C$$

8. Sxemaning umumiy sig‘imini hisoblang.?



Oldingi masalada aytganimizdek. $\frac{C_1}{C_4}=\frac{C_2}{C_5}$ nisbat teng bo‘lgan hollarda C_3 sig‘imda potensiallar farqi 0 ga teng bo‘ladi. Shuning uchun C_3 sig‘imni sxemadan olib tashlaymiz.



Sxemadan ko‘rinib turibdiki C_1 va C_2 sig‘imlar hamda C_4 va C_5 sig‘imlar ketma-ket ulangan. C_{12} sig‘im C_{45} sig‘imlar parallel ulangan.

$$\frac{1}{C_{12}}=\frac{1}{C_1}+\frac{1}{C_2}=\frac{1}{3C}+\frac{1}{6C}=\frac{3}{6C}\rightarrow\ C_{12}=2C$$

$$\frac{1}{C_{45}}=\frac{1}{C_4}+\frac{1}{C_5}=\frac{1}{6C}+\frac{1}{12C}=\frac{3}{12C}$$

$$\rightarrow\ C_{45}=4C:\ C_{Um}=C_{12}+C_{45}=2C+4C=6C$$

$$C_{Um}=6C$$

9. Sxemaning umumiy sig‘imini toping?



K va E nuqtalarda potensiallar farqi 0 ga tengligi uchun KE yo‘nalishda tok oqmaydi bu kondensator zaryadlanmaydi shuning uchun bu kondensatorni sxemadan olib tashlaymiz

($\frac{C}{C}=\frac{2C}{2C}$ teng bo‘lgani uchun ham yuqoridagi shart o‘rinlidir)



$$\frac{1}{C_{12}}=\frac{1}{C}+\frac{1}{2C}=\frac{3}{2C};C_{12}=\frac{2C}{3}:\frac{1}{C_{45}}=\frac{1}{C}+\frac{1}{2C}=\frac{3}{2C};$$
$$C_{45}=\frac{2C}{3}:\ C_{Um}=C_{12}+C_{45}=\frac{2C}{3}+\frac{2C}{3}=\frac{4C}{3};\ C_{Um}=\frac{4C}{3}$$

10. ad nuqta orasidagi umumiy sig‘imni toping?



$$\frac{1}{C_{mn}}=\frac{1}{C}+\frac{1}{C}+\frac{1}{C}=\frac{3}{C}\rightarrow C_{mn}=\frac{C}{3}:\frac{1}{C_{pq}}=\frac{1}{C}+\frac{1}{C}+\frac{1}{C}=\frac{3}{C}\rightarrow C_{pq}=\frac{C}{3}:$$
$$C_{bc}=C_{mn}+C_{pq}=\frac{C}{3}+\frac{C}{3}=\frac{2C}{3};\frac{1}{C_{ab}}=\frac{1}{C}+\frac{1}{C}=\frac{2}{C}\rightarrow C_{ab}=\frac{C}{2}:$$
$$\frac{1}{C_{ad}}=\frac{1}{C_{ab}}+\frac{1}{C_{bc}}+\frac{1}{C_{cd}}=\frac{2}{C}+\frac{3}{2C}+\frac{1}{C}=\frac{9}{2C};C_{ad}=\frac{2C}{9}:$$

11. Sxemaning umumiy sig‘imini toping?



Sxemani quyidagicha soddalashtiramiz, ya’ni b va c nuqtalarni tutashtiramiz.



1-rasm.



1- rasmning soddalashgan ko‘rinishi.

$$\frac{1}{C_{bdfc}} = \frac{1}{2C} + \frac{1}{C} + \frac{1}{2C} = \frac{4}{2C}; C_{bdfc} = \frac{C}{2};$$

$$C_{bc} = C_{bdfc} + 2C = \frac{C}{2} + 2C = \frac{5C}{2}$$

$$\frac{1}{C_{abce}} = \frac{1}{C_{ab}} + \frac{1}{C_{bc}} + \frac{1}{C_{ce}} = \frac{1}{2C} + \frac{2}{5C} + \frac{1}{2C};$$

$$C_{abce} = \frac{10C}{14} = \frac{5C}{7}:$$

$$C_{ae} = C_{abce} + C = \frac{5C}{7} + C = \frac{12C}{7}$$

12. Sxemaning umumiy sig‘imini toping(1-rasm)?



1-rasm.

Sxemani quyidagicha soddalashtiramiz, ya’ni potensiallari bir xil bo‘lgan nuqtalarni ya’ni e va c nuqtalarni tutashtiramiz (1,1-rasm).



1,1-rasm.



1,2-rasm. (1,1-rasmni soddalashgani)



1,3-rasm. (1,2-rasmni soddalashgani)



1,4-rasm. (1,3-rasmni soddalashgani)

1,3-rasmda $\frac{2C}{2C}=\frac{2C}{2C}$ nisbat teng bo‘lganligi uchun c va e nuqtalar potensiallari bir xil , potensiallar farqi 0 ga tengligi uchun ce nuqtalar orasidagi sig‘im orqali tok o‘tmaydi ya’ni bu sig‘im zaryadlanmaydi shuning uchun uni sxemadan olib tashladik(1,4-rasm).

$$\frac{1}{C_{bf}}=\frac{1}{2C}+\frac{1}{2C}=\frac{2}{2C};C_{bf}=C;\frac{1}{C_{abfd}}=\frac{1}{C}+\frac{1}{C}+\frac{1}{C}=\frac{3}{C};C_{abfd}=\frac{C}{3}$$

$$\frac{1}{C_{ad}}=\frac{1}{2C}+\frac{1}{2C}=\frac{2}{2C};C_{ad}=C;C_{um}=C_{abfd}+C_{ad}=\frac{C}{3}+C=\frac{4}{3}C,C_{um}=\frac{4}{3}C.$$

13. Sxemaning umumiy sig‘imini hisoblang.



1-rasm.

Sxemani sodda ko‘rinishda ifodalaymiz ya’ni 2,4,5 va 3,6,8 nuqtalarni potensiallari bir xil bo‘lganligi uchun tutashtiramiz. (1,1-rasm).



1,1-rasm.



1,2-rasm.

1,1-rasmdagi sxemaning parallel turgan sig‘imlarni hisoblasak, 1,2-rasmdagi sodda sxema hosil bo‘ladii.

$$\frac{1}{C_{Um}}=\frac{1}{3C}+\frac{1}{6C}+\frac{1}{3C}=\frac{5}{6C};C_{Um}=\frac{6}{5}C=1{,}2C.$$

14. Rasmda tasvirlangan sxemaning umumiy sig‘imini toping.Har bir kondensatorning sig‘imi C ga teng(1-rasm).



1-rasm.



1,1-rasm.

1-rasmdagi murakkab sxemani 1,1-rasmdagi sodda ko‘rinishga o‘tamiz.

Hamma kondensatorlarning sig‘imi birday bo‘lgani tufayli A va B nuqtalar orasidagi potensiallar farqi nolga teng, C_4 kondensator hamma vaqt zaryadlanmagan bo‘ladi va sxema ancha soddalashadi (1,2-rasm).



1,2-rasm.

$$C_{23} = \frac{C_2 \cdot C_3}{C_2 + C_3} = \frac{C}{2}; C_{56} = \frac{C_5 \cdot C_6}{C_5 + C_6} = \frac{C}{2};$$

$$C_{Umum} = C_1 + C_{23} + C_{56} = C + \frac{C}{2} + \frac{C}{2} = 2C$$

15. Sxemalarning umumiy sig‘imini toping(1-rasm)?



1-rasm.



1,1-rasm.

1-rasmni murakkab ko‘rinishdan sodda ko‘rinishga o‘tamiz(1,1-rasm) va hisoblaymiz.

$$C_{Um} = C + 2C + 3C = 6C$$

16. Sxemalarning umumiy sig‘imini toping(1-rasm)?



1-rasm.



1,1-rasm.

1-rasmdagi sxemaning ikki burchagidagi sig‘imlarni ketma-ket ulasak sxemamiz 1,1-rasm kabi soddalashadi. 1,1-rasmdagi C va C/2 sig‘imlarni parallel ulasak, 1,2-rasmdagi sxema hosil bo‘ladi. 1,2-rasmdagi 3C/2 va C sig‘imni ketma-ket ulasak 1,3-rasm hosil bo‘ladi.



1,2-rasm.



1,3-rasm.

1,3-rasmdan umumiy sig‘imni topamiz. $C_{Um} = \frac{3C}{5} + C + \frac{3C}{5} = \frac{11C}{5}$

17. Sxemalarning umumiy sig‘imini toping(1-rasm)?



1-rasm.



1,1-rasm.

1-rasmdagi murakkab sxemani 1,1-rasmdagi sodda ko‘rinishga o‘tamiz. $\frac{C}{C} = \frac{3C}{3C}$ Nisbatlar tengligi uchun 2C kondensator uchlaridagi potensiallar teng, potensiallar farqi esa nolga teng bo‘ladi va bu kondensator zaryadlanmaydi shuning uchun uni sxemadan olib tashlaymiz(1,2-rasm). 1,2-rasmdagi C va 3C kondensatorlarni ketma-ket ulasak 1,3-rasmdagi sxema hosil bo‘ladi.



1,2-rasm



1,3-rasm

1,3-rasmdagi sxemadan umumiy qarshilikni topamiz.

$$C_{Um} = \frac{3C}{4} + \frac{3C}{4} = \frac{6C}{4} = 1{,}5C$$

18. Sig‘imlari $C_1\ 3mkF, C_2 = 5mkF, C_3 = 6mkF, va\, C_4 = 5mkF$ bo‘lgan to‘rtta kondensator rasmga ko‘rsatilgan sxema bo‘yicha ulangan. Hosil bo‘lgan kondensatorlar batareyasining sig‘imini anaqlang.



1 bilan 2, 3 bilan 4-kondensatorlar ketma-ket, chiqqan natija parallel ulasak umumiy sig‘im hosil bo‘ladi.

$$\frac{1}{C_{1.2}}=\frac{1}{C_1}+\frac{1}{C_2}=\frac{1}{3}+\frac{1}{6}=\frac{3}{6};\frac{1}{C_{1.2}}=\frac{3}{6}=\frac{1}{2}\rightarrow C_{1.2}=2mkF$$

$$\frac{1}{C_{3.4}}=\frac{1}{C_3}+\frac{1}{C_4}=\frac{1}{5}+\frac{1}{10}=\frac{3}{10};\frac{1}{C_{3.4}}=\frac{3}{10}\rightarrow C_{3.4}=\frac{10}{3}mkF$$

$$C_{Um}=C_{1.2}+C_{3.4}=2+\frac{10}{3}=\frac{16}{3}mkF\rightarrow C_{Um}=\frac{16}{3}mkF$$

19. Har birining sig‘imi C bo‘lgan o‘n ikkita bir xil kondensator ACD EFB sakkiz yoq ko‘rinishida batareya qilib yig‘ilgan.Bu kondensatorlar batareyasining A va B nuqtalari orasidagi sig‘im qanday(1-rasm)?



1-rasm.



1,1-rasm.

C,D,E va F nuqtalarning potensiallari tengligi batareyaning simmetrikligidan ma’lum. Demak potensiallar farqi nolga teng,bu nuqtalar orasiga ulangan kondensatorlar zaryadlanmaydi . C,D,F,E nuqtalar orasidagi sig‘imini hisoblashda bu kondensatorlarni hisobga olmasa bo‘ladi. Unda batareya quyidagi ko‘rinishga keladi(1,1-rasm). 1,1-rasmdagi murakkab sxemani quyidagi sodda ko‘rinishga o‘tamiz(1,2-rasm)



1,2-rasm.



1,3-rasm.

1,2-rasmdagi C va C kondensatorlarni ketma-ket ulasak 1,3-rasm hosil bo‘ladi. 1,3-rasmdan umumiy sig‘imni topamiz.

$$C_{AB} = \frac{C}{2} + \frac{C}{2} + \frac{C}{2} + \frac{C}{2} = 2C; C_{AB} = 2C$$

20. Quyidagi sxemada tasvirlangan kondensatorlar batareyasi bir xil sig‘imli kondensatorlardan tuzilgan(1-rasm). Agar K_1 va K_2 kalitlar ulansa, batareyaning umumiy sig‘imi necha marta o‘zgaradi?($C_1 = C_2 = C_3 = C_4 = C_5 = C_6 = C$)



1-rasm.

Kalit ulangunga qadar batareyaning umumiy sig‘imi

$$\frac{1}{C_{123}} = \frac{1}{C_1} + \frac{1}{C_2} + \frac{1}{C_3} = \frac{1}{C} + \frac{1}{C} + \frac{1}{C} = \frac{3}{C}; C_{123} = \frac{C}{3}:$$

$$\frac{1}{C_{456}} = \frac{1}{C_4} + \frac{1}{C_5} + \frac{1}{C_6} = \frac{1}{C} + \frac{1}{C} + \frac{1}{C} = \frac{3}{C}; C_{456} = \frac{C}{3}:$$

$$C_{Um} = \frac{C}{3} + \frac{C}{3} = \frac{2C}{3}:$$

Kalitlar ulangunga qadar batareyaning umumiy sig‘imi $C_{Um} = \frac{2C}{3}$ ni tashkil qiladi.



2-rasm



2,1-rasm

Kalitlar ulangandan keyin hosil bo‘lgan sxemani ko‘ramiz(2-rasm). C_2 va C_5 kondensatorlarni ikki uchu sim bilan tutashtirib qo‘yilganligi uchun ular zaryadlanmaydi shuning uchun ularni sxemadan olib tashlaymiz(2,1-rasm).

2,1-rasmdagi C_1 bilan C_4 va C_3 bilan C_6 ni parallel, chiqqan natijalarni ketma-ket ulaymiz.

$$C_{14} = C_1 + C_4 = 2C; C_{36} = C_3 + C_6 = 2C; \frac{1}{C_{Um}} = \frac{1}{C_{14}} + \frac{1}{C_{36}} = \frac{1}{2C} + \frac{1}{2C}; \rightarrow C_{Um} = C$$

Javob: 1,5marta ortadi

21. Sxemaning umumiy sig‘imini toping?

Masalani yechish uchun a rasmdagi sxemani ab nuqtalar orasida kondensator yo‘qligi uchun bu nuqtalarni birlashtirsak б rasm hosil bo‘ladi. б rasmdagi C va C kondensatorlarni parallel ulasak в rasmdagi soddalashgan sxema hosil bo‘ladi va umumiy sig‘imni topamiz.



$$\frac{1}{C_{Um}} = \frac{1}{C} + \frac{1}{C} + \frac{1}{2C} + \frac{1}{2C} = \frac{6}{2C} = \frac{3}{C}; C_{Um} = \frac{C}{3}$$

22. Berilgan sxemada C=0,2nF manbaning kuchlanishi 200V bo‘lsa har bir kondensatorda to‘planadigan zaryadni aniqlang. (1-rasm)



1-rasm.



1,1-rasm.

1-rasmdagi murakkab sxemani 1,1-rasmdagi sodda ko‘rinishga o‘tamiz. 1,1rasmdan ko‘rinib turibdiki 2C va 3C sig‘imli kondensatorlar o‘zaro ketma-ketligi uchun ulardagi zaryadlar bir-xil $q_2 = q_3$ birinchi kondensator manbaga ketma-ket ulanganligi uchun $q_1 = C_{Um} \cdot U = q_2 + q_4$

$$C_{23}=\frac{2C\cdot 3C}{2C+3C}=\frac{6C}{5};C_{234}=C_{23}+C_4=\frac{6C}{5}+4C=\frac{26C}{5};$$
$$\frac{1}{C_{Um}}=\frac{1}{C_{234}}+\frac{1}{C_1}=\frac{5}{26C}+\frac{1}{C}=\frac{31}{26C};C_{Um}=\frac{26C}{31};$$
$$q_1=C_{Um}\cdot U=\frac{26}{31}\cdot 0{,}2\cdot 10^{-9}\cdot 200=\frac{1040}{31}\cdot 10^{-9}=34\cdot 10^{-9}kl=34nkl$$

Parallel ulanganda kuchlanishlar tengligidan foydalanamiz

$$U_{23}=U_4;U_{23}=\frac{q_2}{C_{23}};(q_2=q_3)U_4=\frac{q_3}{C_4}$$
$$\frac{q_2}{C_{23}}=\frac{q_4}{C_4};\frac{5q_2}{6C}=\frac{q_4}{4C};\frac{5}{6}q_2=\frac{q_4}{4};q_4=\frac{10}{3}q_2$$

$q_1=C_{Um}\cdot U=q_2+q_4$ ushbu formulaga asosan

$$q_1=C_{Um}\cdot U=q_2+q_4=q_2+\frac{10}{3}q_2=\frac{13}{3}q_2;q_2=\frac{3}{13}q_1$$
$$q_2=\frac{3}{13}\cdot 34\cdot 10^{-9}=7{,}8\cdot 10^{-9}kl;q_3=q_2=7{,}8\cdot 10^{-9}kl=7{,}8nkl$$
$$q_4=\frac{10}{3}q_2=\frac{10}{3}\cdot 7{,}8\cdot 10^{-9}=26\cdot 10^{-9}kl=26nkl$$

23. Rasmda tasvirlangan zanjirda to‘plangan elektr energiyasi topilsin (J). $C_1=C_3=40$ μF, $C_2=20$ μF.



$$\frac{1}{C_{23}}=\frac{1}{C_2}+\frac{1}{C_3}=\frac{1}{20}+\frac{1}{40}=\frac{3}{40};C_{23}=\frac{40}{3}\mu F$$
$$C_{um}=C_1+C_{23}=40+\frac{40}{3}=\frac{160}{3}\mu F=\frac{160}{3}\cdot 10^{-6}F$$
$$W=\frac{C_{um}\cdot U^2}{2}=\frac{\frac{160}{3}\cdot 10^{-6}\cdot 300^2}{2}=\frac{160\cdot 10^{-6}\cdot 90000}{6}=2{,}4J$$

OLIY O‘QUV YURTLARIGA KIRUVCHILAR UCHUN VARIANT VA AXBOROTNOMALAR TO‘PLAMIDAN NAMUNALAR

Kondensatorlarni ketma-ket ulash formulasi

$$\frac{1}{C_{Um}} = \frac{1}{C_1} + \frac{1}{C_2} + \frac{1}{C_3} + \ldots \frac{1}{C_n}$$

Kondensatorlarni parallel ulash formulasi

$$C_{Um} = C_1 + C_2 + C_3 + \ldots C_n$$

02/7-60. Sxemadagi kondensatorlar qoplamalaridagi zaryadlarning nisbati q_1/q_2 qanday?



Kondensatorlarni ketma-ket ulashda barcha kondensatordagi zaryadlar o‘zgarmas bo‘ladi ya’ni $q_{um} = q_1 = q_2 = q_3 = \ldots = q_n$ shuning uchun

$$q_1 = q_2; \quad \frac{q_1}{q_2} = 1$$

98/11-33. Rasmda tasvirlangan kondensatorlar batareyasining umumiy sig‘imini aniqlang.



1-ishimiz 2 ta kondensatorni ketma-ket ulaymiz, chiqqan natijani C ga parallel ulaymiz.

$$\frac{1}{C'} = \frac{1}{C} + \frac{1}{C} = \frac{2}{C}; C' = \frac{C}{2}; C_{um} = C' + C = \frac{C}{2} + C = \frac{3C}{2} = 1{,}5C.$$

03/6-26. Sig‘imlari C_1=3 μF, C_2=12 μF va C_3=30 μF bo‘lgan uchta kondensator rasmdagi sxema bo‘yicha ulangan. Umumiy sig‘im qanday (μF)?



$$C_{23} = C_2 + C_3 = 12 + 30 = 42mkF;$$

$$\frac{1}{C_{um}}=\frac{1}{C_{23}}+\frac{1}{C_1}=\frac{1}{42}+\frac{1}{3}=\frac{1}{42}+\frac{14}{42}=\frac{15}{42}\rightarrow C_{um}=\frac{42}{15}=2{,}8mkF$$

98/12-44. Kondensatorlar batareyasining umumiy sig‘imini toping. $C_1=C_2=C_3=C_4=C$.



$$\frac{1}{C_{23}}=\frac{1}{C_2}+\frac{1}{C_3}=\frac{1}{C}+\frac{1}{C}=\frac{2}{C}\rightarrow C_{23}=\frac{C}{2};C_{234}=C_{23}+C_4=\frac{C}{2}+C=\frac{3}{2}C$$

$$\frac{1}{C_{um}}=\frac{1}{C_1}+\frac{1}{C_{234}}=\frac{1}{C}+\frac{2}{3C}=\frac{5}{3C}\rightarrow C_{um}=\frac{3}{5}C=0{,}6C$$

98/7-37. Rasmda ko‘rsatilgan sxemadagi kondensatorlar batareyasining umumiy sig‘imini toping.



$$\frac{1}{C_{12}}=\frac{1}{C_1}+\frac{1}{C_2}=\frac{1}{2C}+\frac{1}{2C}=\frac{2}{2C}\rightarrow C_{12}=C;C_{123}=C_{12}+C_3=C+C=2C$$

$$\frac{1}{C_{um}}=\frac{1}{C_{123}}+\frac{1}{C_4}+\frac{1}{C_5}=\frac{1}{2C}+\frac{1}{C}+\frac{1}{C}=\frac{5}{2C}\rightarrow C_{um}=\frac{2}{5}C=0{,}4C$$

96/15-94. A va B nuqtalar orasidagi umumiy sig‘im qanday (μF)?

$$C_1=8\mu F;C_2=3\mu F;C_3=5\mu F$$



Sig‘imi $4\mu F$ bo‘lgan kondensator joylashgan tomonga tok o‘tmaydi.Shuning uchun $4\mu F$ kondensatorni inobatga olmaymiz.



$$C_{AB}=C_1+C_2+C_3;C_{AB}=8+3+5=16\mu F$$

96/3-25. A va B nuqtalar orasidagi umumiy sig im qanday (μF)?

$C_1=3\mu F;C_2=5\mu F;C_3=8\mu F;C_4=4\mu F$



$$C_{12}=C_1+C_2=3+5=8\mu F;\frac{1}{C_{123}}=\frac{1}{C_{12}}+\frac{1}{C_3}=\frac{1}{8}+\frac{1}{8}=\frac{2}{8}$$

$$C_{123} = \frac{8}{2} = 4\mu F; C_{AB} = C_{123} + C_4 = 4 + 4 = 8\mu F$$

98/4-54. Keltirilgan sxemadagi kondensatorlar batareyasining umumiy sig‘imini aniqlang.



$$\frac{1}{C_{12}} = \frac{1}{C_1} + \frac{1}{C_2} = \frac{1}{C} + \frac{1}{C} = \frac{2}{C} \rightarrow C_{12} = \frac{C}{2}; \frac{1}{C_{34}} = \frac{1}{C_3} + \frac{1}{C_4} = \frac{1}{C} + \frac{1}{C} = \frac{2}{C} \rightarrow$$
$$\rightarrow C_{34} = \frac{C}{2}; C_{AB} = C_{12} + C_{34} = \frac{C}{2} + \frac{C}{2} = C$$

96/3-90. Rasmda tasvirlangan kondensatorlar batareyasining umumiy sig‘imi qanday?



$$\frac{1}{C_{12}} = \frac{1}{C_1} + \frac{1}{C_2} = \frac{1}{C} + \frac{1}{2C} = \frac{3}{2C} \rightarrow C_{12} = \frac{2C}{3}; \frac{1}{C_{34}} = \frac{1}{C_3} + \frac{1}{C_4} = \frac{1}{2C} + \frac{1}{C} = \frac{3}{2C} \rightarrow$$
$$\rightarrow C_{34} = \frac{2C}{3}; C_{AB} = C_{12} + C_{34} = \frac{2C}{3} + \frac{2C}{3} = \frac{4C}{3}$$

97/9-30. Rasmda tasvirlangan kondensatorlar batareyasining umumiy sig‘imini aniqlang. $C_1 = C_2 = C_2 = 2C; C_3 = C$



O‘rtadagi kondensatorning oxiri ochiq bo‘lganligi uchun undan tok o‘tmaydi shuning uchun sxemadan bu kondensatorni olib tashlaymiz va quyidagi ko‘rinishni egallaydi



$$C_{12} = C_1 + C_2 = 2C + 2C = 4C; \frac{1}{C_{AB}} = \frac{1}{C_{12}} + \frac{1}{C_3} = \frac{1}{4C} + \frac{1}{C} = \frac{5}{4C} \rightarrow C_{AB} = \frac{4}{5}C$$

00/2-44. A va B nuqtalar orasidagi umumiy sig‘im qanday?



$$\frac{1}{C_{12}} = \frac{1}{C_1} + \frac{1}{C_2} = \frac{1}{C} + \frac{1}{C} = \frac{2}{C} \rightarrow C_{12} = \frac{1}{2}C; \frac{1}{C_{34}} = \frac{1}{C_3} + \frac{1}{C_4} = \frac{1}{C} + \frac{1}{C} = \frac{2}{C}$$

$$C_{34} = \frac{1}{2}C; \quad C_{AB} = \frac{1}{2}C + \frac{1}{2}C = C$$

00/1-26. Rasmda ko‘rsatilgan konden satorlar batareyasining umumiy sig‘imi qanday (μF)? $C_1=C_2=C_3=2\mu F$, $C_4=3\mu F$.



$$C_{123} = C_1 + C_2 + C_3 = 2 + 2 + 2 = 6\mu F; \frac{1}{C_{um}} = \frac{1}{C_{123}} + \frac{1}{C_4} = \frac{1}{6} + \frac{1}{3} = \frac{1+2}{6} = \frac{3}{6}$$

$$C_{um} = \frac{6}{3} = 2\mu F$$

96/10-37. Rasmda tasvirlangan elektr zanjirdagi kondensatorlarning umumiy sig‘imi qanday?



$$\frac{1}{C_{12}} = \frac{1}{C_1} + \frac{1}{C_2} = \frac{1}{C} + \frac{1}{C} = \frac{2}{C} \rightarrow C_{12} = \frac{C}{2}; C_{123} = C_{12} + C_3 = \frac{C}{2} + C = \frac{3}{2}C$$

$$\frac{1}{C_{45}} = \frac{1}{C_4} + \frac{1}{C_5} = \frac{1}{C} + \frac{1}{C} = \frac{2}{C} \rightarrow C_{45} = \frac{C}{2}; \frac{1}{C_{um}} = \frac{1}{C_{123}} + \frac{1}{C_{45}} = \frac{2}{3C} + \frac{2}{C} = \frac{8}{3C} \rightarrow$$

$$\rightarrow C_{um} = \frac{3}{8}C$$

98/6-41. Keltirilgan sxemadagi bir xil kondensatorlar batareyasining K kalit ulanmagandagi va ulangandagi sig‘imlari nisbatini toping.



a holat kalit ulanmagan bo‘lsa C_3 ni olib tashlaymiz

b holat kali

$$\frac{1}{C_{12}} = \frac{1}{C_1} + \frac{1}{C_2} = \frac{1}{C} + \frac{1}{C} = \frac{2}{C} \rightarrow C_{12} = \frac{C}{2}; \frac{1}{C_{45}} = \frac{1}{C_4} + \frac{1}{C_5} = \frac{1}{C} + \frac{1}{C} = \frac{2}{C} \rightarrow C_{45} = \frac{C}{2}$$

$$C_a = C_{12} + C_{45} = \frac{C}{2} + \frac{C}{2} = C$$

t ulangan bo‘lsa C_3 ni inobatga olamiz

$$\frac{1}{C_{12}} = \frac{1}{C_1} + \frac{1}{C_2} = \frac{1}{C} + \frac{1}{C} = \frac{2}{C}; C_{12} = \frac{C}{2}$$

$$\frac{1}{C_{45}} = \frac{1}{C_4} + \frac{1}{C_5} = \frac{1}{C} + \frac{1}{C} = \frac{2}{C}; C_{45} = \frac{C}{2}$$

$$C_b = C_{12} + C_3 + C_{45} = \frac{C}{2} + C + \frac{C}{2} = 2C$$

$$\frac{C_a}{C_b} = \frac{C}{2C} = \frac{1}{2}$$

99/7-23. Quyidagi sxemaning umumiy sig‘imi qanday?



$$\frac{1}{C_{12}}=\frac{1}{C_1}+\frac{1}{C_2}=\frac{1}{C}+\frac{1}{C}=\frac{2}{C}\rightarrow C_{12}=\frac{C}{2};\frac{1}{C_{56}}=\frac{1}{C_5}+\frac{1}{C_6}=\frac{1}{C}+\frac{1}{C}=\frac{2}{C}\rightarrow C_{56}=\frac{C}{2}$$

$$C_{um}=C_{12}+C_3+C_4+C_{56}=\frac{C}{2}+C+C+\frac{C}{2}\rightarrow C_{um}=3C$$

98/6-39. a sxemadan b sxemaga o‘tganda, bitta kondensatordagi zaryad qanday o‘zgaradi?



Elektr zaryadni topish uchun bizga umumiy sig‘im va kuchlanish yoki kuchlanganlik kerak bo‘ladi.$C=\frac{q}{U}=\frac{q}{\varepsilon}$ formuladan zaryadni topsak $q=C\cdot\varepsilon$ formulaga ega bo‘lamiz . a-holat va b-holat uchun umumiy sig‘imlarni topib zaryadlar nisbatini olamiz.

a-holat sig‘imlarni parallel ulaymiz $C_{um}=C_1+C_2=C+C=2C;q_a=2C\cdot\varepsilon$

b-holat ketma-ket ulashda zaryad 1 va 2- kondensatorda ham bir xil bo‘ladi

$$q_{ket-ket}=q_1=q_2=q_3=\ldots=q_nq_b=C\cdot\varepsilon$$

Har ikkala holatda chiqqan natijalarni nisbat olamiz $\frac{q_b}{q_a}=\frac{C\cdot\varepsilon}{2C\cdot\varepsilon}$ bir xil hadlarni qisqartirsak $\frac{q_b}{q_a}=\frac{1}{2}$natijaga ega bo‘lamiz ya’ni b-holatga o‘tganida zaryad 2 marta kamayar ekan

01/2-45. Kondensator zaryadini toping. (μC)

$\varepsilon=2{,}2V,r=1\Omega,R_1=R_2=10\Omega,C=5\mu F$



Kondensatorning zaryadini toppish uchun bizlarga kerakli kattaliklar yetarli emas ya’ni kuchlanish berilmagan.Kuchlanishni toppish uchun esa tok kuchi kerak bo‘ladi. Tok kuchini topishham, kuchlanishni topishdaham R_2 qarshilikni etiborga olmaymiz chunki kondensator R_1 qarshilik bilan ketma-ket ulangan.

$$I=\frac{\varepsilon}{R_1+r}=\frac{2{,}2}{10+1}=0{,}2A;U=I\cdot R_1=0{,}2\cdot 10=2V;$$

$$C=\frac{q}{U}\rightarrow q=C\cdot U=5\mu F\cdot 2V=10\mu C$$

KONDENSATORLARNI ARALASH ULASHGA DOIR MUSTAQIL YECHISH UCHUN MASALALAR

1. Sxemalarning umumiy sig‘imini toping?



Javob: C_{Um}= 0,4C

2. Sxemalarning umumiy sig‘imini toping?



Javob: $C_{Um} = \frac{4}{3}C$

3. Sxemalarning umumiy sig‘imini toping?



Javob: $C_{Um} = 2C$

4. Sxemalarning umumiy sig‘imini toping?



Javob: $C_{Um} = \frac{C}{3}$

5. Sxemalarning umumiy sig‘imini toping?



Javob: $C_{Um} = \frac{C}{3}$

6. A va B nuqta orasidagi umumiy sig‘imini toping?



Javob: $arasmC_{AB} = \frac{8}{7}C; bvavrasmR_{AB} = \frac{12}{7}C$

7. Zanjirdagi umumiy sig‘imni toping? ($C_1 = 2mkF; C_2 = 1mkF$)



Javob: $C_{Um} = 1{,}62mkF$

8. Zanjirdagi umumiy sig‘imni toping? (Har-bir kondensator sig‘imi C)



Javob: $C_{Um} = 2C$

9. Rasmda berilgan sxemaning A, D va A, E nuqtalar orasidagi umumiy sig‘imni toping? (barcha kondensatorlarning sig;imi C)



Javob: $C_{AD} = C_{AE} = 2C$

10. Sxemaning umumiy sig‘imini toping?

$$C_1 = C_2 = C_3 = C_4 = C_5 = C, C_6 = C_7 = C/2$$



Javob: $C_{Um} = \frac{8}{13}C$

11. Quyidagi sxemaning K-L oraliqdagi umumiy sig‘im qanday?



D) 2C. Javob: $C_{KL} = 2C$

12. Quyidagi sxemaning K-L oraliqdagi umumiy sig‘im qanday?



Javob: $C_{KL} = 4C$

13. Quyidagi sxemaning K-L oraliqdagi umumiy sig‘im qanday?



Javob: $C_{KL} = 4C/3$

ZANJIRNING BIR QISMI UCHUN VA TO‘LIQ ZANJIR UCHUN OM QONUNI, ELEKTR QARSHILIK, QARSHILIKLARNI KETMA-KET VA PARALLEL ULASH

Zanjirning bir qismi uchun Om qonuni:

O‘tkazgich bo‘ylab zaryadlarning harakatlanishi uchun o‘tkazgich uchlarida potensiallar farqining bo‘lishi, ya’ni o‘tkazgich ichida elektr maydon bo‘lishi kerak. O‘tkazgich uchlaridagi potensiallar farqi elektrostatikadan farqli ravishda kuchlanish deb ham yuritiladi va lotincha U harfi bilan belgilanadi.

O‘tkazgich uchlaridagi potensiallar ayirmasi yoki kuchlanish deb, bir birlik musbat zaryadni o‘tkazgich bo‘ylab ko‘chirishda o‘tkazgichdagi elektr maydoni kuchning bajargan ishiga miqdor jihatidan teng bo‘lgan fizik kattalikka aytiladi.

$$U = \frac{A}{q} \qquad (1)$$

O‘tkazgichdagi kuchlanish va tok kuchi orasidagi bog‘lanishni aniqlash bo‘yicha tajribalarni birinchi bo‘lib nemis fizigi 1826-yilda Om Georg Simono‘tkazgan.

Tajribagag ko‘ra o‘tkazgich qutblaridagi kuchlanishni asta-sekin oshirilganda tok kuchi ham kuchlanishga to‘g‘ri proporsional holda (I~U) oshib borgan (1- rasm). Shuning uchun koeffitsient kiritish orqali proporsionallikdan tenglikka o‘tildi.

$$I = GU \qquad (2)$$

Bu yerda: G- proporsionallik koeffitsienti bo‘lib, unga o‘tkazgichning o‘tkazuvchanligi deyiladi. O‘tkazuvchanlik qancha yaxshi bo‘lsa, ayni bir kuchlanishda o‘tkazgichdan shuncha katta tok o‘tadi.



1-rasm.

XBSda o‘tkazuvchanlikning birligi qilib simens (Sm) qa’bul qilingan. 1Sm o‘tkazuvchanlik deb, ushlarida 1V kuchlanish bo‘lganda 1A tok o‘tadigano‘tkazgichning o‘tkazuvchanligiga aytiladi. Odatda esa, amaliy hisoblashlarda o‘tkazuvchanlikka teskari bo‘lgan ifoda – o‘tkazgich qarshiligi ishlatiladi.

$$R = \frac{1}{G} \qquad (3)$$

Turli xil o‘tkazgichlar zanjirdan o‘tayotgan tokni turlicha cheklaydi yoki tokka turlicha qarshilik ko‘rsatadi. O‘tkazgich qarshiligi Om (Ω) larda o‘lchanadi. o‘tkazuvchanligi 1Sm bo‘lgano‘tkazgichning qarshiligi 1 Ω ga teng.

O‘tkazgichning zanjirdagi tokni cheklash xossasiga o‘tkazgich qarshiligi
deyiladi. O‘tkazgich qarshiligi R orqali tok kuchi I ning kuchlanish U ga bog‘liqligiquyidagicha bo‘ladi:

$$I = \frac{U}{R} \qquad (4)$$

Yuqoridagi bog‘lanishni birichi bo‘lib Georg Simon Om aniqlagani uchun bu bog‘lanish uning sharafiga zanjirning bir qismi uchun Om qonuni deb ataladi. Bu qonun quyidagicha ta’riflanadi:

Zanjirning bir qismidan o‘tayotgan tokning kuchi o‘tkazgich uchlaridagi kuchlanishga to‘g‘ri proporsional va o‘tkazgichning qarshiligiga teskariproporsionaldir. O‘tkazgich qarshiligi 1 Ω ni quyidagicha ta’riflash ham mumkin:

1 Ω qarshilik deb, uchlaridagi kuchlanish 1V bo‘lganda 1A tok o‘tkazadigan o‘tkazgichning qarshiligiga aytiladi.

O‘tkazgichning qarshiligi uning geometrik o‘lchamlariga va material turiga bog‘liq bo‘lgan kattalikdir. O‘tkazgichning ko‘ndalang kesim yuzasi qancha katta bo‘lsa, erkin elektronlar yugurishi uchun shuncha keng yo‘lakcha qilib qo‘yilganva bu elektronlar bir-biriga turtilmasdan shuncha bemalol yugurishadi deb fikr yuritsak, u holda qarshilik o‘tkazgichning ko‘ndalang kesim yuzasiga teskari proporsional degan xulosaga kelamiz. O‘tkazgich uzunligi qancha uzun bo‘lsa, erkin elektronlar bu uzun yo‘lda shuncha ko‘p kristal panjaralaridagi tugunlar bilan to‘qnashadi deb fikr

yuritsak, u holda qarshilik o‘tkazgichning uzunligiga to‘g‘ri proporsional degan xulosaga kelamiz.

O‘tkazgich qarshiligi o‘tkazgichning geometrik o‘lchamlariga va materila turiga quyidagicha bog‘langan:

$$R = \rho \frac{l}{RS} \qquad (5)$$

Bu yerda: ℓ – o‘tkazgich uzunligi; S – o‘tkazgichning ko‘ndalang kesim yuzasi; ρ –o‘tkazgichning solishtirma qarshiligi bo‘lib, har xil materiallar uchun uning son qiymati turlichadir. Solishtirma qarshilikning son qiymatlari har xil materiallar uchun ilovada berilgan. Solishtirma qarshilikning XBSdagi o‘lchov birligi $[\rho]=[\Omega \cdot m]$ bo‘lib, lekin ba’zida $\frac{[\Omega \cdot mm^2]}{m}$ o‘lchov birliklaridan ham foydalaniladi. Ular orasidagi bog‘lanish quyidagicha bo‘ladi:

$$1\frac{\Omega \cdot mm^2}{m} = 1 \cdot 10^{-6} \Omega \cdot m$$

Om Georg Simon *1787-yil 16-mayda Bavariya qirolligining Erlangen shahrida dunyoga kelgan. U tok kuchi, kuchlanish va qarshilik orasidagi bog‘lanishni ifodalovchi qonunni fizikaga nazariy jihatdan kirgizdi va o‘z tajribalarida isbotladi. Hozirda elektr qarshiligining nomi uning nomi bilan “Om” deb va o‘tkazuvchanlikning birligi esa uning familiyasi bilan “Simon” deb nomlanadi. Om qonuni dunyo olimlari tomonidan tan olinadi va London qirollik jamiyatining 1841-yil 30-noyabrda yig‘ilishida Kopli medali bilan taqdirlanadi. U hayoti davmida qilgan ishlari, maqolalarini 1827-yilda bitta kitob (Dier galvanische Kette, mathematisch bearbeitet) qilib chop etadi, so‘ngra bu kitob 1841-yilda mnglizchaga, 1847-yil fransuzchaga, 1860-yil esa italyanchaga tarjima qilinadi. U Furening issiqlik tarqalish hodisalari bilan ham shug‘ullangan. U 1854-yil 6-iyulda Germaniyaning Myunxen shahrida 76 yoshida olamdan o‘tadi.*

Qarshiliklarni ulashning uch turi bor: 1) ketma-ket ulash; 2) parallel ulash. 3) aralash ulash. Bunday ulashlarda tok kuchi, kuchlanish va ummiy qarshilik qanday hisoblanishiniqarab ko‘raylik.

O‘tkazgichlarni ketma-ket ulash:

Qarshiliklarni quyida rasmdagidek ulash ketma-ket ulash hisoblanadi Bunda 1- qarshilikning iziga 2-qarshilik, 2-qarshilikning iziga 3-qarshilik va

hokoza ulanib, 1-va n- qarshiliklar o‘zgarmas tok manbaining mos holda (+) va (-) qutblariga ulanadi (2-rasm).



2-rasm.

Qarshiliklarni ketma-ket ulaganda 1-qarshilikning boshi (kirish nuqtasi) manbaning (+) qutbiga, oxirgi n-qarshilikning oxiri (chiqish nuqtasi) esa manbaning (-) qutbiga ulangan bo‘ladi (2-rasm). Manbaning (+) qutbidan chiqgan zaryad (aslida esa manbaning (-) qutbidan elektron chiqadi) 1-, 2-, 3-, ...n- qarshiliklar orqali o‘tib manbaning (-) qutbiga (aslida esa manbaning (+) qutbiga elektronlar yetib keladi) to‘la-to‘kis yetib keladi. Hech qanday tarmoqlanish bo‘lmagani sababli har bir qarshilikda vaqt birligi ichida teng miqdordagi zaryad oqib o‘tadi. Demak, ulardagi tok kuchlari teng, ya’ni

$$I_{um} = I_1 = I_2 = I_3 = ... = I_n \qquad \textbf{(6)}$$

bo‘lar ekan. Bunga har bir istemolchi qarshilikdan keyin ampermetr ulagandaularning ko‘rsatishlari bir xil chiqishidan ham bilib olish mumkin.

Tashqaridan berilgan umumiy kuchlanish barcha qarshiliklarga taqsimlanib,singib ketgani sababli

$$U_{um} = U_1 + U_2 + U_3 + ... + U_n \qquad \textbf{(7)}$$

bo‘ladi. Bunga har bir istemolchi qarshilikga parallel qilib ulangan volrmetrlar ko‘rsatishlari yig‘indisi tok manbaining kuchlanishiga teng chiqishidan ham bilib olish mumkin.

Umumiy qarshilik esa

$$U_{um} = U_1 + U_2 + U_3 + ... + U_n \rightarrow I_{um} \cdot R_{um} = I_1 \cdot R_1 + I_2 \cdot R_2 + I_3 \cdot R_3 + ... + I_n \cdot R_n$$

Hosil bo‘lgan oxirgi tenglamadan toklarni qisqartirib yuborsak, umumiy qarshilik formulasi kelib chiqadi

$$R_{um} = R_1 + R_2 + R_3 + ... + R_n \qquad \textbf{(8)}$$

O‘tkazgichlarni parallel ulash:

Qarshiliklarni quyida rasmdagidek ulash parallel ulash hisoblanadi. Bunda hamma qarshiliklarning bir uchi manbaning (+) qutbiga, 2-uchlari esa manbaning (-) qutbiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ulanadi.



3-rasm.

Hamma qarshiliklarning tepadagi 1-uchlari to‘g‘ridan to‘g‘ri manbaning (+) qutbiga ulangan. Shuning uchun, bu uchlarning hammasida bir xil manbaning (+) qutbining potensialiga teng bo‘lgan φ_+ potensial hosil bo‘ladi. Hamma qarshiliklarning pastki 2-uchlari to‘g‘ridan to‘g‘ri manbaning (-) qutbiga ulangan. Shuning uchun bu uchlarning hammasida bir xil manbaning (-) qutbining potensialiga teng bo‘lgan φ_- potensial hosil bo‘ladi (3-rasm). Har bir qarshilikdagi potensiallar farqi o‘zaro teng bo‘ladi va bu potensiallar farqi manbaning kuchlanishiga teng, ya’ni $\varphi_+ - \varphi_- = U$ bo‘ladi. Demak, qarshiliklarning hammasidagi kuchlanishlar bir xil va manbaning kuchlanishiga teng, ya’ni

$$U_{um} = U_1 = U_2 = U_3 = ... = U_n \quad \textbf{(9)}$$

bo‘ladi. Buni har bir istemolchi qarshilikga parallel qilib ulangan voltmeter ko‘rsatishlari bir xil chiqishidan ham bilib olish mumkin. Manbaning (+) qutbidan chiqqan zaryad (aslida manbaning (-) qutbidan elektronlar chiqadi) barcha qarshiliklarga bo‘linib tarqalib ketadi va qarshiliklarning pastki uchlaridan chiqgach qo‘shilib manbaning (-) qutbiga yetib boradi (aslida esa elektronlar manbaning (+) qutbiga yetib boradi). Demak, tarmoqlanmagan qismdagi zaryad barcha qarshiliklarga taqsimlanib ketgandan keyin tok kuchi

$$I_{um} = I_1 + I_2 + I_3 + ... + I_n \quad \textbf{(10)}$$

bo‘ladi. Buni har bir istemolchi qarshilikdan keyin ulangan volrmetrlar ko‘rsatishlari yig‘indisi tarmoqlanmagan qismiga ulangan ampermetr ko‘rsatishiga teng chiqishidan ham bilib olish mumkin. Bu zaryadning saqlanish qonuni natijasidir.

Qarshiliklar sistemasining umumiy qarshiligi

$$I_{um} = I_1 + I_2 + I_3 + ... + I_n \rightarrow \frac{U_{um}}{R_{um}} = \frac{U_1}{R_1} + \frac{U_2}{R_2} + \frac{U_3}{R_3} + ... + \frac{U_n}{R_n}$$

Parallel ulanganda kuchlanishlar tengligidan kuchlanishlarni qisqartirib yuborsak

$$\frac{1}{R_{um}} = \frac{1}{R_1} + \frac{1}{R_2} + \frac{1}{R_3} + ... + \frac{1}{R_n} \quad \textbf{(11)}$$

bo‘ladi.

To‘liq zanjir uchun Om qonuni.



4-rasm.

Tok manbaiga biror R rezistor ulab yopiq zanjir hosilqilaylik (4-rasm). Tok manbasining EYuK ε va ichki qarshiligi r bo‘lsin. Generatorlarda ichki qarshilik r deganda cho‘lg‘amlarning qarshiligi, galvanik elementlarda esa elektrolit eritmasi va elektrodlar qarshiligi tushuniladi. Yopiq zanjirda tarmoqlanish bo‘lmagani uchun berk zanjirda tashqi R va ichki r qarshiliklardan o‘tuvchi bitta I tok kuchi mavjud bo‘ladi.

Om qonunini yopiq zanjir uchun tatbiq qilganda yopiq zanjirdagi tok kuchi I ni EYuK ε va yopiq zanjirning to‘la qarshiligi (R+r) bilan bog‘laydi. Bunda zanjirning tashqi va ichki qismlaridagi kuchlanish tushuvlari yig‘indisi manbaning EYuKni beradi.

$$\varepsilon = U_R + U_r = IR + Ir$$

Yuqoridagi formuladan to‘liq zanjirning tashqi va ichki qismidagi kuchlanish

tushuvlarini yozishimiz mumkin.

$$U_R = IR, \quad U_r = Ir$$

Yopiq zanjirdagi tok kuchini aniqlashimiz mumkin.

$$I = \frac{\varepsilon}{R + r} \qquad \textbf{(12)}$$

Yuqoridagi formula yopiq zanjir uchun Om qonunining matematik ifodasi bo‘lib, uni quyidagicha ta’riflash mumkin:

Yopiq zanjirdan o‘tayotgan tokning kuchi manbaning EYuKiga to‘g‘ri proporsional va zanjirning to‘la qarshiligiga teskari proporsionaldir.

$$\frac{1}{R_{AE}} = \frac{1}{R_{ABDE}} + \frac{1}{R_{AGFE}} = \frac{1}{{}^{7}/_{3}\,R} + \frac{1}{{}^{7}/_{3}\,R} = \frac{3}{7R} + \frac{3}{7R} = \frac{6}{7R} \rightarrow R_{AE} = \frac{7}{6}R$$

54. Sxemaning AC nuqtalari orasidagi umumiy qarshiliklarni toping? (Har bir nuqtalar orasidagi qarshilik R ga teng)



1-rasm



1,1-rasm

1-rasmdagi GF va FE nuqtalar orasidagi qarshiliklarni soddalashtirsak 1,1-rasm ko‘rinishidagi sxema hosil bo‘ladi.

$$\frac{1}{R_{GF}} = \frac{1}{2R} + \frac{1}{R} \rightarrow R_{GF} = \frac{2}{3}R; \frac{1}{R_{FE}} = \frac{1}{2R} + \frac{1}{R} \rightarrow R_{FE} = \frac{2}{3}R.$$

Hosil bo‘lgan 1,1-rasmning GD nuqtalar orasidagi qarshiliklarni ketma-ket ulasak sxema 1,2-rasmdagi ko‘rinishga keladi. $R_{GD} = {}^{2}/_{3}\,R + {}^{2}/_{3}\,R + {}^{2}/_{3}\,R = 2R$



1,2-rasm



1,3-rasm (1,2-rasmning sodda ko‘rinishi)





1,3-rasmni yuqoridagi sodda ko‘rinishlarga o‘tib soddalashtiramiz.



$$\frac{1}{R_{AC}} = \frac{1}{2R} + \frac{1}{3R} = \frac{5}{6R}; R_{AC} = \frac{6}{5}R$$

55. Sxemaning AB nuqtalari orasidagi umumiy qarshiliklarni toping? (Har bir nuqtalar orasidagi qarshilik R ga teng)



1-rasm



1,1-rasm

1-rasmdagi GF, FE,ED va DB nuqtalar orasidagi qarshiliklarni soddalashtirsak 1,1-rasm ko‘rinishidagi sxema hosil bo‘ladi.

$$\frac{1}{R_{GF}} = \frac{1}{2R} + \frac{1}{R} \to R_{GF} = \frac{2}{3}R; \frac{1}{R_{FE}} = \frac{1}{2R} + \frac{1}{R} \to R_{FE} = \frac{2}{3}R;$$
$$\frac{1}{R_{ED}} = \frac{1}{2R} + \frac{1}{R} \to R_{ED} = \frac{2}{3}R; \frac{1}{R_{DB}} = \frac{1}{2R} + \frac{1}{R} \to R_{DB} = \frac{2}{3}R.$$

Hosil bo‘lgan 1,1-rasmning GB nuqtalar orasidagi qarshiliklarni ketma-ket ulasak sxema 1,2-rasmdagi ko‘rinishga keladi

$$R_{GD} = {}^{2}/_{3}\,R + {}^{2}/_{3}\,R + {}^{2}/_{3}\,R + {}^{2}/_{3}\,R = {}^{8}/_{3}\,R.$$







1,2-rasm 1,3-rasm 1,4-rasm

1,2-rasmni soddlashtirib, 1,3-1,4-rasmlarga aylantirib umumiy qarshilikni topamiz.

$$\frac{1}{R_{AB}} = \frac{1}{R} + \frac{1}{R + \frac{8}{11}R} = \frac{30}{19R}; R_{AB} = \frac{19}{30}R$$

56. Sxemaning AD nuqtalari orasidagi umumiy qarshiliklarni toping? (Har bir nuqtalar orasidagi qarshilik R ga teng)



Sxemaning umumiy qarshiligini toppish uchun rezistorlarda toklarni harakat yo‘nalishini yozib chiqamiz.



Krixgovning 1-qoidasidan quyidagi natijaga ega bo‘lamiz

$$I = I_1 + I_2; (a)$$
$$I_4 = I_1 + I_3; (b)$$
$$I_2 = I_3 + I_5; (c)$$
$$I = I_4 + I_5; (d)$$

Elektr zaryadi A nuqtadan D nuqtaga 4-xil yo‘l orqali harakatlanadi. Ya’ni (abc,adc,adbc va abdc).Zaryadning umumiy bajargan ishi har-bir rezistordagi ishlar yig‘indisiga teng

abc kontur uchun

$$A = A_1 + A_4; qU = qU_1 + qU_4; U = U_1 + U_4;$$

$$I \cdot R_{AB} = I_1 \cdot R + I_4 \cdot \frac{2}{3}R \qquad (1)$$

adc kontur uchun

$$A = A_2 + A_5; qU = qU_2 + qU_5; U = U_2 + U_5;$$

$$I \cdot R_{AB} = I_2 \cdot R + I_5 \cdot 2R \qquad (2)$$

adbc kontur uchun

$$A = A_2 + A_3 + A_4; qU = qU_2 + qU_3 + qU_4; U = U_2 + U_3 + U_4;$$

$$I \cdot R_{AB} = I_2 \cdot R + I_3 \cdot R + I_4 \cdot \frac{2}{3}R \qquad (3)$$

abdc kontur uchun

$$A = A_1 + A_3 + A_5; qU = qU_1 + qU_3 + qU_5; U = U_1 + U_3 + U_5;$$

$$I \cdot R_{AB} = I_1 \cdot R - I_3 \cdot R + I_2 \cdot 2R \qquad (4)$$

1 va 2, 1 va 4 natijalarni tenglashtiramiz

$$I_1 + \frac{2}{3}I_4 = I_2 + 2I_5\ ;\ I_3 + \frac{2}{3}I_4 = 2I_5 \qquad (4.1)$$

$$I_1 + \frac{2}{3}I_4 = I_1 - I_3 + 2I_5;\ \ I_3 + \frac{2}{3}I_4 = 2I_5 \qquad (4.2)$$

4.1 va 4.2 tenglamalarni sistema qilamiz

$$-\begin{cases} I_1 + \frac{2}{3}I_4 = I_2 + 2I_5 \\ I_3 + \frac{2}{3}I_4 = 2I_5 \end{cases} \rightarrow I_1 - I_3 = I_2; I_1 = I_2 + I_3$$

(b) natijaga etib qo‘yamiz

$$I_4 = I_1 + I_3 \qquad (b)$$

$$I_4 = I_2 + I_3 + I_3 = I_2 + 2I_3 \leftarrow I_2 = I_3 + I_5$$

$$I_4 = I_3 + I_5 + 2I_3 = 3I_3 + I_5 \qquad (4{,}3)$$

4.2 va 4.3 natijalarni sistema qilib oddalashtirsak quyidagi natijaga ega bo‘lamiz

$$\begin{cases} I_3 + \frac{2}{3}I_4 = 2I_5 \\ I_4 = 3I_3 + I_5; \end{cases} - \begin{cases} I_3 + \frac{2}{3}I_4 = 2I_5 \\ 2I_4 - 6I_3 = 2I_5; \end{cases} ; 7I_3 - \frac{4}{3}I_4 = 0;$$

$$I_3 = \frac{4}{21}I_4; I_4 = \frac{21}{4}I_3 \qquad (4{,}4)$$

$$I_3 + \frac{2}{3}I_4 = 2I_5 \rightarrow \frac{4}{21}I_4 + \frac{2}{3}I_4 = 2I_5; I_5 = \frac{3}{7}I_4;$$

$$I_2 = I_3 + I_5 \rightarrow I_2 = \frac{4}{21}I_4 + \frac{3}{7}I_4; I_2 = \frac{13}{21}I_4; I_4 = I_1 + I_3 \rightarrow$$

$$I_1 = I_4 - I_3 = I_4 - \frac{4}{21}I_4 = \frac{17}{21}I_4$$

$$I_1 = \frac{17}{21}I_4; I = I_4 + I_5 \to I = I_4 + \frac{3}{7}I_4 = \frac{10}{7}I_4$$

Bu natijalarni 1-formulaga etib qo‘ysak

$$I \cdot R_{AD} = I_1 \cdot R + I_4 \cdot \frac{2}{3}R \to \frac{10}{7}I_4 \cdot R_{AD} = \frac{17}{21}I_4 \cdot R + I_4 \cdot \frac{2}{3}R$$

$$\frac{10}{7}R_{AD} = \frac{17}{21}R + \frac{14}{21}R = \frac{31}{21}R \to R_{AD} = \frac{31}{30}R;$$

57. Zanjirning umumiy qarshiligini toping?

$$(R_1 = \frac{1}{2}\Omega; R_2 = \frac{3}{2}\Omega; R_3 = R_4 = R_6 = 1\Omega; R_5 = \frac{2}{3}\Omega.)$$



R_3 va R_6 qarshiliklar parallel ulangan, so‘ngra bu qarshiliklarga ketma-ket qilib R_2 qarshilik ulangan,bu uchta qarshilikka parallel qilib R_5 qarshilik ulangan,yana R_1 qarshilik ketma-ket ulangan va nihoyat,butun zanjirga parallel qilib R_4 ulanganligi uchun chizmani quyidagicha o‘zgartiramiz.



$$R_{36} = \frac{R_3 \cdot R_6}{R_3 + R_6} = \frac{1}{2}\Omega; R_{362} = R_{36} + R_2 = 2\Omega; R_{3625} = \frac{R_{362} \cdot R_5}{R_{362} + R_5} = \frac{1}{2}\Omega$$

$$R_{36251} = R_{3625} + R_1 = 1\Omega; R_{Umum} = R_{362514} = \frac{R_{36251} \cdot R_4}{R_{36251} + R_4} = \frac{1}{2}\Omega$$

58. Radiusi a bo‘lgan uchta bir xil mis halqa o‘zaro 1-rasmda ko‘rsatilgandek ulangan. Agar tashqi potensiallar farqi A va B nuqtalarga keltirilgan bo‘lsa, shunday tarzda olingan figura qarshiligini aniqlang. Simning diametri d.Misning solishtirma qarshiligi ρ,$\cup CD = \cup DE = \cup EF = \cup FC$.



1-rasm



1,1-rasm

1-rasmning CDFE nuqtalaridagi potensiallar teng, potensiallar farqi esa nol bo‘lgani uchun ularni olib tashlasak 1,1-rasmdagi ko‘rinishni egallaydi.



1,2-rasmdagi

1,1-rasmni murakkab ko‘rinishdan oddiy 1,2-rasmdagi ko‘rinishda ifodalab ularni umumiy qarshiligini topamiz. Sxema to‘rtta parallel ulangan yarim halqalar (ACB, ADB,AEB va AFB) dan iborat. Bitta yarim halqaning qarshiligi

$$R_0 = \rho\frac{l}{S} = \rho\frac{\pi\cdot a}{\frac{\pi\cdot d^2}{4}} = \frac{4\rho\cdot a}{d^2}$$

Ravshanki, umumiy qarshilik $\frac{1}{R_{Um}} = \frac{1}{R_0}+\frac{1}{R_0}+\frac{1}{R_0}+\frac{1}{R_0} \rightarrow R_{Um} = \frac{R_0}{4} = \frac{\rho\cdot a}{d^2}$

59. Quyidagi simli ramkaning umumiy qarshiligini toping(1-rasm).(Simning solishtirma qarshiligi ρ yuzasi S) $AC = AD = l; DC = \sqrt{2}l$



1-rasm



1,1-rasm

Masala tushinarli bo‘lishi uchun har-bir nuqtalar orasidagi qarshiliklarni topamiz. $R_{AC} = R_{AD} = \rho\frac{l}{S} = R_0; R_{DC} = \rho\frac{\sqrt{2}l}{S} = \sqrt{2}R_0$

Ushbu natijalardan sxemamiz quyidagi sxemaga aylanadi(1,1-rasm).

Sxemaning D, C va F,E nuqtalarida potensial bir xil DC, FE nuqtalar orasida potensiallar farqi 0 ga teng bo‘lganligi uchun DC, FE nuqta orqali tok o‘tmaydi DC, FE nuqta orasidagi qarshilikni olib tashlasak ham bo‘ladi va sxemamiz quyidagi ko‘rinishga keladi.



1,2-rasm

1,2-rasmdagi sxemani murakkab ko‘rinishdan 1,3-rasmdagi sodda ko‘rinishga o‘tamiz.



1,3-rasm



1,4-rasm

1,3-rasmdagi ketma-ket turgan 2 ta R_0 qarshilikni ketma-ket ulasak 1,4-rasm hosil bo‘ladi.1,4-rasmdagi qarshiliklarni parallel ulasak 1,5-rasm hosil bo‘ladi.



1,5-rasm



1,6-rasm

1,5-rasmdagi qarshiliklarni ketme-ket ulab(1,6-rasm) hosil bo‘lgan natijani parallel ulasak umumiy qarshilik kelib chiqadi.

$$\frac{1}{R_{AB}} = \frac{1}{2\sqrt{2}R_0} + \frac{1}{2\sqrt{2}R_0} = \frac{2}{2\sqrt{2}R_0} \rightarrow R_{AB} = \sqrt{2}R_0$$

60. AB nuqta orasidagi umumiy qarshilikni toping ?



Sxemaning umumiy qarshiligini toppish uchun rezistorlarda toklarni harakat yo‘nalishini yozib chiqamiz.



Krixgovning 1-qoidasidan quyidagi natijaga ega bo‘lamiz

$$\begin{cases} I = I_1 + I_2 \\ I_1 = I_3 + I_4 \\ I_5 = I_2 + I_3 \\ I = I_4 + I_5 \end{cases}$$

Elektr zaryadi q A nuqtadan B nuqtaga 4-xil yo‘l orqali harakatlanadi. Ya’ni (abc,adc,abdc va adbc). Zaryadning umumiy bajargan ishi har-bir rezistordagi ishlar yig‘indisiga teng abc kontur uchun

$$A = A_1 + A_4; qU = qU_1 + qU_4; U = U_1 + U_4;$$
$$I \cdot R_{AB} = I_1 \cdot R + I_4 \cdot 3R \qquad (1)$$

adc kontur uchun $A = A_2 + A_5; qU = qU_2 + qU_5; U = U_2 + U_5;$
$I \cdot R_{AB} = I_2 \cdot 3R + I_5 \cdot R \qquad (2)$

abdc kontur uchun $A = A_1 + A_3 + A_5; qU = qU_1 + qU_3 + qU_5; U = U_1 + U_3 + U_5; I \cdot R_{AB} = I_1 \cdot R + I_3 \cdot 2R + I_5 \cdot R \qquad (3)$

adbc kontur uchun $A = A_2 + A_3 + A_4; qU = qU_2 + qU_3 + qU_4; U = U_2 + U_3 + U_4; I \cdot R_{AB} = I_2 \cdot 3R - I_3 \cdot 2R + I_4 \cdot 3R \qquad (4)$

1 va 2 formulalarni tenglashtiramiz $I_1 \cdot R + I_4 \cdot 3R = I_2 \cdot 3R + I_5 \cdot R;$
$I_1 + 3I_4 = 3I_2 + I_5 \qquad (4.1)$

3 va 4 formulalarni tenglashtiramiz $I_1 + 4I_3 + I_5 = 3I_2 + 3I_4 \quad (4.2)$

4.1 va 4.2 formulalarni sistema qilib soddalashtiramiz.

$$\begin{cases} I_1 + 3I_4 = 3I_2 + I_5 \\ I_1 + 4I_3 + I_5 = 3I_2 + 3I_4 \end{cases}$$

I_1 o‘rniga (b) formulani keltirib qo‘yamiz

$$\begin{cases} I_3 + I_4 + 3I_4 = 3I_2 + I_5 \\ I_3 + I_4 + 4I_3 + I_5 = 3I_2 + 3I_4 \end{cases}$$

Sistemani ayiramiz

$$-4I_3 + 3I_4 - I_5 = I_5 - 3I_4;\ 6I_4 = 2I_5 + 4I_3;\ 3I_4 = I_5 + 2I_3$$

Oxirgi natijaga (c) natijani etib qo‘yamiz

$$3I_4 = I_2 + I_3 + 2I_3;\ 3I_4 = I_2 + 3I_3 \qquad (6)$$

1 va 4 formulalarni tenglashtiramiz

$$I_1 + 3I_4 = 3I_2 - 2I_3 + 3I_4;\ I_1 = 3I_2 - 2I_3$$

Oxirgi natijaga (b) natijani etib qo‘yamiz

$$I_3 + I_4 = 3I_2 - 2I_3;\ 3I_3 + I_4 = 3I_2 \qquad (6.5)$$

6 va 6.5 natijalarni sistema qilib soddalashtiramiz

$$\begin{cases} 3I_3 + I_4 = 3I_2 \\ 3I_4 - 3I_3 = I_2 \end{cases}$$

Sistemani qo‘shmiz $4I_4 = 4I_2; I_4 = I_2$ b va c natijalarni sistema qilib oxirgi natijani etib qo‘ysak

$$-\begin{cases} I_1 = I_3 + I_4 \\ I_5 = I_2 + I_3 \end{cases}$$

$$I_1 - I_5 = I_4 - I_3$$

$$(I_4 = I_2) \text{ dan } I_1 = I_5$$

6-formulaga ushbu natijalarni etib qo‘ysak $3I_4 = I_2 + 3I_3;\ 3I_4 - I_2 = 3I_3;$

$$(I_4 = I_2)\ ;\ 2I_4 = 3I_3;\ I_3 = \frac{2}{3}I_4$$

Ushbu natijalarni 4.1 formulaga etib qo‘yamiz

$$I_1 + 4I_3 + I_5 = 3I_2 + 3I_4;\ (I_1 = I_5); (I_2 = I_4) \rightarrow$$

$$2I_1 + 4I_3 = 6I_4; (I_3 = \frac{2}{3}I_4);\ 2I_1 + 4 \cdot \frac{2}{3}I_4 = 6I_4;\ I_1 = \frac{5}{3}I_4; I_4 = \frac{3}{5}I_1$$

a formulaga oxirgi natijani etib qo‘yamiz

$$I = I_1 + I_2 \qquad (a)$$

$$I = I_1 + I_2; (I_2 = I_4) \rightarrow I = I_1 + I_4 \Rightarrow I = I_1 + \frac{3}{5}I_1 = \frac{8}{5}I_1 \Rightarrow I_1 = \frac{5}{8}I;$$

$$I_4 = \frac{3}{5}I_1 \Rightarrow I_4 = \frac{3}{5} \cdot \frac{5}{8}I = \frac{3}{8}I$$

1-formula

$$I \cdot R_{AB} = I_1 \cdot R + I_4 \cdot 3R; I \cdot R_{AB} = \frac{5}{8}I \cdot R + \frac{3}{8}I \cdot 3R$$

$$R_{AB} = \frac{5}{8} \cdot R + \frac{9}{8} \cdot R; R_{AB} = \frac{14}{8}R = \frac{7}{4}R \rightarrow R_{AB} = \frac{7}{4}R$$

MURAKKAB TUZILISHGA EGA BO‘LGAN ZANJIR ELEMENTLARIDAGI TOK KUCHI, KUCHLANISH VA UMUMIY QARSHILIKNI HISOBLASH

Quyidagi masalani umumiy holda yechamiz



Berilgan: $R_1, R_2, R_3, R_4, R_5, I$

$$I_1, I_2, I_3, I_4, I_5, R_{AB} - ?$$

Kirxkofning 1-2 qonunlaridan foydalanib, quyidagi tenglamalar sistemasini hosil qilamiz.

$$\begin{cases} I = I_1 + I_2 \\ I_1 = I_3 + I_4 \\ I_5 = I_2 + I_3 \\ I_1R_1 + I_3R_3 = I_2R_2 \\ I_5R_5 + I_3R_3 = I_4R_4 \end{cases} \quad (1)$$

Bu sistemani yechish uchun quyidagilarni topib o‘rniga qo‘yamiz.

$$\begin{cases} I_2 = I - I_1 \\ I_5 = I - I_1 + I_3 \\ I_4 = I_1 - I_3 \end{cases} \qquad \begin{cases} I_1(R_1 + R_2) + I_3R_3 = IR_2 \\ IR_5 - I_1R_5 + I_3(R_3 + R_5) = I_4R_4 \end{cases}$$

$$\begin{cases} I_1(R_1 + R_2) + I_3R_3 = IR_2 \\ IR_5 - I_1R_5 + I_3(R_3 + R_5) = I_1R_4 - I_3R_4 \end{cases}$$

Olingan natijalarni ixchamlab quyidagi sistemani hosil qilamiz. Bu sistemani yechish uchun 2- formuladan foydalanib 3-tenglamani hosil qilamiz.

$$\begin{cases} I_1(R_1 + R_2) + I_3R_3 = IR_2 \\ I_1(R_4 + R_5) - I_3(R_3 + R_4 + R_5) = IR_5 \end{cases} \qquad I_3 = \frac{IR_2 - I_1(R_1 + R_2)}{R_3}$$

(2)

$$I_1(R_4+R_5)-\frac{IR_2-I_1(R_1+R_2)}{R_3}\cdot(R_3+R_4+R_5)=IR_5$$

(3)

Tenglamani ishlab chiqamiz

$$I_1(R_4+R_5)-\frac{IR_2}{R_3}\cdot(R_3+R_4+R_5)+I_1\frac{(R_1+R_2)}{R_3}(R_3+R_\$+R_5)=IR_5$$

$$I_1(R_4+R_5)+I_1\frac{R_1+R_2}{R_3}(R_3+R_4+R_5)=IR_5+I\frac{R_2}{R_3}(R_3+R_4+$$

$$R_5)I_1\frac{(R_4+R_5)R_3+(R_1+R_2)(R_3+R_4+R_5)}{R_3}=I\frac{R_3R_5+R_2(R_3+R_4+R_5)}{R_3}$$

3-tenglamadan quyidagi natijani olamiz

$$I_1=\frac{R_3R_5+R_2(R_3+R_4+R_5)}{(R_4+R_5)R_3+(R_1+R_2)(R_3+R_4+R_5)}I \qquad (4) \qquad U_1=I_1\cdot R_1$$

1-formuladan 1-tenglamani olib, 4-tenglamaga qo‘yib natijani olamiz

$$I_2=I-I_1=I\left(1-\frac{R_3R_5+R_2(R_3+R_4+R_5)}{(R_4=R_5)R_3+(R_1+R_2)(R_3+R_4+R_5)}\right)$$

$$I_2=I\frac{(R_4+R_5)R_3+(R_1+R_2)(R_3+R_4+R_5)-R_3R_5-R_2(R_3+R_4+R_5)}{(R_5=R_5)R_3=(R_1+R_2)(R_3+R_4+R_5)}$$

$$I_2=I\frac{R_3R_4+R_3R_5+R_1(R_3+R_4+R_5)-R_3R_5}{(R_4+R_5)R_3+(R_1+R_2)(R_3+R_4+R_5)}$$

$$I_2=\frac{R_3R_4+R_1(R_3+R_4+R_5)}{(R_4+R_5)R_3+(R_1+R_2)(R_3+R_4+R_5)}I \qquad (5) \qquad U_2=I_2\cdot R_2$$

4-formulani 2-formula yordamida hisoblaymiz quyidagi 6-formula hosil bo‘ladi.

$$I_3=\frac{IR_2-I_1(R_1+R_2)}{R_3}=\frac{R_2}{I_3}I-\frac{R_1+R_2}{R_3}I_1$$

$$I_3=\frac{R_2}{R_3}\cdot I-\frac{R_1+R_2}{R_3}\cdot\frac{R_3R_5+R_2(R_3+R_4+R_5)}{(R_4+R_5)R_3+(R_1+R_2)\cdot(R_3+R_4+R_5)}\cdot I$$

$$I_3=\left(\frac{R_2}{R_3}-\frac{R_1+R_2}{R_3}\cdot\frac{R_3R_5+R_2(R_3+R_4+R_5)}{(R_4+R_5)R_3+(R_1+R_2)\cdot(R_3+R_4+R_5)}\right)\cdot I$$

$$I_3=\left(\frac{R_3(R_2R_4-R_1R_5)}{(R_4+R_5)R_3+(R_1+R_2)\cdot(R_3+R_4+R_5)}\right)\cdot\frac{I}{R_3} \qquad (6) \qquad U_3=I_3\cdot R_3$$

4va 6 tenglamalar yordamida 7-formulani keltirib chiqaramiz

$$I_4=I_1-I_3=\frac{R_3R_5+R_2(R_3+R_4+R_5)}{(R_4+R_5)R_3+(R_1+R_2)(R_3+R_4+R_5)}I-I_3$$

$$I_4=\frac{R_3R_5+R_2(R_3+R_4+R_5)}{(R_4+R_5)R_3+(R_1+R_2)(R_3+R_4+R_5)}I-\left(\frac{R_3(R_2R_4-R_1R_5)}{(R_4+R_5)R_3+(R_1+R_2)\cdot(R_3+R_4+R_5)}\right)\cdot\frac{I}{R_3}$$

$$I_4=\frac{R_3^2(R_2+R_5)+R_3R_5(R_1+R_2)}{(R_4+R_5)R_3+(R_1+R_2)(R_3+R_4+R_5)}\cdot\frac{I}{R_3} \qquad (7) \quad U_4=I_4\cdot R_4$$

5-6 formulalardan foydalanib 8-natijani hosil qilamiz

$$I_5 = I_2 + I_3$$

$$I_5 = \frac{R_3R_4 + R_1(R_3 + R_4 + R_5)}{(R_4 + R_5)R_3 + (R_1 + R_2)(R_3 + R_4 + R_5)} I + \left(\frac{R_3(R_2R_4 - R_1R_5)}{(R_4 + R_5)R_3 + (R_1 + R_2)\cdot(R_3 + R_4 + R_5)} \right) \cdot \frac{I}{R_3}$$

$$I_5 = \frac{R_3^2(R_4 + R_1) + R_3R_4(R_1 + R_2)}{(R_4 + R_5)R_3 + (R_1 + R_2)(R_3 + R_4 + R_5)} \cdot \frac{I}{R_3} \qquad (8) \quad U_5 = I_5 \cdot R_5$$

1-sistemani ishlab kerak bo‘lgan 4-5-6-7-8 tenglama natijalarini hosil qildik. Murakkab ko‘rinishdagi zanjir elementlaridagi tok kuchi va kuchlanishlarni topdik.Endi zanjirning umumiy qarshiligini hisoblaymiz.

Elektr zaryadi q A nuqtadan B nuqtaga 4-xil yo‘l orqali harakatlanadi. Ya’ni (abc,adc,abdc va adbc).Zaryadning umumiy bajargan ishi har-bir rezistordagi ishlar yig‘indisiga teng

abc kontur uchun

$$A = A_1 + A_4; \Rightarrow qU = qU_1 + qU_4; \Rightarrow U = U_1 + U_4$$

$$I \cdot R_{AB} = I_1 \cdot R_1 + I_4 \cdot R_4 \qquad (1.1)$$

adc kontur uchun

$$A = A_2 + A_5; \Rightarrow qU = qU_2 + qU_5; \Rightarrow U = U_2 + U_5$$

$$I \cdot R_{AB} = I_2 \cdot R_2 + I_5 \cdot R_5 \qquad (1.2)$$

abdc kontur uchun

$$A = A_1 + A_3 + A_5; \Rightarrow qU = qU_1 + qU_3 + qU_5; \Rightarrow U = U_1 + U_3 + U_5$$

$$I \cdot R_{AB} = I_1 \cdot R_1 + I_3 \cdot R_3 + I_5 \cdot R_5 \qquad (1.3)$$

adbc kontur uchun

$$A = A_2 + A_3 + A_4; \Rightarrow qU = qU_2 + qU_3 + qU_4; \Rightarrow U = U_2 + U_3 + U_4$$

$$I \cdot R_{AB} = I_2 \cdot R_2 - I_3 \cdot R_3 + I_4 \cdot R_4 \ (1.4)$$

Ushbu chiqarilgan natijalarning ixtiyoriy biriga yuqorida topilgan tok kuchilarini etib qo‘ysak umumiy qarshilik kelib chiqadi.

Masalan (1.1) formuladagi I_1 va I_4 tok kuchilar o‘rniga (4) va (7) natijalarni keltirib qo‘yamiz

$$I \cdot R_{AB} = I_1 \cdot R_1 + I_4 \cdot R_4$$

$$I \cdot R_{AB} = \frac{R_3R_5 + R_2(R_3 + R_4 + R_5)}{(R_4 + R_5)R_3 + (R_1 + R_2)(R_3 + R_4 + R_5)} I \cdot R_1 +$$

$$+ \frac{R_3^2(R_2 + R_5) + R_3R_5(R_1 + R_2)}{(R_4 + R_5)R_3 + (R_1 + R_2)(R_3 + R_4 + R_5)} \cdot \frac{I}{R_3} \cdot R_4$$

Tenglikni ikkala qismidan I larni qisqartiramiz

$$R_{AB} = \frac{R_3R_5 + R_2(R_3 + R_4 + R_5)}{(R_4 + R_5)R_3 + (R_1 + R_2)(R_3 + R_4 + R_5)} \cdot R_1 +$$

$$+ \frac{R_3^2(R_2 + R_5) + R_3R_5(R_1 + R_2)}{(R_4 + R_5)R_3 + (R_1 + R_2)(R_3 + R_4 + R_5)} \cdot \frac{R_4}{R_3}$$

FIZIKA FANIDA MURAKKAB TUZILISHGA EGA BO‘LGAN ZANJIR ELEMENTLARI UCHUN “UCHBURCHAK-YULDUZCHA” USULINI QO‘LLANILISHI

Murakkab sxemalarni soddalashtirish uchun ishlatiladigan “Yulduzcha-uchburchak” usuli quyidagi sxemalarda ko‘rsatilgan bo‘lib ularni biridan ikkinchisiga o‘tish uchun formulalarni keltirib chiqaramiz.

Uchburchakdan-yulduzchaga o‘tish uchun, 1-2,1-3 va 2-3 nuqta orasidagi umumiy qarshilikni 1- va 2-sxemalar uchun keltirib chiqaramiz.



1-rasm. Uchburchak sxema.



2-rasm. Yulduzcha sxema.

1-sxema uchun 1-2 nuqta orasidagi umumiy qarshilikni hisoblashda R_{13} va R_{23}ni ketma-ket ulab, chiqqan natijani R_{12} qarshilikka parallel ulaymiz.

$$R_{13,23} = R_{13} + R_{23}\ ; \frac{1}{R_{Um(1-2)}} = \frac{1}{R_{12}} + \frac{1}{R_{13,23}}\ ;$$

$$\frac{1}{R_{Um(1-2)}} = \frac{1}{R_{12}} + \frac{1}{R_{13}+R_{23}} \rightarrow R_{Um(1-2)} = \frac{R_{12}\cdot(R_{23}+R_{13})}{R_{12}+R_{23}+R_{13}}$$

2-sxema uchun 1-2 nuqta orasidagi umumiy qarshilikni hisoblasak $R_{Um(1-2)} = R_1 + R_2$.

1-sxema uchun 1-3 nuqta orasidagi umumiy qarshilikni hisoblashda R_{12} va R_{23}ni ketma-ket ulab, chiqqan natijani R_{13}qarshilikka parallel ulaymiz.

$$R_{12,23} = R_{12} + R_{23}; \frac{1}{R_{Um(1-3)}} = \frac{1}{R_{13}} + \frac{1}{R_{12,23}}\ ;\ \frac{1}{R_{Um(1-3)}} = \frac{1}{R_{13}} + \frac{1}{R_{12}+R_{23}} \rightarrow R_{Um(1-3)} = \frac{R_{13}\cdot(R_{23}+R_{12})}{R_{12}+R_{23}+R_{13}}$$

2-sxema uchun 1-3 nuqta orasidagi umumiy qarshilikni hisoblasak $R_{Um(1-3)} = R_1 + R_3$. 1-sxema uchun 2-3 nuqta orasidagi umumiy qarshilikni hisoblashda R_{12} va R_{13}ni ketma-ket ulab, chiqqan natijani R_{23}qarshilikka parallel ulaymiz.

$$R_{12,13} = R_{12} + R_{13}; \frac{1}{R_{Um(2-3)}} = \frac{1}{R_{23}} + \frac{1}{R_{12,13}}\ ;\ \frac{1}{R_{Um(2-3)}} = \frac{1}{R_{23}} + \frac{1}{R_{12}+R_{13}} \rightarrow R_{Um(2-3)} = \frac{R_{23}\cdot(R_{12}+R_{13})}{R_{12}+R_{23}+R_{13}}$$

2-sxema uchun 2-3 nuqta orasidagi umumiy qarshilikni hisoblasak $R_{Um(2-3)} = R_2 + R_3$.

1-sxema uchun va 2-sxema uchun hisoblangan natijalarni tenglashtiramiz.

$$\begin{cases} R_1 + R_2 = \dfrac{R_{12}\cdot(R_{23}+R_{13})}{R_{12}+R_{23}+R_{13}}; \quad R_1 + R_3 = \dfrac{R_{13}\cdot(R_{23}+R_{12})}{R_{12}+R_{23}+R_{13}}; \; R_2 + R_3 = \dfrac{R_{23}\cdot(R_{12}+R_{13})}{R_{12}+R_{23}+R_{13}} \end{cases}$$

Tenglamalar sistemasi hosil bo‘ladi.

Yuqoridagi tenglamalar sistemasidan R_1, R_2 va R_3 topsak quyidagi natijaga erishamiz.

$$R_1 = \frac{R_{12}\cdot R_{13}}{R_{12}+R_{23}+R_{13}}; R_2 = \frac{R_{12}\cdot R_{23}}{R_{12}+R_{23}+R_{13}}; R_3 = \frac{R_{23}\cdot R_{13}}{R_{12}+R_{23}+R_{13}} \qquad (1)$$

Topilgan formulalar uchburchakdan yulduzchaga o‘tishda foydalaniladi.

Endi aksincha hol uchun ya’ni **yulduzchadan-uchburchakka** o‘tish kerak bo‘lsa yuqoridagi tenglamalar sistemasidan R_{12}, R_{13} va R_{23}ni topsak quyidagi natijaga eri-shamiz.

$$R_{12} = R_1 + R_2 + \frac{R_1\cdot R_2}{R_3}; R_{13} = R_1 + R_3 + \frac{R_1\cdot R_3}{R_2}; R_{23} = R_2 + R_3 + \frac{R_2\cdot R_3}{R_1}$$

(2)

Keltirib chiqarilgan (1) va (2) formulalardan foydalanib murakkab sxemalarni soddalashtirib hisoblaymiz. Yuqorida keltirib chiqarilgan formulalardan foydalanib quyidagi 3-rasmdagi sxemani umumiy qarshiligini yisoblaymiz. Sxemaning umumiy qarshiligini topish uchun ketma-ket, parallel ulashni amalga oshirib bo‘lmaydi. Bu sxemani yechishning ikki yo‘li bor.

1-yo‘l: Kirxgof qoidalaridan foydalanib yechiladi, lekin bu yo‘l juda ko‘p tenglamalar talab qiladi.

2-yo‘l: Sxemani sodda holatga o‘tishning juda qulay yo‘li “Uchburchak-yulduzcha” yoki “Yulduzcha-uchburchak” usullaridir.



3-rasm. O‘rganilayotgan sxema.

1-usul**: “Uchburchak-yulduzcha”** usuli. 3-rasmning ADC qismini uchburchak-dan yulduzchaga aylantiramiz.



(1) formulalardan foydalanib R_1, R_2, R_3 topsak $R_1 = R/3; R_2 = R/2; R_3 = R$ natijaga erishamiz. Asosiy sxemamizning ADC qismi o‘rniga yulduzchani etib qo‘ysak quyidagi sxema hosil bo‘ladi.



R/3 bilan 3R ni, R bilan R ni ketma-ket ulasak sxema quyidagicha soddalashadi.



10R/3 bilan 2R ni parallel,natijani R/2 ga ketma-ket ulasak AB nuqta orasidagi umumiy qarshilik kelib chiqadi R_{AB}=7/4R

2-usul**: “Yulduzcha uchburchak”** usuli



4-rasm. O‘rganilayotgan sxema.

4-rasmning AC, CD, CB qismini yulduzchadan ADB uchburchakka aylantiramiz.





(2) formulalardan foydalanib R_1, R_2, R_3 topsak $R_1 = 11R; R_2 = 11R/3; R_3 = 5{,}5R$ natijaga erishamiz. Asosiy sxemamizning ACDB qismi o‘rniga ABD uchburchakni etib qo‘yamiz va sxemamiz quyidagi ko‘rinishga keladi.



R bilan R_1 ni, 3R bilan R_2 ni parallel ulasak sxema yanada soddalashadi.



Oxirgi qiladigan amalimiz 11R/12 ni 33R/20 qarshiliklarni ketma-ket ulab, chiqqan natijani R_3 ga parallel ulasak natija $R_{AB}=7/4R$ umumiy qarshilik kelib chiqadi.

“Yulduzcha-uchburchak” va “Uchburchak-yulduzcha” usullari murakkab tuzilishga ega bo‘lgan sxemalarni yechishning eng sodda yechimi bo‘lib, o‘quvchilar murakkab sxemalarni yechishda Kirxgov qoidalarini qo‘llab juda ko‘b tenglamalarni keltirib chiqarmasdan, yuqoridagi usullardan foydalansa sxemalar murakkab ko‘rinishdan sodda ko‘rinishga o‘tadi. Sodda ko‘rinishdagi sxemalarni o‘quvchi ketma-ket va parallel ulash yordamida osongina natija chiqaradi.

NAZARIY YECHILGAN MASALALARNING AMALIY ISBOTI

Fizikadan masalalarni biz doimo nazariy yo‘l bilan ya’ni kerakli formulalar yordamida yechamiz, yechilgan masalalarni javobini laboratoriyada qilib ko‘rsak o‘quvchining bilim, ko‘nikmasi yanada oshadi.

Quyidagi masalalarni ham nazariy ham amaliy ya’ni laboratoriyada bajarib, har ikkala holatdaham javoblari bir-xil chiqishi isbotlangan.

1. Uchburchakli piramidaning barcha tomonlarining qarshiligi R=20Ω ga teng, sxemaning AB nuqtalar orasidagi umumiy qarshiligini toping(1-sxema)?



1-sxema. Zanjir sxemasi.

AB nuqtalar orasidagi umumiy qarshilikni hisoblash uchun biz avval har bir rezistor orqali o‘tadigan toklarni topib chiqamiz. Demak A va B nuqta

orasidagi qarshilikni toping deyilgani uchun A nuqtadan I tok kirib B nuqtadan chiqib ketadi deb faraz qilib masalani ishlaymiz va sxemada tok kuchlarini quyidagicha joylashtirib chiqamiz(2-sxema).



2-sxema. Sxemada toklarning taqsimlanishi.

Kirxgofning 1-qoidasiga ko‘ra tugunlarga kiruvchi va chiquvchi toklar tengligidan quyidagi tenglamaga ega bo‘lamiz.

$$I = I_1 + I_2 + I_3$$
$$I_6 + I_5 + I_3 = I$$
$$I_4 + I_2 = I_5$$
$$I_4 + I_6 = I_1 \qquad (1)$$

Kirxgofning 2-qoidasiga ko‘ra ACD, ADB va CBD yopiq kontur uchun quyidagi tenglamaga ega bo‘lamiz.

$$I_1 \cdot R + I_4 \cdot R - I_2 \cdot R = 0$$
$$I_2 \cdot R + I_5 \cdot R - I_3 \cdot R = 0$$
$$I_6 \cdot R - I_5 \cdot R - I_4 \cdot R = 0 \qquad (2)$$

(1) va (2) tenglamalarni soddalashtirsak $I_3 = 2I_1 = 2I_2 = 2I_5 = 2I_6; I_4 = 0$ quyidagi natijaga erishamiz.

Demak CD yo‘nalishda tok harakatlanmaydi potensiallar farqi $\varphi_C - \varphi_D = U_{CD} = 0$ bo‘ladi. Shuning uchun CD rezistorni sxemadan olib tashlaymiz va sxemamiz quyidagi ko‘rinishga keladi(3-sxema). 3-sxemani quyidagi sodda ko‘rinishdagi 4-sxema ko‘rinishiga o‘tib uni hisoblaymiz.

$$\frac{1}{R_{AB}} = \frac{1}{2R} + \frac{1}{2R} + \frac{1}{R}; R_{AB} = 0{,}5R = 0{,}5 \cdot 20 = 10\Omega$$



3-sxema. CD qarshilik olib tashlanadi.



4-sxema. Soddalashgan sxema.

Endi nazariy yo‘l bilan isbotlab chiqarilgan natijalarni amalda bajaramiz. $\varphi_C - \varphi_D = U_{CD} = 0$ ushbu natijani amalda isbotlaymiz. Buning uchun quyidagi sxemani yig‘amiz



1-rasm. Zanjirning yig‘ilishi.
Old ko‘rinishi


1-rasm. Zanjirning yig‘ilishi.
Orqa ko‘rinishi

Sxemamizni A va B nuqtasini tok manbaiga ketma-ket, C va D nuqtalarni esa voltmetrga parallel ulaymiz.



2-rasm. Tajriba qurilmalari.

Tajribadan ko‘rinib turibdiki, voltmetr 0 ni ko‘rsatmoqda demak C va D nuqtalarda potensiallar farqi 0 ga teng ekan.

Endi umumiy qarshilikni hisoblaymiz, buning uchun qarshilik o‘lchaydigan asbob ommetrdan foydalanamiz(3-rasm).

Bizga nazariy yo‘l bilan $R_{AB} = 10\Omega$ javob chiqqan edi, amalda ham shunday chiqdi.



3-rasm. O‘lchash natijasi.

Nazariy yo‘llar bilan topilgan barcha natijalar amaliy yo‘llar bilan o‘z isbotini topdi. Bunday amaliy tajribalar o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llashga o‘rgatadi va nazariy bilimlarini mustahkamlaydi.

2. Uchburchakli piramidaning barcha tomonlarining qarshiligi R=20Ω ga teng, sxemaning AD nuqtalar orasidagi umumiy qarshiligini toping(1-rasm)?



1-sxema. Zanjir sxemasi.

Sxemaning qarshiliklari bir-xil bo‘lganligi uchun va c va b nuqtalarga potensiallar tengligi uchun, potensiallar farqi cb rezistorda 0 ga teng shuning uchun cb rezistordan tok o‘tmaydi.

ISBOT

ad nuqtalar orasidagi umumiy qarshilikni hisoblash uchun biz avval har bir rezistor orqali o‘tadigan toklarni topib chiqamiz. Demak a va d nuqta orasidagi qarshilikni toping deyilgani uchun a nuqtadan I tok kirib d nuqtadan chiqib ketadi deb faraz qilib masalani ishlaymiz va sxemada tok kuchlarini quyidagicha joylashtirib chiqamiz (1,1-rasm).



1,1-rasm.

Kirxgofning 1-2-qoidasidan foydalansak quyidagi (1) va (2) tenglamalar kelib chiqadi.

$$I = I_1 + I_2 + I_3\ ;\ I_2 + I_4 + I_5 = I;\qquad I_3 + I_6 = I_5 \qquad (1)$$

$$I_1R + I_4R - I_2R = 0;\ I_2R - I_5R - I_3R = 0;\ I_6R + I_5R - I_4R = 0 \qquad (2)$$

(1) va (2) formulalarni soddalashtirsak I_6=0 natija kelib chiqadi. Demak cb yo‘nalishda tok harakatlanmaydi potensiallar farqi $\varphi_c - \varphi_b = U_{cb} = 0$ bo‘ladi. Shuning uchun cb rezistorni sxemadan olib tashlaymiz va sxemamiz quyidagi ko‘rinishga keladi(1,2-rasm).



1,2-rasm.



1,3-rasm.

1,2-rasmdagi sxemani murakkab ko‘rinishdan sodda ko‘rinishga o‘tamiz(1,3-rasm) va hisoblaymiz.

$$\frac{1}{R_{ad}} = \frac{1}{2R} + \frac{1}{2R} + \frac{1}{R}; R_{ad} = 0{,}5R$$

Endi nazariy yo‘ bilan isbotlab chiqarilgan natijalarni amalda bajaramiz.

$\varphi_c - \varphi_b = U_{cb} = 0$ ushbu formulani amalda isbotlaymiz .Buning uchun quyidagi sxemani yig‘amiz



Old ko‘rinishi.

Orqa ko‘rinishi.

Sxemamizni a va d nuqtasini tok manbaiga ketma-ket, c va b nuqtalarni esa voltimetrga parallel ulaymiz.



Tajribadan ko‘rinib turibdiki voltimetr 0 ni ko‘rsatmoqda demak c va b nuqtalarda potensiallar farqi o ga teng ekan.

Tajribadan ya’na shunday xulosa chiqarish mumkinki Kirxgofning 1-qoidasida: Tugunlarga kiruvchi va chiquvchi toklar teng deyilgan edi yaqiqatdan ham a nuqtaga ulangan ampermetr ham d nuqtaga ulangan ampermetrham bir xil tokni ko‘rsatmoqda.

Endi umumiy qarshilikni hisoblaymiz buning uchun qarshilik o‘lchaydigan asbob ommetrdan foydalanamiz.



Bizga nazariy yo‘l bilan $R_{ad} = 0{,}5R$ javob chiqqan edi, biz qarshiligi $R = 20\Omega$ bo‘lgan qarshiliklardan foydalanganimiz uchun javob $R_{ad} = 0{,}5 \cdot 20 = 10\Omega$ chiqishi kerak edi lekin ulash simlarining qarshiligi borligi uchun $R_{ad} = 11\Omega$ chiqdi.

3. Uchburchakli piramidaning barcha tomonlarining qarshiligi R=20Ω ga teng, sxemaning AC nuqtalar orasidagi umumiy qarshiligini toping(1-rasm)?



1-rasm

Sxemaning qarshiliklari bir-xil bo‘lganligi uchun va b va d nuqtalarga potensiallar tengligi uchun,potensiallar farqi bd rezistorda 0 ga teng shuning uchun bd rezistordan tok o‘tmaydi.

ISBOT

ac nuqtalar orasidagi umumiy qarshilikni hisoblash uchun biz avval har bir rezistor orqali o‘tadigan toklarni topib chiqamiz. Demak a va c nuqta orasidagi qarshilikni toping deyilgani uchun a nuqtadan I tok kirib c nuqtadan chiqib ketadi deb faraz qilib masalani ishlaymiz va sxemada tok kuchlarini quyidagicha joylashtirib chiqamiz(1,1-rasm).



1,1-rasm

Kirxgofning 1-qoidasiga ko‘ra tugunlarga kiruvchi va chiquvchi toklar tengligidan quyidagi natijaga ega bo‘lamiz.

$I = I_1 + I_2 + I_3;\ I_1 + I_4 + I_6 = I;\ I_2 + I_5 = I_4$ (1)

$I_1R - I_4R - I_2R = 0;\ I_2R - I_5R - I_3R = 0;\ I_4R - I_6R - I_5R = 0$ (2)

(1) va (2) formulalarni soddalashtirsak $I_5=0$ natija kelib chiqadi. Demak db yo‘nalishda tok harakatlanmaydi potensiallar farqi $\varphi_b - \varphi_d = U_{bd} = 0$ bo‘ladi. Shuning uchun db rezistorni sxemadan olib tashlaymiz va sxemamiz quyidagi ko‘rinishga keladi(1,2-rasm).



1,2-rasm



1,3-rasm

1,2-rasmdagi sxemani quyidagi sodda ko‘rinishda o‘tamiz(1,3-rasm) va hisoblaymiz.

$$\frac{1}{R_{ac}} = \frac{1}{2R} + \frac{1}{2R} + \frac{1}{R};\ R_{ac} = 0{,}5R$$

Endi nazariy yo‘ bilan isbotlab chiqarilgan natijalarni amalda bajaramiz.

$\varphi_d - \varphi_b = U_{db} = 0$ ushbu formulani amalda isbotlaymiz .Buning uchun quyidagi sxemani yig‘amiz



Old ko‘rinishi.

Orqa ko‘rinishi.

Sxemamizni a va c nuqtasini tok manbaiga ketma-ket, d va b nuqtalarni esa voltimetrga parallel ulaymiz.



Tajribadan ko‘rinib turibdiki voltimetr 0 ni ko‘rsatmoqda demak d va b nuqtalarda potensiallar farqi o ga teng ekan. Tajribadan ya’na shunday xulosa chiqarish mumkinki Kirxgofning 1-qoidasida: Tugunlarga kiruvchi va chiquvchi toklar teng deyilgan edi yaqiqatdan ham a nuqtaga ulangan ampermetr ham c nuqtaga ulangan ampermetrham bir xil tokni ko‘rsatmoqda. Endi umumiy qarshilikni hisoblaymiz buning uchun qarshilik o‘lchaydigan asbob ommetrdan foydalanamiz.



Bizga nazariy yo‘l bilan $R_{ac} = 0{,}5R$ javob chiqqan edi, biz qarshiligi $R = 20\Omega$ bo‘lgan qarshiliklardan foydalanganimiz uchun javob $R_{ac} = 0{,}5 \cdot 20 = 10\Omega$ chiqdi.

3. Simdan yasalgan ABCD rombning AC nuqtalari orasidagi qarshilikni toping.Rombning tomonlari va diagonallarining qarshiligi R ga teng(1-rasm).

(AC va BD diaganallar kesishmagan)



1-rasm

B va D nuqtalarda potensiallari teng $\varphi_B = \varphi_D$ Potensiallar farqi $\varphi_B - \varphi_D = U_{BD} = 0$ bo‘lganligi uchun BD nuqta orqali tok o‘tmaydi.

ISBOT:

AC nuqtalar orasidagi umumiy qarshilikni hisoblash uchun biz avval har bir rezistor orqali o‘tadigan toklarni topib chiqamiz. Demak A va C nuqta orasidagi qarshilikni toping deyilgani uchun A nuqtadan I tok kirib C

nuqtadan chiqib ketadi deb faraz qilib masalani ishlaymiz.Va sxemada tok kuchlarini quyidagicha joylashtirib chiqamiz(1,1-rasm).



1,1-rasm

Kirxgofning 1-2-qoidalariadan foydalanib quyidagi tenglamalarni tuzamiz.

$I = I_1 + I_2 + I_3;\ I_2 + I_5 + I_6 = I;\ I_4 + I_6 = I_1; I_3 + I_4 = I_5$ (1)

$I_1R - I_4R - I_3R = 0; I_2R - I_5R - I_3R = 0; I_6R - I_5R - I_4R = 0;$

$I_1R - I_6R - I_5R - I_3R = 0$ (2)

(1) va (2) formulalarni soddalashtirsak $I_4=0$ natija kelib chiqadi. Shuning uchun BD diagonalni olib tashlaymiz(1,2-rasm) va quyidagi 2-usulda ishlaymiz

1-Usul

Bu sxemani tushunarliroq bo‘lishi uchun quyidagicha soddalashtiramiz



1,2-rasm

$$R_{ABC} = R + R = 2R; R_{ADC} = R + R = 2R; \frac{1}{R_{AC}} = \frac{1}{R_{ABC}} + \frac{1}{R} + \frac{1}{R_{ADC}}$$

$$= \frac{1}{2R} + \frac{1}{R} + \frac{1}{2R} = \frac{4}{2R}$$

$$R_{AC} = \frac{2R}{4} = \frac{R}{2}$$

2-Usul

B va D nuqtalarda potensiallar farqi o bo‘lganligi uchun BD nuqta orqali tok o‘tmaydi shuning uchun BD nuqtalarni birlashtiramiz va u quyidagi holga keladi



$$\frac{1}{R_{AB}} = \frac{1}{R} + \frac{1}{\frac{R}{2}} + \frac{1}{R} = \frac{1}{R} + \frac{2}{R} + \frac{1}{R} = \frac{4}{R} \rightarrow R_{AB} = \frac{R}{4};$$

$$\frac{1}{R_{BC}} = \frac{1}{R} + \frac{1}{\frac{R}{2}} + \frac{1}{R} = \frac{1}{R} + \frac{2}{R} + \frac{1}{R} = \frac{4}{R} \rightarrow R_{BC} = \frac{R}{4}$$

$$R_{AC} = \frac{R}{4} + \frac{R}{4} = \frac{R}{2}$$

Endi nazariy yo‘ bilan isbotlab chiqarilgan natijalarni amalda bajaramiz. $\varphi_B - \varphi_D = U_{BD} = 0$ ushbu formulani amalda isbotlaymiz .Buning uchun quyidagi sxemani yig‘amiz.



Old ko‘rinishi

Sxemamizni A va C nuqtasini tok manbaiga ketma-ket, B va D nuqtalarni esa voltimetrga parallel ulaymiz.



Tajribadan ko‘rinib turibdiki voltimetr 0 ni ko‘rsatmoqda demak B va D nuqtalarda potensiallar farqi o ga teng ekan.

Tajribadan ya’na shunday xulosa chiqarish mumkinki Kirxgofning 1-qoidasida: Tugunlarga kiruvchi va chiquvchi toklar teng deyilgan edi yaqiqatdan ham A nuqtaga ulangan ampermetr ham C nuqtaga ulangan ampermetrham bir xil tokni ko‘rsatmoqda.

Endi umumiy qarshilikni hisoblaymiz buning uchun qarshilik o‘lchaydigan asbob ommetrdan foydalanamiz.



Bizga nazariy yo‘l bilan $R_{AC} = 0{,}5R$ javob chiqqan edi, biz qarshiligi $R = 6{,}8\Omega$ bo‘lgan qarshiliklardan foydalanganimiz uchun javob $R_{AC} = 0{,}5 \cdot 6{,}8 = 3{,}4\Omega$ chiqishi kerak edi lekin simlarning qarshiligi borligi uchun $R_{AC} = 3{,}9\Omega$ chiqdi.

4. Simdan yasalgan ABCD rombning AB nuqtalari orasidagi qarshilikni toping.Rombning tomonlari va diagonallarining qarshiligi R ga teng(1-rasm)

(AC va BD diaganallar kesishmagan)



1-rasm.

D va C nuqtalarda potensiallari teng $\varphi_B = \varphi_D$ Potensiallar farqi $\varphi_B - \varphi_D = U_{BD} = 0$ bo‘lganligi uchun DC nuqta orqali tok o‘tmaydi.

ISBOT:

AB nuqtalar orasidagi umumiy qarshilikni hisoblash uchun biz avval har bir rezistor orqali o‘tadigan toklarni topib chiqamiz. Demak A va B nuqta orasidagi qarshilikni toping deyilgani uchun A nuqtadan I tok kirib B nuqtadan chiqib ketadi deb faraz qilib masalani ishlaymiz.Va sxemada tok kuchlarini quyidagicha joylashtirib chiqamiz(1,1-rasm).



1,1-rasm

Kirxgofning 1-2-qoidalariadan foydalanib quyidagi tenglamalarni tuzamiz.

$$I = I_1 + I_2 + I_3;\ I_1 + I_4 + I_6 = I;\ I_4 + I_5 = I_3;\ I_2 + I_5 = I_6 \qquad (1)$$

$$I_1R - I_4R - I_3R = 0;\ I_2R - I_5R - I_3R = 0;\ -I_6R - I_5R + I_4R = 0$$

$$I_1R - I_6R - I_5R - I_3R = 0 \qquad (2)$$

(1) va (2) formulalarni soddalashtirsak $I_5=0$ natija kelib chiqadi.shuning uchun DC diagonalni olib tashlaymiz va quyidagicha ishlaymiz



1,2-rasm

AC va CB rezistorlar va AD va DB rezistorlarham ketma-ket ulanganligi uchun quyidagicha soddalashtiramiz(1,3-rasm).



1,3-rasm

$$R_{ACB} = R + R = 2R; R_{ADB} = R + R = 2R;$$

$$\frac{1}{R_{AB}} = \frac{1}{R_{ACB}} + \frac{1}{R_{ADB}} + \frac{1}{R} = \frac{1}{2R} + \frac{1}{2R} + \frac{1}{R} = \frac{4}{2R} \rightarrow R_{AB} = \frac{R}{2}$$

Endi nazariy yo‘ bilan isbotlab chiqarilgan natijalarni amalda bajaramiz.

$\varphi_D - \varphi_C = U_{DC} = 0$ ushbu formulani amalda isbotlaymiz .Buning uchun quyidagi sxemani yig‘amiz



Old ko‘rinishi

Sxemamizni A va B nuqtasini tok manbaiga ketma-ket, D va C nuqtalarni esa voltimetrga parallel ulaymiz.



Tajribadan ko‘rinib turibdiki voltimetr 0 ni ko‘rsatmoqda demak D va C nuqtalarda potensiallar farqi o ga teng ekan. Tajribadan ya’na shunday xulosa chiqarish mumkinki Kirxgofning

1-qoidasida: Tugunlarga kiruvchi va chiquvchi toklar teng deyilgan edi yaqiqatdan ham A nuqtaga ulangan ampermetr ham B nuqtaga ulangan ampermetrham bir xil tokni ko‘rsatmoqda.

Endi umumiy qarshilikni hisoblaymiz buning uchun qarshilik o‘lchaydigan asbob ommetrdan foydalanamiz.



Bizga nazariy yo‘l bilan $R_{AB}=0{,}5R$ javob chiqqan edi, biz qarshiligi $R=6{,}8\Omega$ bo‘lgan qarshiliklardan foydalanganimiz uchun javob $R_{AB}=0{,}5\cdot 6{,}8=3{,}4\Omega$ chiqishi kerak edi lekin simlarning qarshiligi borligi uchun $R_{AB}=3{,}9\Omega$ chiqdi.

OLIY O‘QUV YURTLARIGA KIRUVCHILAR UCHUN VARIANT VA AXBOROTNOMALAR TO‘PLAMIDAN NAMUNALAR

REZISTORLARNI KETMA-KET ULASH FORMULASI:

$$R_{Um} = R_1 + R_2 + R_3 + \dots R_n$$

REZISTORLARNI PARALLEL ULASH FORMULASI:

$$\frac{1}{R_{Um}} = \frac{1}{R_1} + \frac{1}{R_2} + \frac{1}{R_3} + \dots \frac{1}{R_n}$$

98/11-43. Rasmda ko‘rsatilgan A ya B nuqtalar orasidagi to‘liq qarshilikni toping. Har bir qismning qarshiligi R ga teng.



Sxemani soddalashtiramiz ya’ni tok o‘tmaydigan qismlarni olib tashlaymiz.Rasmda tasvirlangan barcha qismlarning qarshiligi R va ular ketma-ket ulangan 11 ta qismdan tashkil topgan

$R_{um} = R + R + R + R + R + R + R + R + R + R + R = 11R$

98/8-59. Kesimi yuzi 1 mm^2 bo‘lgan po‘lat o‘tkazgichdan tayyorlangan, tomoni 1m va 2m bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi elektr zanjning A va B nuqtalar orasidagi to‘liq qarshilikni toping (Ω).Po‘latning solishtirma qarshiligi $1{,}2 \cdot 10^{-7}\,\Omega \cdot m$



Bu sxemani har-bir uzunlikdagi simning qarshiligini topamiz. So‘ngra qarshilikni ketma-ket va parallel ulash formulalaridan foydalanib umumiy qarshilikni topamiz.bu sxemani quyidagi ko‘rinishda keltirsak bo‘ladi

Berilgan:	Yechilishi:
$S = 1mm^2 = 1 \cdot 10^{-6}m^2$ $l_1 = 2m$ $l_2 = 1m$ $l_3 = 2m$ $l_4 = 1m$ $\rho = 1{,}2 \cdot 10^{-7}\Omega \cdot m$	$R_1 = \rho\frac{l_1}{S} = 1{,}2 \cdot 10^{-7}\frac{2}{1 \cdot 10^{-6}} = 0{,}24\Omega$ $R_2 = \rho\frac{l_2}{S} = 1{,}2 \cdot 10^{-7}\frac{1}{1 \cdot 10^{-6}} = 0{,}12\Omega$ $R_3 = \rho\frac{l_3}{S} = 1{,}2 \cdot 10^{-7}\frac{2}{1 \cdot 10^{-6}} = 0{,}24\Omega R_4 = \rho\frac{l_4}{S} = 1{,}2 \cdot 10^{-7}\frac{1}{1 \cdot 10^{-6}} = 0{,}12\Omega$ $R_{123} = R_1 + R_2 + R_3 = 0{,}24 + 0{,}12 + 0{,}24 = 0{,}6\Omega$ $\frac{1}{R_{AB}} = \frac{1}{R_{123}} + \frac{1}{R_4} = \frac{1}{0{,}6} + \frac{1}{0{,}12} = \frac{1}{0{,}6} + \frac{5}{0{,}6} = \frac{6}{0{,}6}$ $R_{AB} = \frac{0{,}6}{6} = 0{,}1\Omega$
$R_{AB} = ?$ Formula: $R = \rho\frac{l}{S}$	

96/7-37. A va B nuqtalar orasidagi kuchlanish qanday (V)?
R_1 = 10 Ω, R_2=5 Ω, R_3=20 Ω, U_2= 10 V



Ketma-ket ulashda sistemaning tok kuchi bir xil bo‘ladi $I_2 = \frac{U_2}{R_2} = \frac{10}{5} = 2A$ Demak bundan kelib chiqadiki $I_1 = I_2 = I_3 = 2A$ har bir qarshilikdagi kuchlanishni topamiz. $U_1 = I_1 \cdot R_1 = 2 \cdot 10 = 20V; U_3 = I_3 \cdot R_3 = 2 \cdot 20 = 40V;$ Ketma-ket ulashda kuchlanishlar qo‘shiladi:$U = U_1 + U_2 + U_3 = 20 + 10 + 40 = 70V.$

96/3-92. Simdan yasalgan ABCD rombning (rasmga q.) A va C nuqtalari orasidagi qarshilikni toping. Rombning tomonlari va AC diagonalming qarshiliklari bir xil bo‘lib R ga teng.



Bu sxemani tushunarliroq bo‘lishi uchun quyidagicha soddalashtiramiz



$R_1 = R_2 = R_3 = R_4 = R_5 = R; R_{12} = R_1 + R_2 = R + R = 2R$

$R_{45} = R_4 + R_5 = R + R = 2R; \frac{1}{R_{AC}} = \frac{1}{R_{12}} + \frac{1}{R_3} + \frac{1}{R_{45}} = \frac{1}{2R} + \frac{1}{R} + \frac{1}{2R} = \frac{4}{2R}$

$R_{AC} = \frac{2R}{4} = \frac{R}{2}$

00/3-34. Rasmda tasvirlangan elektr zanjirning A va B nuqtalari orasidagi qarshilik necha Ω? Rezistorlardan har birining qarshiligi 30 Ω ga teng.



Bu sxemani tushunarliroq bo‘lishi uchun quyidagicha soddalashtiramiz



$$\frac{1}{R_{AB}} = \frac{1}{R} + \frac{1}{R} + \frac{1}{R} = \frac{3}{R} \rightarrow R_{AB} = \frac{R}{3} = \frac{30}{3} = 10\Omega$$

99/9-36. Har birining qarshiligi 3 Ω dan bo‘lgan qarshiliklar rasmda ko‘rsatilgan-dek ulangan bo‘lsa, A va B nuqtalar orasidagi umumiy qarshilik necha Ω?



Bu zanjirni soddalashtiramiz



$$\frac{1}{R_{AB}}=\frac{1}{R}+\frac{1}{R}+\frac{1}{R}=\frac{3}{R}R_{AB}=\frac{R}{3}=\frac{3}{3}=1\Omega$$

98/4-56. Solishtirma qarshiligi ρ va ko‘ndalang kesim yuzi S bo‘lgan bir jinsli simdan radiusi r bo‘lgan halqa yasalgan va u diametral qarama-qarshi ikki nuqtasidan zanjirga ulangan. Shu nuqtalar orasidagi qarshilikni aniqlang.





Halqaning ikki tomonini qarshiligini topamiz va quyidagicha soddalashgan holga keltiramiz.Yalqaning yarmining uzunligi bu aylana yarmi

$$l_1=l_2=\frac{2\pi r}{2}=\pi r;R_1=\rho\frac{l_1}{S}=\rho\frac{\pi r}{S};R_2=\rho\frac{l_2}{S}=\rho\frac{\pi r}{S};$$

$$\frac{1}{R_{um}}=\frac{1}{R_1}+\frac{1}{R_2}=\frac{1}{\rho\frac{\pi r}{S}}=\frac{S}{\rho\pi r}+\frac{S}{\rho\pi r}=\frac{2S}{\rho\pi r};R_{um}=\frac{\rho\pi r}{2S}$$

03/8-4. Sxemadagi qarshiligi 3 Ω bo‘lgan tarmoqdan o’tayotgan tokning kuchi 2 A. Qarshiligi 2 Ω bo‘lgan tarmoqdan o‘tayotgan tok kuchi qanday (A)?



Ikkita qarshilik parallel ulangan, parallel ulashda tarmoqning kuchlanishlari bir xil bo‘ladi shuning uchun bu sxemaning kuchlanishlarini tenglashtiramiz.

Berilgan:	Yechilishi:
$I_2=2A$ $R_2=3\Omega$ $R_1=2\Omega$	$I=\frac{U}{R}$ Formuladan U ni topsak $U=I\cdot R$ formula kelib chiqadi

$I_1 = ?$ Formula: $U_1 = U_2$	$U_1 = I_1 \cdot R_1; U_2 = I_2 \cdot R_2; U_1 = U_2$ kuchlanishlarni tenglashtirsak $I_1 \cdot R_1 = I_2 \cdot R_2$ natijaga ega bo‘lamiz $I_1 = \frac{I_2 \cdot R_2}{R_1} = \frac{2 \cdot 3}{2} = 3A$

99/1-31. Quyidagi sxemada R_2=4 Ω, I=5 A, I_1=2 A bo‘lsa, umumiy qarshilik necha Ω bo‘ladi?



Berilgan: $I = 5A$ $I_1 = 2A$ $R_2 = 4\Omega$ $R_{um} = ?$ Formula: $U_1 = U_2$	Yechilishi: I tok kuchi 2 ga bo‘linadi$I = I_1 + I_2$ bundan $I_2 = I - I_1 = 5 - 2 = 3A$ sxemadagi qarshiliklar parallel ulangan, parallel ulashda kuchlanish bir xil $U_1 = U_2; U_1 = U_2; U_1 = I_1 \cdot R_1; U_2 = I_2 \cdot R_2$ kuchlanishlarni tenglashtirsak $I_1 \cdot R_1 = I_2 \cdot R_2$ bu yerdan R_1 ni topamiz $R_1 = \frac{I_2 \cdot R_2}{I_1} = \frac{3 \cdot 4}{2} = 6\Omega$ $\frac{1}{R_{um}} = \frac{1}{R_1} + \frac{1}{R_2} = \frac{1}{6} + \frac{1}{4} = \frac{5}{12}; R_{um} = \frac{12}{5} = 2{,}4\Omega$

99/9-38. A_1 ampermetr 2,5 A, A_2 ampermetr 5 A tokni ko‘rsatmoqda. Agar R_1=4 Ω bo‘lsa, R_2 qarshilik necha Ω bo‘ladi?



Berilgan: $I_1 = 2{,}5A$ $I_2 = 5A$ $R_1 = 4\Omega$ $R_2 = ?$ Formula: $U_1 = U_2$	Yechilishi: $I = \frac{U}{R}$ formuladan U ni topsak $U = I \cdot R$ formula kelib chiqadi $U_1 = I_1 \cdot R_1; U_2 = I_2 \cdot R_2; U_1 = U_2$ kuchlanishlarni tenglashtirsak $I_1 \cdot R_1 = I_2 \cdot R_2$ natijaga ega bo‘lamiz $R_2 = \frac{I_1 \cdot R_1}{I_2} = \frac{2{,}5 \cdot 4}{5} = 2\Omega$

03/3-55. Elektr qarshiligi 1 Ω dan bo‘lgan 4 ta rezistor bir-biriga kvadrat shaklida ulangan (rasm). A va B nuqtalar orasidagi qarshilik (Ω) topilsin.



$$R_{123} = R_1 + R_2 + R_3 = 1 + 1 + 1 = 3\Omega; \frac{1}{R_{AB}} = \frac{1}{R_{123}} + \frac{1}{R_4} = \frac{1}{3} + \frac{1}{1} = \frac{4}{3} \rightarrow$$

$$R_{AB} = \frac{3}{4}\Omega$$

03/3-56. Elektr qarshiligi 1 Ω dan bo‘lgan 4 ta rezistor bir-biriga kvadrat shaklida ulangan (rasm). A va C nuqtalar orasidagi qarshilik (Ω) topilsin.





Masala tushunarli bo‘lishi uchun qarshiliklarga belgilash kiritamiz va qarshiliklarni ulash formulalaridan foydalanib hisoblaymiz.

$$R_{12} = R_1 + R_2 = 1 + 1 = 2\Omega; R_{34} = R_3 + R_4 = 1 + 1 = 2\Omega;$$

$$\frac{1}{R_{AC}} = \frac{1}{R_{12}} + \frac{1}{R_{34}} = \frac{1}{2} + \frac{1}{2} = \frac{2}{2} \rightarrow R_{AC} = 1\Omega$$

03/11-42. A va B nuqtalar orasidagi qarshilik qanday (Ω)?
Har bir rezistorning qarshiligi 1 Ω. ga teng.



$$R_1 = R_2 = R_3 = R_4 = R_5 = R_6 = R_7 = 1\Omega; R_{12} = R_1 + R_2 = 1 + 1 = 2\Omega;$$

$$\frac{1}{R_{123}} = \frac{1}{R_{12}} + \frac{1}{R_3} = \frac{1}{2} + \frac{1}{1} = \frac{3}{2}; R_{123} = \frac{2}{3}; \frac{1}{R_{456}} = \frac{1}{R_4} + \frac{1}{R_5} + \frac{1}{R_6} = \frac{3}{1};$$

$$R_{456} = \frac{1}{3}\Omega; \; R_{AB} = R_{123} + R_{456} + R_7 = \frac{2}{3} + \frac{1}{3} + 1 = 2\Omega$$

02/8-45. Sxemada ko‘rsatilgan kvadratning har bir tomoni va diagonali 1 Ω qarshilikka ega. A va B nuqtalar orasidagi umumiy qarshilikni toping (Ω).





Bu sxema tushunarli bo‘lishi uchun uni quyidagi soda ko‘rinishga keltiramiz

$R_1 = R_2 = R_3 = R_4 = R_5 = 1\Omega; R_{24} = R_2 + R_4 = 1 + 1 = 2\Omega;$

$\frac{1}{R_{243}} = \frac{1}{R_{24}} + \frac{1}{R_3} = \frac{1}{2} + \frac{1}{1} = \frac{3}{2} \rightarrow R_{243} = \frac{2}{3}\Omega; R_{1243} = R_1 + R_{243} = 1 + \frac{2}{3} = \frac{5}{3}\Omega;$

$\frac{1}{R_{AB}} = \frac{1}{R_5} + \frac{1}{R_{1243}} = \frac{1}{1} + \frac{3}{5} = \frac{8}{5} \rightarrow R_{AB} = \frac{5}{8}\Omega$

01/5-25. Rasmda tasvirlangan zanjirning A va B nuqtalari orasidagi qarshilikni toping (Ω). R=2 Ω.





Bu sxemani hisoblashga qulayroq va tushinarliroq bo‘lishi uchun qarshiliklarga nomer berib chiqamiz

$$U = \frac{\varepsilon_2 \cdot R_1 + \varepsilon_1 \cdot R_2}{R_1 + R_2} = 1{,}8V$$

16. E.Yu.K. $\varepsilon_1 = 1{,}4V$ va $\varepsilon_2 = 1{,}1V$ va ichki qarshiliklari mos ravishda $r_1 = 0{,}3\Omega$ va $r_2 = 0{,}2\Omega$ bo‘lgan ikki element turli ismli qutblari bilan o‘zaro tutashtirilgan. Elementlarning klemmalaridagi kuchlanishni aniqlang. Qanday sharoitda B va A nuqtalar orasidagi potentsiallar farqi nolga teng bo‘lishini aniqlang.



1-rasm.



1,1-rasm.

1-rasmdagi zanjirda $\varepsilon_1 > \varepsilon_2$ bo‘lgani uchun toklarni joylashtiramiz. (1,1-rasm). $\varepsilon_1 > \varepsilon_2$ bo‘lgani uchun I tok yo‘nalishini rasmda ko‘rsatilgandek tanlaymiz. Elementlarning ichki qarshiliklaridagi kuchlanish tushishlari elementlar E.Yu.K larining yig‘indisiga teng bo‘lishi kerak, chunki ular bir tomonga yo‘nalgan (har xil qutblari bilan) ulangan:

$$Ir_1 + Ir_2 = \varepsilon_2 + \varepsilon_1 \rightarrow I = \frac{\varepsilon_2 + \varepsilon_1}{r_1 + r_2} \qquad (1)$$

B va A nuqtalar orasidagi potentsiallar farqi:

Zanjirning ε_1 E.Yu.K va r_1 qarshilik ishtirok etgan qismdagi tashqi kuchlanish

(Manba razryadlanmoqda ya’ni tok bermoqda U kuchlanishli)

$$\varepsilon_1 = U + Ir_1; U = \varepsilon_1 - Ir_1 = \varepsilon_1 - \frac{\varepsilon_2 + \varepsilon_1}{r_1 + r_2} \cdot r_1 = \frac{\varepsilon_1 r_2 - \varepsilon_2 r_1}{r_1 + r_2}$$

Natijalarni o‘rniga keltirib qo‘ysak

$$U = \frac{\varepsilon_1 r_2 - \varepsilon_2 r_1}{r_1 + r_2} = -0{,}1V$$

Potensiallar farqi nolga teng bo‘lish sharti

$$U = 0 \rightarrow \varepsilon_1 r_2 = \varepsilon_2 r$$

17. E.Yu.K. lari $\varepsilon_1 = \varepsilon_2 = 2V$ dan va ichki karshiliklari $r_1 = 0{,}4\Omega$ va $r_2 = 0{,}2\Omega$ bo‘lgan ikkita tok manbai ketma-ket ulangan. Tashqi qarshilik qanday bo‘lganda manbalardan birining klemmalaridagi kuchlanish nolga teng bo‘ladi?



Zanjirdagi umumiy tok quyidagicha topiladi

$$I = \frac{\varepsilon_{Um}}{R_{Um}+r_{Um}} = \frac{\varepsilon_1+\varepsilon_2}{R+r_1+r_2} \qquad (1)$$

Har bir manba klemalaridagi kuchlanish quyidagiga teng

$$U_1 = \varepsilon_1 - Ir_1 \quad \text{va} \quad U_2 = \varepsilon_2 - Ir_2 \qquad (2)$$

(2) formuladan masala shartiga binoan U_1 ni nolga tenglashtiramiz (sababi manbalarning E.Yu.K teng birinchi manbaning ichki qarshiligi katta undan tok chiqmasligi mumkin ya'ni E.Yu.K chi uning ichki kuchlanishiga sarf bo'ladi).

I-yo'l Rasmdan ko'rinib turibdiki manbalar beradigan kuchlanishlar $U=I\cdot R$ tashqi kuchlanishga sarf bo'ladi.

$$U_1 = \varepsilon_1 - Ir_1 = 0 \rightarrow I = \frac{\varepsilon_1}{r_1} = 5A$$

$$U_1 + U_2 = I \cdot R \rightarrow 0 + \varepsilon_2 - Ir_2 = IRR = \frac{\varepsilon_2 - Ir_2}{I} = 0{,}2\Omega$$

II-yo'l

$U_1 = \varepsilon_1 - Ir_1 = 0 \rightarrow I = \frac{\varepsilon_1}{r_1} = 5A$ chiqqan natijani (1) formulaga etib qo'yamiz

$$\frac{\varepsilon_1}{r_1} = \frac{\varepsilon_1 + \varepsilon_2}{R + r_1 + r_2} \rightarrow R = \frac{\varepsilon_2 r_1 - \varepsilon_1 r_2}{\varepsilon_1} = 0{,}2\Omega$$

18. Agar rasmda ko'rsatilga sxemada r_1 elementning klemmalaridagi potensiallar farqi nolga teng bo'lsa, uning ichki qarshiligi qanday. Sxemadagi $R_1 = 3\Omega$, $R_2 = 6\Omega$, $r_2 = 0{,}4\Omega$. Elementlarning E.Yu.K lari bir xil.



Umumiy zanjirdagi tok

$$I = \frac{2\varepsilon}{R+r_1+r_2} \qquad (1)$$

Tashqi zanjirdagi umumiy qarshiligi

$$R = \frac{R_1 R_2}{R_1 + R_2} \qquad (2)$$

(1) va (2) formulalarni umumlashtirsak

$$I = \frac{2\varepsilon}{\frac{R_1 R_2}{R_1 + R_2} + r_1 + r_2} = \frac{2\varepsilon(R_1 + R_2)}{R_1 R_2 + (R_1 + R_2)(r_1 + r_2)} \quad (3)$$

Masala shartiga ko‘ra birinchi element klemmalaridagi kuchlanish

$$U = \varepsilon - Ir_1 = 0 \to I = \frac{\varepsilon}{r_1}$$

chiqqan natijani (3) formulaga etib qo‘yamiz

$$\frac{\varepsilon}{r_1} = \frac{2\varepsilon(R_1 + R_2)}{R_1 R_2 + (R_1 + R_2)(r_1 + r_2)} \Rightarrow r_1 = \frac{R_1 R_2 + r_2(R_1 + R_2)}{R_1 + R_2} = 2{,}4\Omega$$

19. Rasmdagi sxemada R_1, R_2, R_3, r_1, r_2 qarshiliklar qanday munosabatda bo‘lganda, elementlardan birining klemmalaridagi potensiallar farqi nolga teng bo‘ladi. Manbalarbibg E.Yu.K. lari bir xil.



Umumiy zanjirdagi tok

$$I = \frac{2\varepsilon}{R + r_1 + r_2} \qquad (1)$$

R tashqi zanjirdagi umumiy qarshiligi

$$R = \frac{R_1 R_2 R_3}{R_2 R_3 + R_1 R_3 + R_1 R_2} \qquad (2)$$

Masala shartiga ko‘ra elementlardan birining klemmalaridagi kuchlanish nolga teng bo‘lishi kerak

$$U_1 = \varepsilon - Ir_1 = 0 \to I = \frac{\varepsilon}{r_1}; U_2 = \varepsilon - Ir_2 = 0 \to I = \frac{\varepsilon}{r_2}$$

chiqqan natijani (1) formulaga etib qo‘yamiz

$$\frac{\varepsilon}{r_1} = \frac{2\varepsilon}{R + r_1 + r_2} \Rightarrow R = r_1 - r_2; \frac{\varepsilon}{r_2} = \frac{2\varepsilon}{R + r_1 + r_2} \Rightarrow R = r_2 - r_1$$

Qaysi birining ichki qarshiligi katta bo‘lsa o‘sha manbaning klemmalaridagi potensiallar farqi nolga teng bo‘ladi.

20. Rasmda tasvirlangan sxema bo‘yicha generatorlarning klemmalaridagi U_1 va U_2 potensiallar farqini aniqlang. Generatorlarning E.Yu.K lari birday va $\varepsilon = 6V$ga teng, ularning ichki qarshiliklari $r_1 = 0{,}5\Omega$ va $r_2 = 0{,}38\Omega$. Tashqi zanjir qarshiliklari $R_1 = 2\Omega, R_2 = 4\Omega$ va $R_3 = 7\Omega$.



Umumiy zanjirdagi tok

$$I = \frac{2\varepsilon}{R+r_1+r_2} \qquad (1)$$

R tashqi zanjirdagi umumiy qarshiligi

$$R = \frac{R_1R_2R_3}{R_2R_3+R_1R_3+R_1R_2} \qquad (2)$$

(2) formuladan chiqqan natijani (1) formulaga eltib qo‘yamiz

$$I = \frac{2\varepsilon}{\frac{R_1R_2R_3}{R_2R_3+R_1R_3+R_1R_2}+r_1+r_2} = \frac{2\varepsilon(R_2R_3+R_1R_3+R_1R_2)}{R_1R_2R_3+(r_1+r_2)(R_2R_3+R_1R_3+R_1R_2)} \qquad (3)$$

Birinchi va ikkinchi generatorlardagi kuchlanish tushishlari:

$$U_1 = \varepsilon - Ir_1 = \frac{\varepsilon[R_1R_2R_3 + (r_2 - r_1)(R_2R_3 + R_1R_3 + R_1R_2)]}{R_1R_2R_3 + (r_1 + r_2)(R_2R_3 + R_1R_3 + R_1R_2)} = 3V$$

$$U_2 = \varepsilon - Ir_2 = \frac{\varepsilon[R_1R_2R_3 + (r_1 - r_2)(R_2R_3 + R_1R_3 + R_1R_2)]}{R_1R_2R_3 + (r_1 + r_2)(R_2R_3 + R_1R_3 + R_1R_2)} = 3{,}72V$$

21. E.Yu.K lari $\varepsilon_1 = 2{,}2V, \varepsilon_2 = 1{,}1V, \varepsilon_3 = 0{,}9V$ ichki qarshiliklari mos ravishda $r_1 = 0{,}2\Omega, r_2 = 0{,}4\Omega, r_3 = 0{,}5\Omega$ bo‘lgan uchta gal’vanik element zanjirga ketma-ket ulangan. Tashqi zanjir qarshiligi $R = 1\Omega$. Har bir element klemmalaridagi kuchlanishni aniqlang.

Butun zanjir uchun Om qonuniga ko‘ra undagi tok

$$I = \frac{\varepsilon}{R+r} \qquad (1)$$

Bu yerda ε va r quyidagiga teng

$$\varepsilon = \varepsilon_1 + \varepsilon_2 + \varepsilon_3 \text{ va } r = r_1 + r_2 + r_3 \qquad (2)$$

(2) formuladan chiqqan natijalarni (1) formulaga etib qo‘yamiz

$$I = \frac{\varepsilon_1+\varepsilon_2+\varepsilon_3}{R+r_1+r_2+r_3} \qquad (3)$$

Har bir elementdagi kuchlanish E.Yu.K va elementning ichki qarshiligidagi kuchlanish tushishi orasidagi farqqa teng:

$$U_1 = \varepsilon_1 - Ir_1 = \frac{\varepsilon_1(R + r_2 + r_3) - (\varepsilon_2 + \varepsilon_3)r_1}{R + r_1 + r_2 + r_3} = 1{,}8V$$

$$U_2 = \varepsilon_2 - Ir_2 = \frac{\varepsilon_2(R + r_1 + r_3) - (\varepsilon_1 + \varepsilon_3)r_2}{R + r_1 + r_2 + r_3} = 0{,}3V$$

$$U_3 = \varepsilon_3 - Ir_3 = \frac{\varepsilon_3(R + r_1 + r_2) - (\varepsilon_1 + \varepsilon_2)r_3}{R + r_1 + r_2 + r_3} = -0{,}1V$$

Batareya klemmalaridagi kuchlanish tashqi zanjirdagi kuchlanish tushishiga teng: $U = U_1 + U_2 + U_3 = 2V$ uchinchi element klemmalaridagi kuchlanish manfiy bo‘lib chiqdi, chunki tok zanjirdagi hamma qarshilik va yig‘indi E.Yu.K ga bog‘liq, r_3 qarshilikdagi kuchlanish tushishi esa ε_3 ga qaraganda katta.

22. E.Yu.K. lari $\varepsilon = 1{,}25V$dan, ichki karshiliklari $r = 0{,}1\Omega$ dan bo‘lgan ketma-ket ulangan to‘rtta elementdan iborat batareya parallel ulangan $R_1 = 50\Omega, R_2 = 200\Omega$ qarshilikli ikki o‘tkazgichni tok bilan ta'minlaydi. Batareya klemmalaridagi kuchlanishni aniqlang.

Ushbu masalani yechish uchun quyidagi sxemani chizamiz



Butun zanjir uchun Om qonuniga ko‘ra undagi tok

$$I = \frac{\varepsilon_{Um}}{R_{Um} + r_{Um}} \qquad (1)$$

Bu yerda ε_{Um}, R_{Um} va r_{Um} quyidagiga teng $\varepsilon_{Um} = \varepsilon + \varepsilon + \varepsilon + \varepsilon = 4\varepsilon$, $r_{Um} = r + r + r + r = 4r$, $R_{Um} = \frac{R_1 R_2}{R_1 + R_2}$ (2)

(2) formuladan chiqqan natijalarni (1) formulaga etib qo‘yamiz

$$I = \frac{4\varepsilon}{\frac{R_1 R_2}{R_1 + R_2} + 4r} = \frac{4\varepsilon(R_1 + R_2)}{R_1 R_2 + 4r(R_1 + R_2)} \qquad (3)$$

Har bir elementdagi kuchlanish E.Yu.K va elementning ichki qarshiligidagi kuchlanish tushishi orasidagi farqqa teng:

$$U_1 = U_2 = U_3 = U_4 = \varepsilon - Ir = \varepsilon - \frac{4\varepsilon(R_1 + R_2)}{R_1 R_2 + 4r(R_1 + R_2)} \cdot r =$$

$$= \frac{\varepsilon R_1 R_2}{R_1 R_2 + 4r(R_1 + R_2)}$$

$$U = U_1 + U_2 + U_3 + U_4 = \frac{4\varepsilon R_1 R_2}{R_1 R_2 + 4r(R_1 + R_2)} = 4{,}95V$$

23. Rasmda tasvirlangan sxemaning E.Yu.K lari $\varepsilon_1 = 1{,}25V$, $\varepsilon_2 = 1{,}5V$, ichki qarshiliklari birday va $r = 0{,}4\Omega$ga teng bo‘lgan ikki element parallel ulangan. Tashqi zanjirning qarshiligi $R = 10\Omega$ga teng. Tashqi zanjirdan va har bir elementdan o‘tuvchi toklarni aniqlang.



Kirxgofning birinchi qoidasini qo‘llab quyidagi tenglamani yozamiz

$$I = I_1 + I_2 \qquad (1)$$

Kirxgofning ikkinchi qoidasidan foydalanib berk konturlar uchun tegishli tenglama tuzamiz

$$I_1 r + IR = \varepsilon_1, I_2 r + IR = \varepsilon_2 \qquad (2)$$

1-tenglamadan I ni 2-tenglamaga keltirib qo‘ysak

$$\begin{cases} I_1 r + (I_1 + I_2)R = \varepsilon_1 \\ I_2 r + (I_1 + I_2)R = \varepsilon_2 \end{cases} \rightarrow \begin{cases} I_1 r + I_1 R + I_2 R = \varepsilon_1 \\ I_2 r + I_1 R + I_2 R = \varepsilon_2 \end{cases}$$

$$\begin{cases} 0{,}4I_1 + 10I_1 + 10I_2 = 1{,}25 \\ 0{,}4I_2 + 10I_1 + 10I_2 = 1{,}5 \end{cases} \rightarrow \begin{cases} 10{,}4I_1 + 10I_2 = 1{,}25 \\ 10{,}4I_2 + 10I_1 = 1{,}5 \end{cases}$$

$$I_1 = -0{,}25A I_2 = 0{,}35A I = I_1 + I_2 = 0{,}1A$$

I_1 tok manfiy chiqdi demak I_1 tok yo‘nalishi biz tanlagan yo‘nalishga qarama-qarshi harakatlanar ekan.

24. Rasmda tasvirlangan $R = 10\Omega$ qarshilikdan o‘tuvchi tokni aniqlang. Tok manbalarining E.Yu.K lari $\varepsilon_1 = 6V, \varepsilon_2 = 5V$, ichki qarshiliklari $r_1 = 1\Omega, r_2 = 2\Omega$.



1-rasm.



1,1-rasm.

1-rasmdagi zanjirda toklarni joylashtiramiz(1,1-rasm). Tok va uning yo‘nalishlarini yuqoridagi rasmda ko‘rsatilgandek belgilab, Kirxgof tenglamasini tuzamiz, *b* tugun uchun

$$I = I_1 + I_2$$

abef kontur uchun(soat strelkasi yo‘nalishi bo‘yicha aylaniladi)

$$I_1 r_1 + IR = \varepsilon_1$$

Bcde kontur uchun (soat strelkasiga teskari yo‘nalishda aylanadi)

$$I_2 r_2 + IR = \varepsilon_2$$

Yuqoridagi tenglamalarda quyidagi natija kelib chiqadi

$$I = \frac{\varepsilon_1 r_2 + \varepsilon_2 r_1}{R(r_1 + r_2) + r_1 r_2} = 0{,}53A$$

25. Rasmda tasvirlangan sxemada R_1, R_2 qarshiliklar hamda manbalarning E.Yu.K lari $\varepsilon_1, \varepsilon_2$ ma'lum . Uchichi elementning E.Yu.K qanday bo'lganda R qarshilikdan tok o'tmaydi?



1-rasm.



1,1-rasm.

1-rasmdagi zanjirda toklarni joylashtiramiz (1,1-rasm).R_1, R_2va R qarshiliklar orqali o'tuvchi I_1, I_2, I toklar yuqoridagi rasmda ko'rsatilgan. U holda $I_1 + I_2 = I$ a va b nuqtalar orasidagi kuchlanish tushishi $\varepsilon_1 + I_1 R_1 = \varepsilon - IR = \varepsilon_2 + I_2 R_2$ bo'ladi. Agar masala shartiga ko'ra *I=0* bo'lsa, u holda $I_1 = -I_2$,
$\varepsilon_1 + I_1 R_1 = \varepsilon = \varepsilon_2 - I_1 R_2$. Bundan I_1ni yo'qotsak, quyidagini olamiz:

$$\varepsilon = \frac{\varepsilon_1 R_2 + \varepsilon_2 R_1}{R_1 + R_2}$$

26. Ketma-ket ulangan uchta bir xil elementdan tuzilgan zanjir qisqa tutashtirilgan. Har bir elementning E.Yu.K $\mathcal{E}$ ga va ichki qarshiligi r ga teng. Elementlardan birining qutblariga ulangan vol'tmetr qanday kuchlanishni ko'rsatadi? Ulovchi similar qarshiligini xisobga olmang.



1-rasm.



1,1-rasm.

1-rasmdagi zanjirda toklarni joylashtiramiz(1,1-rasm). Xuddi o'sha sxemani vol'tmetrsiz qaraymiz. Butun zanjir uchun Om qonunidan undagi tokni topamiz: $I = \frac{3\varepsilon}{3r} = \frac{\varepsilon}{r}$. Zanjirning bir qismi uchun Om qonunidan zanjirning *a* va *b* nuqtalar orasidagi qismi uchun $U_{ab} = \varepsilon - Ir$ tok kuchining o'rniga yuqoridagi natijani keltirib qo'ysak $U_{ab} = \varepsilon - Ir = \varepsilon - \frac{\varepsilon}{r} \cdot r = 0$. Potensiallar farqi nolga teng bo'lgan ikki nuqtaga har qanday vol'tmetrning

ulanishi zanjirda hech nimani o‘zgartira olmaydi. Shuning uchun vol’tmetr nol kuchlanishni ko‘rsatadi.

27. Rasmda sxemasi berilgan elektr zanjirga uchta rezistor: $R_1 = 100\Omega, R_2 = 50\Omega,$ $R_3 = 20\Omega$; E.Yu.K $\varepsilon_1 = 2V$ va ε_2 bo‘lgan gal’vanik elementlar ulangan. Ampermetr 50 mA tok kuchini ko‘rsatadi. Rezistorlardagi tok kuchini va ikkinchi elementning E.Yu.K ni aniqlang. Ampermetr va elementning ichki qarshiligini hisobga olmang.



Tokning yo‘nalishini ixtiyoriy tanlaymiz va uni zanjir sxemasida ko‘rsatamiz.Tugunga keluvchi va undan ketuvchi tok kuchlarining algebraik yig‘indisi nolga tengligini hisobga olib (Kirxgofning birinchi qoidasidan)

$$I_1 - I_2 - I_3 = 0 \Rightarrow I_3 = I_1 - I_2 \qquad (1)$$

Ampermetr ko‘rsatayotgan tok kuchi: $I_A = I_3$.Konturni soat strelkasi bo‘yicha aylanib o‘tishini kelishib olamiz va buni sxemada ko‘rsatamiz. Berk konturda kuchlanish tushishining algebraic yig‘indisi E.Yu.K ning algebraic yig‘indisiga tengligidan (Kirxgofning ikkinchi qoidasi) quyidagilarni yozamiz:

ABCDFA kontur uchun:

$$-I_1R_1 - I_2R_2 = -\varepsilon_1 \Rightarrow I_1R_1 + I_2R_2 = \varepsilon_1 \qquad (2)$$

AFMNA kontur uchun:

$$I_1R_1 + I_3R_3 = \varepsilon_2 \qquad (3)$$

(1) tenglamadan I_1ni aniqlab, (2) tenglamaga qo‘yamiz:

$I_1 = I_2 + I_3; (I_3 + I_2)R_1 + I_2R_2 = \varepsilon_2$ bundan $I_2 = \frac{\varepsilon_1 - I_3R_1}{R_1 + R_2} = -0{,}02A$

Minus ishora tok kuchi I_2 sxemada shartli ko‘rsatilgan yo‘nalishga qarama-qarshi ekanini bildiradi. Tok kuchi $I_1 = I_2 + I_3 = -0{,}02 + 0{,}05 = 0{,}03A$$I_1$ ni (3) tenglamaga qo‘yib, $\varepsilon_2$ni topamiz: $\varepsilon_2 = 4V$

28. Zanjirga rasmdagidek ulangan $R = 2\Omega$qarshilikdan o‘tuvchi tok kuchini aniqlang. Berilganlar $\varepsilon_1 = 2V, r_1 = 0{,}5\Omega, \varepsilon_2 = 4V, r_2 = 0{,}7\Omega.$



1-rasm.



1,1-rasm.

1-rasmdagi zanjirda toklarni joylashtiramiz (1,1-rasm).
Tok va uning yo‘nalishlarini yuqoridagi rasmda ko‘rsatilgandek belgilab.
Kirxgof 1-qoidasidan quyidagi tenglamani tuzamiz

$$I = I_1 + I_2$$

yuqoridagi kontur uchun Kirxgofning 2-qoidasini qo‘llaymiz

$$I_1 r_1 + IR = \varepsilon_1$$

Pastki kontur uchun Kirxgofning 2-qoidasini qo‘llaymiz

$$I_2 r_2 + IR = \varepsilon_2$$

Yuqoridagi tenglamalarda quyidagi natija kelib chiqadi

$$I = \frac{\varepsilon_1 r_2 + \varepsilon_2 r_1}{R(r_1 + r_2) + r_1 r_2} = 1{,}24A$$

29. Rasmda tasvirlangan elektr zanjiri E.Yu.K lari $\varepsilon_1 = 1{,}6V$ va $\varepsilon_2 = 1{,}3V$ ichki qarshiligi mos ravishda $r_1 = 1\Omega$ va $r_2 = 0{,}5\Omega$ bo‘lgan ikki element rasmdagidek ulangan. Hamma tarmoqlardagi toklarni hisoblang. Ulovchi simlarning qarshiligini hisobga olmang.



I-Usul
Kirxgof qonunidan foydalanib va toklarning shartli tanlangan yo‘nalishini hisobga olgan holda zanjirning turli qismlari uchun tenglamalar tuzamiz.
A tugun uchun:

$$I_1 + I_2 = I_3$$

KCDM yopiq kontur uchun:

$$\varepsilon_1 - \varepsilon_2 = I_1 r_1 - I_2 r_2$$

KABM yopiq kontur uchun:

$$\varepsilon_1 = I_1 r_1 + I_3 R$$

Oxirgi tenglamadan I_3ni yo‘qotib va tenglamalar sistemasini I_1va I_2ga nisbatan echib, quyidagini olamiz:

$$I_1 = \frac{\varepsilon_1 r_2 + (\varepsilon_1 - \varepsilon_2)R}{r_1 R + r_1 r_2 + R r_2} = 0{,}7A, I_2 = \frac{I_1 r_1 + \varepsilon_2 - \varepsilon_1}{r_2} = 0{,}8A$$

$$I_3 = 1{,}5A$$

II-Usul

Masalani tugunlar potensiali usulidan foydalanib echamiz. A tugun potensialini $\varphi_A$deb belgilab, Btugun potensialini nolga teng deb qabul qilamiz. U holda $\varphi_A - \varphi_B = U_{AB}$bo‘ladi.E.Yu.K bo‘lgan va E.Yu.K bo‘lmagan zanjirning bir qismi uchun Om qonuni bo‘yicha toklar ifodasini yozamiz.

$$I_1 = \frac{\varepsilon_1 - U_{AB}}{r_1}, I_2 = \frac{\varepsilon_2 - U_{AB}}{r_2}, I_3 = \frac{U_{AB}}{R}$$

Bundan $I_1 + I_2 = I_3$ bo‘lgani uchun

$$\frac{\varepsilon_1 - U_{AB}}{r_1} + \frac{\varepsilon_2 - U_{AB}}{r_2} = \frac{U_{AB}}{R}$$

ni olamiz

Kattaliklarni son qiymatini qo‘yib, U_{AB}ni topamiz $U_{AB} = 0{,}9V$

Endi toklarni hisoblaymiz:

$$I_1 = 0{,}7A I_2 = 0{,}8A I_3 = 1{,}5A$$

30. Rasmda tasvirlangan elektr zanjiri E.Yu.K $\varepsilon = 12V$ va ichki qarshiligi $r = 1Om$li elektr energiya manbaidan $R_1 = 3Om$ va $R_2 = 6Om$ li ikki qarshilik hamda $C_1 = 1\mu F$ va $C_2 = 2\mu F$ sig‘imli ikki kondensatordan tuzilgan. Zanjirning a va b nuqtalari orasidagi potentsiallar farqini va har bir kondensatorda to‘plangan zaryad miqdorini aniqlang.



A nuqtaning potensiali nolga teng, *a* va *b* nuqtalarning potensiallarini $\varphi_a$va $\varphi_b$ga teng deb olishni shartlashib olamiz; u holda $\Delta\varphi = \varphi_a - \varphi_b$. Masala $\varphi_a$va $\varphi_b$ni topishga keltiriladi.

Zanjirdagi tokni topamiz:

$$I = \frac{\varepsilon}{R_1 + R_2 + r}$$

b nuqtaning potensiali noldan R_1 qarshilikdagi kuchlanish tushuvi qadar yuqori bo‘ladi

$$\varphi_b = IR_1 = \frac{\varepsilon R_1}{R_1 + R_2 + r}$$

AB qismdagi kuchlanish tushuvi:

$$U_{AB} = \varepsilon - Ir = \frac{\varepsilon(R_1 + R_2)}{R_1 + R_2 + r}$$

Ketma-ket ulangan ikki kondensatordagi potensiallar farqi ham U_{AB} ga teng. Kondensatorlarning ulanish usulini hisobga olib, ulardagi zaryad birday va

$$q = C_{Um} \cdot U_{AB} = \frac{C_1 \cdot C_2}{C_1 + C_2} \cdot U_{AB} = \frac{\varepsilon(R_1 + R_2)}{R_1 + R_2 + r} \cdot \frac{C_1 \cdot C_2}{C_1 + C_2} = 7{,}2 \cdot 10^{-6} Kl$$

ga tengligini ko‘ramiz.

Birinchi kondensator zaryadi va sig‘imini bilgan holda uning qoplamalaridagi potensiallar farqini aniqlash mumkin, demak, φ_a ni ham aniqlash mumkin

$\Delta\varphi$ ning ifodasini yozamiz va uning son qiymatlarini topamiz:

$$\Delta\varphi = \frac{\varepsilon(R_1 + R_2)C_2}{(R_1 + R_2 + r)(C_1 + C_2)} - \frac{\varepsilon R_1}{R_1 + R_2 + r}$$
$$= \varepsilon \frac{R_2 C_2 - R_1 C_1}{(R_1 + R_2 + r)(C_1 + C_2)} = 3{,}6V$$

Kondensatordagi elektr zaryadni topamiz:

31. Rasmda tasvirlangan batareyaning umumiy E.Yu.K ni va umumiy qarshiligini toping. $\varepsilon_1 = 10V, r_1 = 1\Omega, \varepsilon_2 = 8V, r_2 = 2\Omega, \varepsilon_3 = 15V, r_3 = 3\Omega, R_1 = 5\Omega,$

$$R_2 = 10\Omega.$$



Batareyalar ketme-ket ulanganligi uchun umumiy E.Yu.K va umumiy qarshiligi quyidagiga teng.

$$\varepsilon = \varepsilon_1 + \varepsilon_2 - \varepsilon_3 = 3V, R = r_1 + r_2 + r_3 + R_1 + R_2 = 21\Omega$$

Uchinchi manba birinchi va ikkinchi manbalarga teskari ulanganligi uchun manfiy ishora bilan olindi.

32. Rasmda tasvirlangan sxemaning umumiy E.Yu.K va Qarshiligini hisoblang.

$$\varepsilon_1 = 12V, r_1 = 1\Omega, \varepsilon_2 = 30V, r_2 = 3\Omega, R = 5\Omega.$$



$$R_1 = r_1 + R = 6\Omega, R_2 = r_2 = 3\Omega, R_{Um} = \frac{R_1 \cdot R_2}{R_1 + R_2} = 2\Omega.$$

$$\frac{\varepsilon_{Um}}{R_{Um}} = \frac{\varepsilon_1}{R_1} + \frac{\varepsilon_2}{R_2}, \frac{\varepsilon_{Um}}{2} = \frac{12}{6} + \frac{30}{3}, \varepsilon_{Um} = 24V$$

32. Rasmdagi sxemada $\varepsilon = 22V, r = 0, R_1 = 1\Omega,$ qolgan qarshiliklarning har biri
2 Ω dan. Zanjirdagi toklarni toping.



1-rasm.



1,1-rasm.

1-rasmdagi zanjirda toklarni joylashtiramiz (1,1-rasm). Yuqoridagi rasmdagidek toklarni joylashtirib chiqamiz. B nuqtadagi potensialni nolga ($\varphi_B = 0$) teng desak A nuqtadagi potensial ($r=0$) $\varphi_A = \varepsilon = 22V$ga teng bo‘ladi. Endi toklarni quyidagicha topib chiqamiz.

$$I_1 = \frac{\varphi_A - \varphi_C}{R_1}, I_2 = \frac{\varphi_C - \varphi_B}{R_2} = \frac{\varphi_C}{R_2}, I_3 = \frac{\varphi_A - \varphi_D}{R_3},$$

$$I_4 = \frac{\phi_D - \phi_B}{R_4} = \frac{\phi_D}{R_4}, I_5 = \frac{\phi_C - \phi_D}{R_5} \qquad (1)$$

Kirxgofning birinchi qoidasiga ko‘ra quyidagi tenglamani tuzamiz

$$I = I_1 + I_3 I_1 = I_2 + I_5 I_4 = I_3 + I_5 \qquad (2)$$

(1) va (2) tenglamalarni soddalashtirsak

$$\begin{cases} \frac{22 - \varphi_C}{1} = \frac{\varphi_C}{2} + \frac{\varphi_C - \varphi_D}{2} \\ \frac{22 - \varphi_D}{2} + \frac{\varphi_C - \varphi_D}{2} = \frac{\varphi_D}{2} \end{cases} \qquad (3)$$

(3) tenglamani yechsak $\varphi_C = 14V$, $\varphi_D = 12V$ natijaga erishamiz ularni yuqoridagi (1) formulaga etib qo‘ysak $I = 13A,\ I_1 = 8A,\ I_2 = 7A,\ I_3 = 5A,\ I_4 = 6A,\ I_5 = 1A.$

33. Rasmda tasvirlangan sxemada $U = 14V$, barcha qarshilik 1Ω dan. Zanjirdagi toklarni toping.



Yuqoridagi rasmdagidek toklarni joylashtirib chiqamiz. C nuqtadagi potensialni nolga ($\varphi_C = 0$)teng desak A nuqtadagi potensial $\varphi_A = U = 14V$ ga teng bo‘ladi.

Endi toklarni quyidagicha topib chiqamiz.

$$I_1 = \frac{14-\varphi_B}{1},\ I_2 = \frac{\varphi_B-\varphi_C}{1} = \frac{\varphi_B}{1},\ I_3 = \frac{\varphi_B-\varphi_D}{1},\ I_4 = \frac{\varphi_D-\varphi_C}{1} = \frac{\varphi_D}{1} \qquad (1)$$

Kirxgofning birinchi qoidasiga ko‘ra quyidagi tenglamani tuzamiz

$$I = I_1 + I_1; I_1 = I_2 + I_3 I_4 = I_3 + I_3 \qquad (2)$$

(1) va (2) tenglamalarni soddalashtirsak

$$14-\varphi_B = \varphi_B + (\varphi_B - \varphi_D); \qquad 2(\varphi_B - \varphi_D) = \varphi_D \qquad (3)$$

(3) tenglamani yechsak $\varphi_B = 6V$, $\varphi_D = 4V$ natijaga erishamiz ularni yuqoridagi (1) formulaga etib qo‘ysak $I = 16A, I_1 = 8A, I_2 = 6A, I_3 = 2A, I_4 = 4A,$

34. Rasmda ko‘rsatilga sxemada berilganlaridan foydalanib barcha toklarni toping.Ichki qarshilikni hisobga olmang. $\varepsilon_1 = 65V, \varepsilon_2 = 39V, R_1 = 20\Omega,$ $R_2 = R_3 = R_4 = R_5 = 10\Omega.$



Yuqoridagi rasmdagidek toklarni joylashtirib chiqamiz. C nuqtadagi potensialni nolga ($\varphi_C = 0$)teng desak A nuqtadagi potensial $\varphi_A = \varepsilon_2 = 39V$ ga teng bo‘ladi.

Endi toklarni quyidagicha topib chiqamiz.

$$I_1 = \frac{39-\varphi_B}{20},\ I_2 = \frac{\varphi_B-\varphi_D}{10},\ I_3 = \frac{\varphi_B-\varphi_C}{10} = \frac{\varphi_B}{10},$$
$$I_4 = \frac{\varphi_C-\varphi_D}{10} = -\frac{\varphi_D}{10}.\quad I_5 = \frac{65+\varphi_D-39}{10} \qquad (1)$$

Kirxgofning birinchi qoidasiga ko‘ra quyidagi tenglamani tuzamiz

$$I_1 = I_2 + I_3 \qquad I_2 + I_4 = I_5 \qquad (2)$$

(1) va (2) tenglamalarni soddalashtirsak

$$\begin{cases} \frac{39-\varphi_B}{20} = \frac{\varphi_B-\varphi_D}{10} + \frac{\varphi_B}{10} \\ \frac{\varphi_B-\varphi_D}{10} - \frac{\varphi_D}{10} = \frac{26+\varphi_D}{10} \end{cases} \qquad (3)$$

(3) tenglamani yechsak $\varphi_B = 5V$, $\varphi_D = -7V$ natijaga erishamiz ularni yuqoridagi (1) formulaga etib qo‘ysak $I_1 = 1{,}7A, I_2 = 1{,}2A, I_3 = 0{,}5A, I_4 = 0{,}7A, I_5 = 1{,}9A$

E_2 manba orqali o‘tadigan tok kuchi $I_{E_2} = I_4 - I_3 = 0{,}2A$ (A dan C ga yo‘nalgan).

E_1 manba orqali o‘tadigan tok kuchi $I_{E_1} = I_5 = I_{E_2} + I_1 = 1{,}9A$ (I_5 yo‘nalishida).

35. Rasmda tasvirlangan sxemada E.Yu.K lari $\varepsilon_1 = 10V, \varepsilon_2 = 30V$, barcha qarshiliklar $R_1 = R_2 = R_3 = R_4 = R_5 = R_6 = R_7 = 1\Omega$ dan bo‘lsa barcha toklarni toping. Manbaning ichki qarshiligini hisobga olmang



Yuqoridagi rasmdagidek toklarni joylashtirib chiqamiz. B nuqtadagi potensialni nolga ($\varphi_B = 0$) teng desak A nuqtadagi potensial $\varphi_A = \varepsilon_1 = 10V$ ga teng bo‘ladi. Qolgan potensiallarni quyidagicha belgilaymiz. $\varphi_C = x,\ \varphi_D = y,\ \varphi_K = \varphi_L = z.$

Endi toklarni quyidagicha topib chiqamiz.

$$I_1 = \frac{\varepsilon_1 + \varepsilon_2 - \varphi_C}{R_1} = \frac{30+10-x}{1} = 30+10-x, \quad I_2 = \frac{\varphi_C - \varphi_D}{R_2} = \frac{x-y}{1} = x-y,$$

$$I_3 = \frac{\varphi_D - \varphi_B}{R_3} = \frac{y}{1} = y, \quad I_4 = \frac{\varphi_C - \varphi_K}{R_4} = \frac{x-z}{1} = x-z. \quad I_5 = \frac{\varphi_D - \varphi_L}{R_5} = \frac{y-z}{1} = y-z$$

$$I_6 = \frac{\varphi_A - \varphi_K}{R_6} = \frac{10-z}{1} = 10-z, \quad I_7 = \frac{\varphi_L - \varphi_B}{R_7} = \frac{z-0}{1} = z$$

Kirxgofning birinchi qoidasiga ko‘ra quyidagi tenglamalarni tuzamiz

$$I_1 = I_2 + I_4 \qquad I_3 + I_5 = I_2 \qquad I_4 + I_6 = I_5 + I_7$$

Yuqoridagi tenglamalarni soddalashtirsak.

$$\begin{cases} 40 - x = x - y + x - z \\ x - y = y + y - z \\ x - z + 10 - z = y - z + z \end{cases}$$

Tenglamani yechsak $x = 20V,\ y = 10V,\ z = 10V$ natijaga erishamiz ularni yuqoridagi (1) formulaga etib qo‘ysak $I_1 = 20A,\ I_2 = I_3 = I_4 = I_7 = 10A,\ I_5 = I_6 = 0$ natijalarga ega bo‘lamiz.

E_2 manba orqali o‘tadigan tok kuchi $I_{E_2} = I_1 = 20A$ (A dan C ga yo‘nalgan)

E_1 manba orqali o‘tadigan tok kuchi $I_{E_1} = I_3 + I_7 = 20A$ (B dan A ga yo‘nalgan)

36. a va b rasmlardagi vol’tmetr va ampermetrlar nimani ko‘rsatadi? ε va r berilgan deb faraz qiling. Ulovchi simlarning qarshiligini hisobga olmang.



(a-rasm uchun). Elektr energiya manbalarini parallel ulash deb, manbalarning musbat qutblari bir o‘tkazgichga, manfiy qutblari boshqa o‘tkazgichga ulanishiga aytiladi.

Bunday ulashda bir manbaning toki boshqasi orqali o‘tmaydi. Shuning uchun har bir zaryad bitta manbadan energiya oladi. Bundan parallel ulanganda batareyaning E.Yu.K bitta manbaning E.Yu.K ga teng bo‘lishi kelib chiqadi.

Har bir manba orqali zaryadlarning bir qismi o‘tadi, shuning uchun batareyaning qarshiligi bitta manbaning qarshiligidan ikki marta kichik bo‘ladi, u holda Om qonuni quyidagicha yoziladi:

$$I = \frac{\varepsilon}{R + \frac{r}{2}} \qquad (1)$$

Masalaning shartiga ko‘ra (a rasm) $R = \infty$ bo‘lgani uchun $I = 0$.
Sxemaga ulangan vol’tmetr bitta elementning kuchlanishiga teng kuchlanishni ko‘rsatadi,ya’ni $U = \varepsilon$ (b-rasm uchun) Batareya zanjiridagi tok I ga teng bo‘lsin. Vol’tmetr orqali o‘tuvchi tok

$$I_{Um} = I - I = 0$$

Bo‘ladi. Tok $I = \frac{\varepsilon}{r}$, zanjirning ichki qismdagi kuchlanish tushuvi $U = Ir$, chunki tashqi qism qarshiligi nolga teng, ya’ni vol’tmetr nolni ko‘rsatadi. (a rasmdagi) shartga ko‘ra $U = \varepsilon$, bundan batareya klemmalaridan uzoqlashgan sari potensial ortadi (b-rasm uchun) holda batareya klemmalaridan uzoqlashilgan sari potensial kamayadi, bundan batareya klemmasidan eng katta uzoqlashishi.

37. Rasmda tasvirlangan sxemadagi barcha toklarni toping.

$$\varepsilon_1 = 2V, \varepsilon_2 = 4V, r_1 = r_2 = 2\Omega, R = 9\Omega.$$



Kirxgofning birinchi qoidasini qo‘llab A tugun uchun quyidagi tenglamani yozamiz

$$I = I_1 + I_2 \qquad (1)$$

Kirxgofning ikkinchi qoidasidan foydalanib berk konturlar uchun tegishli tenglama tuzamiz

$$I_1 r_1 + IR = \varepsilon_1, \quad I_2 r_2 + IR = \varepsilon_2 \qquad (2)$$

(1)va (2) tenglamalarni soddalashtirib quyidagi natijalarga erishamiz

$$I_1 = \frac{\varepsilon_1 - IR}{r_1}; \quad I_2 = \frac{\varepsilon_2 - IR}{r_2}; \quad I = \frac{\varepsilon_1 r_2 + \varepsilon_2 r_1}{r_1 \cdot r_2 + R(r_1 + r_2)},$$

$$I = 0{,}3A, \quad I_1 = -0{,}35A, \quad I_2 = 0{,}65A.$$

38. Rasmda ko‘rsatildan sxemadan foydalanib har bir qarshilikdan o‘tuvchi tok kuchini toping.

$\varepsilon_1 = 15V, \varepsilon_2 = 5V,\ \varepsilon_3 = 10V, \varepsilon_4 = 35V,\ R_1 = 2\Omega, R_2 = 5\Omega, R_3 = 10\Omega.$



1-rasm.



1,1-rasm.

1-rasmdagi zanjirda toklarni joylashtiramiz (1,1-rasm). Kirxgofning birinchi qoidasini qo‘llab A tugun uchun quyidagi tenglamani yozamiz

$$I_2 = I_1 + I_3 \qquad \text{(a)}$$

Kirxgofning ikkinchi qoidasidan foydalanib berk konturlar uchun tegishli tenglama tuzamiz

ACB kontur uchun $\varepsilon_1 + \varepsilon_2 = -I_1R_1 - I_2R_2$ (b)

ABD kontur uchun $-\varepsilon_2 + \varepsilon_4 - \varepsilon_3 = I_2R_2 + I_3R_3$ (v)

ACBD kontur uchun $\varepsilon_1 + \varepsilon_4 - \varepsilon_3 = -I_1R_1 + I_3R_3$ (g)

Yuqoridagi formulalardagi minus ishoralar biz tanlab olgan yo‘nalishga teskari ekanligini bildiradi. Endi yuqoridagi formulalardan I_1 va I_3 ni topamiz (*b* va *v* dan):

$$I_1 = \frac{-\varepsilon_1 - \varepsilon_2 - I_2R_2}{R_1};\ I_3 = \frac{-\varepsilon_2 + \varepsilon_4 - \varepsilon_3 - I_2R_2}{R_3};$$

Bu formulalarni (a) formulaga eltib qo‘ysak

$$I_2 = \frac{-(\varepsilon_1 + \varepsilon_2)R_3 + (-\varepsilon_2 + \varepsilon_4 - \varepsilon_3)R_1}{R_1R_2 + R_1R_3 + R_2R_3}$$

Yuqorida topilgan formulalarga masala shartida berilgan kattaliklarni son qiymatini keltirib qo‘ysak quyidagi javoblar kelib chiqadi.

$$I_2 = -2\,A,\quad I_1 = -5\,A,\quad I_3 = 3\,A,$$

Toklarning oldidagi minus ishora biz tanlagan yo‘nalishdan teskari yo‘nalishda oqishidan dalolat beradi.

39. Rasmda tasvirlangan sxemining umumiy E.Yu.K ni va umumiy qarshiligini aniqlang. Har bir manbaning E.Yu.K $\varepsilon = 1{,}8V$, ichki qarshiliklari $r = 0{,}6\Omega$ dan.



Har ikkita manba o‘zaro parallae ulangan bo‘lib uch juft manba ketma-ket ulangan parallel ulashda E.Yu.K umumiysi har birining o‘ziga teng, ketme-ket ulashda esa umumiy E.Yu.K har bir juftning yig‘indisiga teng

$$\varepsilon_{Um} = \varepsilon_{12} + \varepsilon_{34} + \varepsilon_{56} = \varepsilon + \varepsilon + \varepsilon = 3\varepsilon = 5{,}4V$$

Har ikkita manba o‘zaro parallae ulangan bo‘lib uch juft manba ketma-ket ulangan parallel ulashda ichki qarshilik $r_{12} = \dfrac{r_1 \cdot r_2}{r_1 + r_2} = \dfrac{r}{2}$. ketme-ket ulashda esa umumiy ichki qarshilik har bir juftning yig‘indisiga teng

$$r_{Um} = r_{12} + r_{34} + r_{56} = \frac{r}{2} + \frac{r}{2} + \frac{r}{2} = \frac{3r}{2} = 0{,}9\,\Omega$$

40. Rasmda tasvirlangan sxemaning E.Yu.K $\varepsilon = 4V$, har bir qarshiliklari $R = 45\Omega$ dan, manbaning ichki qarshiligi $r = 1\Omega$ bo‘lsa. Vol’tmetr va Ampermetrning ko‘rsatgichini aniqlang. Voltimetrning qarshiligi juda katta, Ampermetrning qarshiligi juda kichik. Ulovchi simlarning qarshiligini hisobga olmang.



Rasmda ko‘rinib turibdiki barcha tashqi qarshiliklar parallel ulangan

$$\frac{1}{R_{Um}} = \frac{1}{R_1} + \frac{1}{R_2} + \frac{1}{R_3} \Rightarrow R_{Um} = 15\Omega$$

To‘liq zanjir uchun Om qonunidan umumiy tokni ya’ni ampermetrdan o‘tadigan tokni topamiz

$$I = \frac{\varepsilon}{R_{Um} + r} = \frac{4}{15+1} = 0{,}25\,A$$

Vol’tmetr uchta qarshilikdagi kuchlanish tushuvini ko‘rsatadi

$$U = IR_{Um} = 0{,}25 \cdot 15 = 3{,}75V$$

41. Rasmda tasvirlangan sxemadan ampermetr va vol’tmetr ko‘rsatishini va har bir qarshilikdan o‘tadigan toklarni aniqlang. Tashqi zanjirdagi qarshiliklar $R_1 = 1\Omega, R_2 = 3\Omega, R_3 = 4\Omega$, manbaning E.Yu.K $\varepsilon = 3{,}3V$ va

ichki qarshiligi $r=0{,}2\Omega$. Vol'metrning qarshiligi juda katta, ampermetrning qarshiligi juda kichik. Ulovchi simlarning qarshiligini hisobga olmang.



1-rasm.



1,1-rasm.

1-rasmdagi zanjirda toklarni joylashtiramiz(1,1-rasm). Yuqoridagi rasmdagidek toklarni joylashtirib chiqamiz. $\varphi_1=0$ teng desak $\varphi_4-\varphi_1=\varphi_4=U=\varepsilon-Ir=3{,}3-0{,}2I$ ga teng bo'ladi.

Endi toklarni quyidagicha topib chiqamiz.

$$I_1=\frac{\varphi_4-\varphi_2}{R_1},\ I_2=\frac{\varphi_4-\varphi_3}{R_2},I_3=\frac{\varphi_3-\varphi_2}{R_3},\ I_4=\frac{\varphi_3-\varphi_1}{R_1},I_5=\frac{\varphi_2-\varphi_1}{R_1} \qquad (1)$$

Endi Kirxgofning birinchi qoidasiga ko'ra quyidagi tenglamani tuzamiz

$$I=I_1+I_2;\ I_2=I_3+I_4;I_1+I_3=I_5 \qquad (2)$$

(1) va (2) tenglamalarni soddalashtirsak quyidagi natijaga erishamiz

$I_1=1{,}5\,A,\ \ I_2=0{,}7\,A,\ \ I_3=-0{,}14\,A,\ I_4=0{,}8\,A,\ \ I_5=1{,}36\,A$

Vol'tmetr ko'rsatgichi $U=\varepsilon-Ir=3{,}3-0{,}2I=2{,}86V$

Ampermetr ko'rsatgichi $I=I_1+I_2=2{,}2\,A$

42. Rasmda tasvirlangan sxemadan Vol'tmetrning ko'rsatgichini aniqlang. $\varepsilon=6V,\ r=2/3\Omega,\ R=2\Omega$.



1-rasm.



1,1-rasm.

1-rasmdagi sxemani quyidagicha soddalashtiramiz(1,1-rasm). Sxemani yanaham soddalashtiramiz ya'ni qarshiliklarni ketma-ket va paralel ulab toklarni joylashtirib chiqamiz



To‘liq zanjir uchun Om qonunidan umumiy tok kuchini topamiz

$$I = \frac{\varepsilon}{R_{Um} + r} = \frac{6}{\frac{4}{3} + \frac{2}{3}} = 3A$$

Kixgofning birinchi qonuni va qarshiliklarni paralelligidan quyidagi tenglamalarni tuzamiz

$$I = I_1 + I_2$$
$$U_{Vol} = U_1 = U_2 \rightarrow I_1 R = I_2 2R \rightarrow I_1 = 2I_2$$

Ushbu tenglamalardan $I_1 = 2\,A,\ I_2 = 1A,\ U_{Vol} = 4V$ natijalarga erishamiz.

43. Rasmda tasvirlangan sxemadan ampermetr va vol’tmetr ko‘rsatishini va har bir qarshilikdan o‘tadigan toklarni aniqlang. Tashqi zanjirdagi qarshiliklar $R_1 = 4\Omega, R_2 = 3\Omega, R_3 = 12\Omega,\ R_4 = 6\Omega$, manbaning E.Yu.K $\varepsilon = 21V$ va ichki qarshiligi $r = 1\Omega$. Vol’metrning qarshiligi juda katta, ampermetrning qarshiligi juda kichik. Ulovchi simlarning qarshiligini hisobga olmang.



1-rasm.



1,1-rasm.

1-rasmdagi Sxemaga quyidagicha o‘zgartiramiz (1,1-rasm). Zanjirning umumiy tashqi qarshiligini topamiz

$$R_{13} = \frac{R_1 \cdot R_3}{R_1 + R_3} = 3\Omega, R_{123} = R_{13} + R_2 = 6\Omega, R_{Um} = \frac{R_{123} \cdot R_4}{R_{123} + R_4} = 3\Omega$$

To‘liq zanjir uchun Om qonunidan umumiy tok kuchini topamiz

$$I = \frac{\varepsilon}{R_{Um} + r} = \frac{21}{3 + 1} = \frac{21}{4} A$$

Kixgofning birinchi qonuni va qarshiliklarni paralelligidan quyidagi tenglamalarni tuzamiz

$$I = I_2 + I_4, I_2 = I_1 + I_3, U_{Vol} = U_4,$$
$$U_1 = U_3 \Rightarrow I_1R_1 = I_3R_3 \Rightarrow I_1 \cdot 4 = I_3 \cdot 12 I_1 = 3I_3$$
$$U_{123} = U_4 \rightarrow I_2R_{123} = I_4R_4 \rightarrow I_2 \cdot 6 = I_4 \cdot 6 I_2 = I_4$$

Yuqoridagi tenglamalarni soddalashtirsak quyidagi natijaga ega bo‘lamiz

$$I_2 = I_4 = \frac{I}{2} = \frac{21}{8}A, I_1 = \frac{3I}{8} = \frac{63}{32}, I_3 = \frac{I}{8} = \frac{21}{32}A$$
$$U_{Vol} = U_4 = I_4R_4 = 15{,}75V, U_{Vol} = \varepsilon - Ir = 15{,}75$$

44. Rasmda tasvirlangan sxemadagi voltmetrning ko‘rsatgichini aniqlang.

$$\varepsilon_1 = 1{,}8V, \varepsilon_2 = 2V, r_1 = 0{,}6\Omega, r_2 = 0{,}4\Omega,$$



$\varepsilon_2 > \varepsilon_1$ bo‘lganligi uchun birinchi manba zaryadlanadi, ikkinchi manba razryadlanadi (zaryadsizlanadi). Zanjirda tarmoqlanish yo‘qligi uchun toklar bir xil bo‘ladi. To‘liq zanjir uchun Om qonunini ikkita hol uchun quyidagicha yozamiz

I-hol razryadlanish uchun $\varepsilon_2 = U + I \cdot r_2$ (1)

II-hol zaryadlanish uchun $U = \varepsilon_1 + I \cdot r_1$ (2)

Bu ikkita formulani soddalashtiramiz

$$\begin{cases} \varepsilon_2 = U + I \cdot r_2 \\ U = \varepsilon_1 + I \cdot r_1 \end{cases} \rightarrow \begin{cases} I \cdot r_2 = \varepsilon_2 - U \\ I \cdot r_1 = U - \varepsilon_1 \end{cases}$$
$$\frac{I \cdot r_2}{I \cdot r_1} = \frac{\varepsilon_2 - U}{U - \varepsilon_1} \rightarrow \frac{r_2}{r_1} = \frac{\varepsilon_2 - U}{U - \varepsilon_1} \rightarrow U = \frac{r_1 \cdot \varepsilon_2 + r_2 \cdot \varepsilon_1}{r_1 + r_2} = 1{,}92V$$

45. Rasmda tasvirlangan sxemadagi har-bir qarshilikdan o‘tadigan tok kuchini toping. $\varepsilon_1 = 10V, \varepsilon_2 = 4V, R_1 = R_4 = 2\Omega, R_2 = R_3 = 4\Omega, r_1 = r_2 = 0$



1-rasm.



1,1-rasm.

1-rasmdagi sxemani quyidagicha o‘zgartirish kiritamiz (1,1-rasm). Kirxgofning birinchi qoidasini qo‘llab A tugun uchun quyidagi tenglamani yozamiz

$$I = I_1 + I_2 = I_3 + I_4 \qquad (1)$$

Kirxgofning ikkinchi qoidasidan foydalanib berk konturlar uchun tegishli tenglama tuzamiz

$$I_1R_1 + IR_{34} = \varepsilon_1, I_2R_2 + IR_{34} = \varepsilon_2 \qquad (2)$$

(1) va (2) tenglamalarni soddalashtirib quyidagi natijalarga erishamiz

$$I_1 = 3A; I_2 = 0; I = 3A,$$

Uchinchi va to‘rtinchi qarshiliklar paralelligidan quyidagi tenglamalarni tuzamiz

$$U_3 = U_4 \rightarrow I_3R_3 = I_4R_4 \rightarrow I_4 = 2I_3$$

Ushbu natijani (1) tenglamaga eltib qo‘ysak tok kuchilarning son qiymati kelib chiqadi

$$I_4 = 2AI_3 = 1A$$

46. Rasmda tasvirlangan sxemaning har bir qarshilikdan o‘tadigan toklarni toping

$$\varepsilon_1 = 2{,}1V, \varepsilon_2 = 1{,}9V, R_1 = 45\Omega, R_2 = R_3 = 10\Omega, r_1 = r_2 = r_3 = 0$$



1-rasm.



1,1-rasm.

1-rasmdagi sxemani quyidagicha o‘zgartirish kiritamiz (1,1-rasm). Kirxgofning birinchi qoidasini qo‘llab quyidagi tenglamani yozamiz

$$I_1 = I_2 + I_3 \qquad (1)$$

Kirxgofning ikkinchi qoidasidan foydalanib berk konturlar uchun tegishli tenglama tuzamiz

$$I_3R_3 + I_1R_1 = \varepsilon_1, I_2R_2 + I_1R_1 = \varepsilon_2 \qquad (2)$$

(1) va (2) tenglamalarni soddalashtirib quyidagi natijalarga erishamiz

$$\begin{cases} I_3R_3 + (I_2 + I_3)R_1 = \varepsilon_1 \\ I_2R_2 + (I_2 + I_3)R_1 = \varepsilon_2 \end{cases} \rightarrow \begin{cases} I_3 \cdot 10 + (I_2 + I_3) \cdot 45 = 2{,}1 \\ I_2 \cdot 10 + (I_2 + I_3) \cdot 45 = 1{,}9 \end{cases}$$

$$\begin{cases} 55I_3 + 45I_2 = 2{,}1 \\ 55I_2 + 45I_3 = 1{,}9 \end{cases} \rightarrow I_3 = 0{,}03A, I_2 = 0{,}01A, I_1 = I_2 + I_3 = 0{,}04A$$

46. Rasmda tasvirlangan sxemadagi toklarni toping

$$\varepsilon_1 = 1{,}6V, \varepsilon_2 = 1{,}3V, r_1 = 1\Omega, r_2 = 0{,}5\Omega R = 0{,}6\Omega$$



1-rasm.



1,1-rasm.

1-rasmdagi sxemani quyidagicha o‘zgartirish kiritamiz(1,1-rasm). Kirxgofning birinchi qoidasini qo‘llab quyidagi tenglamani yozamiz

$$I = I_1 + I_2 \qquad (1)$$

Kirxgofning ikkinchi qoidasidan foydalanib berk konturlar uchun tegishli tenglama tuzamiz

$$I_1 r_1 + IR = \varepsilon_1, I_2 r_2 + IR = \varepsilon_2 \qquad (2)$$

(1) va (2) tenglamalarni soddalashtirib quyidagi natijalarga erishamiz

$$\begin{cases} I_1 r_1 + (I_1 + I_2)R = \varepsilon_1 \\ I_2 r_2 + (I_1 + I_2)R = \varepsilon_2 \end{cases} \rightarrow \begin{cases} I_1 \cdot 1 + (I_1 + I_2) \cdot 0{,}6 = 1{,}6 \\ I_2 \cdot 0{,}5 + (I_1 + I_2) \cdot 0{,}6 = 1{,}3 \end{cases}$$

$$\begin{cases} 1{,}6I_1 + 0{,}6I_2 = 1{,}6 \\ 0{,}6I_1 + 1{,}1I_2 = 1{,}3 \end{cases} \rightarrow I_1 = 0{,}7A, I_2 = 0{,}8A, I = I_1 + I_2 = 1{,}5A$$

47. Rasmda tasvirlangan sxemada rezistor orqali o‘tadigan tokni toping

$$\varepsilon_1 = 1{,}9V, \varepsilon_2 = 1{,}1V, r_1 = 0{,}8\Omega, r_2 = 0{,}1\Omega R = 10\Omega$$



1-rasm.



1,1-rasm.

1-rasmdagi sxemani quyidagicha o‘zgartirish kiritamiz(1,1-rasm). Kirxgofning birinchi qoidasini qo‘llab quyidagi tenglamani yozamiz

$$I = I_1 + I_2 \qquad (1)$$

Kirxgofning ikkinchi qoidasidan foydalanib berk konturlar uchun tegishli tenglama tuzamiz

$$I_1 r_1 + IR = \varepsilon_1, I_2 r_2 + IR = \varepsilon_2 \qquad (2)$$

(1) va (2) tenglamalarni soddalashtirib quyidagi natijalarga erishamiz

$$\begin{cases} I_1 r_1 + (I_1 + I_2)R = \varepsilon_1 \\ I_2 r_2 + (I_1 + I_2)R = \varepsilon_2 \end{cases} \rightarrow \begin{cases} I_1 \cdot 0{,}8 + (I_1 + I_2) \cdot 10 = 1{,}9 \\ I_2 \cdot 0{,}1 + (I_1 + I_2) \cdot 10 = 1{,}1 \end{cases}$$

$$\begin{cases} 10{,}8I_1 + 10I_2 = 1{,}9 \\ 10{,}1I_2 + 10I_1 = 1{,}1 \end{cases} \rightarrow I_1 = 0{,}92A, I_2 = -0{,}8A, I = I_1 + I_2 = 1{,}2A$$

48. Rasmda tasvirlangan sxemadagi barcha qarshiliklardan o‘tuvchi toklarni toping. $\varepsilon_1 = 1{,}5V, \varepsilon_2 = 1{,}8V, R_1 = R_2 = R_3 = R_4 = 1k\Omega, r_1 = 0, r_2 = 0$



1-rasm.



1,1-rasm.

1-rasmdagi sxemani quyidagicha o‘zgartirish kiritamiz(1,1-rasm). Kirxgofning birinchi qoidasini qo‘llab quyidagi tenglamani yozamiz

$$I_1 = I_2 + I_3$$
$$I_6 = I_3 + I_5$$
$$I_4 = I_1 + I_5$$
$$I_4 = I_2 + I_6 \qquad (1)$$

Kirxgofning ikkinchi qoidasidan foydalanib berk konturlar uchun tegishli tenglama tuzamiz

$$I_1R_1 + I_3R_3 = \varepsilon_1$$
$$I_2R_2 - I_3R_3 = \varepsilon_2$$
$$I_1R_1 + I_2R_2 + I_4R_4 = \varepsilon_1 + \varepsilon_2 \qquad (2)$$

(1) va (2) tenglamalarni soddalashtirib quyidagi natijalarga erishamiz

49. Rasmda tasvirlangan sxemadagi barcha qarshiliklardan o‘tuvchi toklarni toping. $\varepsilon_1 = 4V,\ \varepsilon_2 = 8\ V, R_1 = R_2 = 2k\Omega, R_3 = 1k\Omega,\ R_4 = 5k\Omega,\ r_1 = 0, r_2 = 0$



1-rasm.



1,1-rasm.

1-rasmdagi sxemani quyidagicha o‘zgartirish kiritamiz(1,1-rasm). Kirxgofning birinchi qoidasini qo‘llab quyidagi tenglamani yozamiz

$$I_1 = I_4 + I_5$$
$$I_3 = I_1 + I_2$$
$$I_6 = I_2 + I_4$$
$$I_3 = I_5 + I_6 \qquad (1)$$

Kirxgofning ikkinchi qoidasidan foydalanib berk konturlar uchun tegishli tenglama tuzamiz

$$I_1R_1 + I_3R_3 = \varepsilon_1$$
$$I_2R_2 + I_3R_3 = \varepsilon_2$$
$$I_1R_1 - I_2R_2 + I_4R_4 = \varepsilon_1 - \varepsilon_2 \qquad (2)$$

(1) va (2) tenglamalarni soddalashtirib quyidagi natijalarga erishamiz

$$I_1 = 0{,}5mA, I_2 = 2{,}5mA, I_3 = 3mA, I_4 = 0$$

50. E.Yu.K. lari ε_1=1,4 *V* va ε_2=1,2 *V* hamda ichki qarshiliklari r_1=0,6 Ω va r_2=0,4 Ω bo‘lgan ikkita element o‘zaro parallel ulangan. Elementlarning qisqichlaridagi potensiallar ayirmasi topilsin.



$\varepsilon_1 > \varepsilon_2$ bo‘lganligi uchun birinchi manba razryadlanadi, ikkinchi manba zaryadlanadi. Zanjirda tarmoqlanish yo‘qligi uchun toklar bir xil bo‘ladi

To‘liq zanjir uchun Om qonunini ikkita hol uchun quyidagicha yozamiz

I-hol razryadlanish uchun

$$\varepsilon_1 = U + I \cdot r_1 \qquad (1)$$

II-hol zaryadlanish uchun

$$U = \varepsilon_2 + I \cdot r_2 \qquad (2)$$

Bu ikkita formulani soddalashtiramiz

$$\begin{cases} \varepsilon_1 = U + I \cdot r_1 \\ U = \varepsilon_2 + I \cdot r_2 \end{cases} \rightarrow \begin{cases} I \cdot r_1 = \varepsilon_1 - U \\ I \cdot r_2 = U - \varepsilon_2 \end{cases}$$

$$\frac{I \cdot r_1}{I \cdot r_2} = \frac{\varepsilon_1 - U}{U - \varepsilon_2} \rightarrow \frac{r_1}{r_2} = \frac{\varepsilon_1 - U}{U - \varepsilon_2} \rightarrow U = \frac{r_1 \cdot \varepsilon_2 + r_2 \cdot \varepsilon_1}{r_1 + r_2} = 1{,}28V$$

51. Ikkita akkumulyatorlar batareyasi $\varepsilon_1 = 10V, r_1 = 1\Omega, \varepsilon_2 = 8V, r_2 = 2\Omega$ va reostat R=6Ω. Rasmda ko‘rsatilgandek qilib ulangan. Batareyalardagi va reostatdagi tok kuchi topilsin.



1-rasm.



1,1-rasm.

1-rasmdagi sxemani quyidagicha o‘zgartirish kiritamiz(1,1-rasm). Kirxgofning birinchi qoidasini qo‘llab quyidagi tenglamani yozamiz

$$I_1 = I_2 + I \qquad (1)$$

Kirxgofning ikkinchi qoidasidan foydalanib berk konturlar uchun tegishli tenglama tuzamiz

$$I_1 r_1 + IR = \varepsilon_1, I_2 r_2 - IR = \varepsilon_2 \qquad (2)$$

(1) va (2) tenglamalarni soddalashtirib berilganlarni keltirib qo‘ysak quyidagi natijalarga erishamiz

$$\begin{cases} I_1 r_1 + (I_1 - I_2)R = \varepsilon_1 \\ I_2 r_2 - (I_1 - I_2)R = \varepsilon_2 \end{cases} \rightarrow \begin{cases} I_1 \cdot 1 + (I_1 - I_2)6 = 10 \\ I_2 \cdot 2 - (I_1 - I_2)6 = 8 \end{cases}$$
$$I_1 = 6{,}4A; I_2 = 5{,}8A; I = 0{,}6A$$

